

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O.NISHANOVA**

# **ETNOMADANIYAT**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**Toshkent  
“Universitet”  
2021**

**Nishanova O. Etnomadaniyat. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Universitet”,  
2021. 128 bet.**

**UO‘K: 908:39(575.1)(075.8)**

**KBK: 71g**

**N 69**

O‘quv qo‘llanma oliy ta’lim magistratura bosqichining Madaniyatshunoslik mutaxassisligi talabalari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada etnomadaniyatning genezisi, funksiyalari, o‘zbek etnomadaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, etnomadaniyatdagi milliylik va umuminsoniylik dialektikasi, etnomadaniy ideal muammosi, o‘zbek etnomadaniyatida milliy g‘oyaning aks etishi masalasi, etnomadaniyatdagi innovatsion va transformatsion o‘zgarishlar bayon qilingan.

**Taqrizchilar:**

**U.Qoraboyev** – Milliy rassomlik va dizayn instituti professori,  
falsafa fanlari doktori

**N.Abdullayeva** – O‘zMU “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrası  
professor, falsafa fanlari doktori

*Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2020 yil 07-dekabrda 648-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan va  
nashrga tavsiya etilgan.*

**ISBN: 978-9943-7860-1-1**

**© “Universitet” nashriyoti**

## KIRISH

Etnomadaniyat har bir xalq, millat, etnosning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan o‘ziga xos moddiy, ma’naviy, maishiy va ma’rifiy boyliklarini, olamni idrok etish, o‘zlashtirish va o‘zgartirish tajribalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu boyliklar va tajribalarni o‘rganmasdan, ulardagi ijobiy tomonlardan unumli foydalanmasdan turib milliy-madaniy taraqqiyotni ta’minlash qiyin. «Tarixning, tarixiylikning qimmatini uning uzoq o‘tmishga borib taqalishida emas, balki zamonaviy muammolarni hal etishga yordam berishidadir. Agar biz zamonaviy muammolarning kelib chiqish tarixini o‘rgansak va negizlarini topsak, ularni echish yo‘llarini ham topamiz».<sup>1</sup> Demak, muammoga tarixiy nazar ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni qayta tiklash uchun emas, balki zamonaviy muammolarning mohiyatini anglash va ularni samarali echish uchun lozimdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, xalqimizning asrlar davomida yaratgan bebaho ma’naviy merosini tiklash va uni yanada rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Milliy qadriyat va an’analarning tiklanishi, o‘zbek madaniyati va san’atiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar, festivallar, turli ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilishi – nafaqat o‘zbek xalqi hayotida, balki xalqaro darajada muhim ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan “Boysun xalq og‘zaki ijodi” (2001), mumtoz musiqa – “Shashmaqom” (2003), milliy bayram – “Navro‘z” hamda “Katta ashula” (2009), “Askiya” (2014), “Palov” (2016), “Baxshichilik san’ati” (2020) kabi boy merosimiz namunalari jahon madaniyatining durdonalari sifatida e’tirof etilishi muhim tarixiy voqea bo‘ldi. O‘zbek xalqining mazkur qadriyatlari jahon xalqlarining bebaho madaniy merosi sifatida umumbashariyat mulkiga aylandi. Samarqandda har ikki yilda bo‘lib o‘tayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali o‘zbek etnomadaniyatining e’tirof etilishi, unga bo‘lgan qiziqish va dunyo xalqlari madaniyati millatlararo hamkorlikni ta’minlashi ifodasidir.

2018 yilda Shahrisabzda maqom (har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi), 2019 yilda Termizda baxshichilik san’atiga bag‘ishlangan xalqaro festivallarni o‘tkazilganligi diqqatga sazovordir. YUNESKO shafeligida Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan birinchi xalqaro hunarmandchilik festivali unutilayotgan hunarmandchilik maktablarini, qadriyatlarini

---

<sup>1</sup> Ястерс К. Смысл и назначение истории. –М: Республика, 1998. -21 с.

tiklash, milliy hunarmandchiligimiz bilan jahon hamjamiyatini yaqindan tanishtirish hamda ustoz-shogird an'anasini davom ettirishni maqsad qilgan. "Jahon hunarmandlar tashkiloti tomonidan ushbu shaharga "Jahon hunarmandlari shahri" maqomi berilgani o'zbek xalq amaliy san'atining xalqaro miqyosdagi yuksak e'tirofi bo'ldi"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son Qaroriga ko'ra "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasi" qabul qilindi. Konsepsiyaning asosiy vazifalari sifatida tarixiy-madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash kabilar belgilab qo'yilgan.<sup>2</sup> Mazkur Konsepsiyani tasdiqlanishi o'zbek etnomadaniyatini asrash va rivojlantirish yo'lidagi yana bir muhim amaliy qadam bo'ldi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3-oktabrdagi "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <http://uza.uz/oz/documents/khal-aro-unarmandchilik-festivalini-tkazib-borishga-oid-chor-03-10-2019>

<sup>2</sup> <http://lex.uz/docs/4084926?otherlangq>

# 1-MAVZU. ETNOMADANIYAT FANIGA KIRISH

## Reja

1. Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Etnomadaniyatning sub'ekti masalasi
3. O'zbek xalqi etnik madaniyati (etnomadaniyati)ni o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalar

Etnomadaniyat xalqning, millatning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, turmush tarzi, tili, urf-odatlarini, tashqi dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish va o'zini, o'zligini idrok etish, anglash usullari, xullas, etnosning, millatning mavjudligini ifoda etuvchi ijtimoiy voqelikdir. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy voqelik, ayniqsa inson va xalq hayotining barcha tomonlariga taalluqli madaniyat ko'p omillilik, komplekslik, sinkretiklik, universallik, turg'unlik va o'zgaruvchanlik xususiyatlariga ega. Madaniyatning ushbu xususiyatlarini hisobga olmasdan uning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotdagi o'rnini ham, ichki tuzilishi va funksiyalariga oid belgilarini ham to'g'ri anglash mumkin emas. «Jamiyat va madaniyat aynan bo'lmasada, - deb yozadi S. Shermuhammedov va A. Ochildiev, - jamiyatning hamma sohalarida madaniyat mavjuddir. Shunday ekan, jamiyatning madaniyat rivojlanishiga ta'sirini, bu ta'sir qanday shakllarda amalga oshishini tushunib olmay turib, madaniyat deb atalmish ulkan ijtimoiy hodisaning mohiyatini oxirigacha aniqlab bo'lmaydi.» Agar ushbu yondashuvni etnomadaniyatga tatbiq etsak, madaniyatni etnosning shakllanish jarayoni bilan retrospektiv bog'lashga to'g'ri keladi, chunki etnos shakllanish jarayonisiz etnomadaniyat yo'q.

“Etnomadaniyat” tushunchasi “etnos” va “madaniyat” so'zlarining uyg'unligidan tashkil topgan, shuning uchun uning negizida “etnos” va “madaniyat” so'zlarining nafaqat etimologik, shu bilan birga, ijtimoiy va tarixiy mohiyati mujassam. Etnos “xalq” ma'nosini anglatadi, madaniyat esa ijtimoiy faoliyat jarayonida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisidir. Ammo, ushbu etimologik va ijtimoiy mohiyat etnomadaniyatni retrospektiv-falsafiy tahlil qilishga xalaqit bermaydi, balki, aksincha, ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan tarixiy yondashuv muammoni aniq bilish va uni chuqur ilmiy yoritishga yordam beradi.

Tarixiy yondashuv, retrospektiv tahlil, mashhur tarixchi va faylasuf A.Toynbi iborasi bilan aytganda, “O‘tmishni qayta tiriltirish emas, balki muammoning ijtimoiy borliq, xalq hayoti va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy, gnoseologik, falsafiy mohiyatini izlashdir”. To‘g‘ri, har qanday ilmiy, gnoseologik izlanishlarga, falsafiy g‘oyaga o‘tmishdan dalil, manba topish mumkin, lekin bu har qanday izlanish va g‘oyani asoslash ham mumkin, degan fikrga olib kelmaydi. Ilm-fan insonning aqlu idroki va intellektual salohiyatiga tayangani bois, o‘tmishdan ham, eng avvalo, ijtimoiy taraqqiyotga yordam beradigan pozitiv tajribalarni, g‘oyalarni izlashga undaydi. Ma’lumki, ilm-fan uchun ob’ektivlik muhim. U voqea va hodisalarning ambivalentlik xususiyatini, ijobiy va salbiy jarayonlar mudom yonma-yon kelishini inkor qilolmaydi, biroq ilm-fanga pozitivni izlash orqali jamiyatning strategik maqsadiga xizmat qilish ko‘proq zarur.

“Etnomadaniyat” fanining predmeti etnomadaniyat, uning genezisi, evolyusiyasi, shakllari, funksiyalari hamda ma’naviy-axloqiy ahamiyatini o‘rganishdan iborat.

“Etnomadaniyat” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarni etnomadaniyat, tarixiy-madaniy merosimiz, ma’naviy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, ularning ma’naviy hayotimizda tutgan o‘rni haqida to‘g‘ri ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda yuksak madaniyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

Fanning vazifalari – magistrantlarga etnomadaniyat, uning shakllari, funksiyalari, etnomadaniyatdagi innovasion va transformatsion o‘zgarishlar hamda madaniy globallashtirish, undagi milliy va umuminsoniy omillarning sinkretik ta’siri haqida umumiy nazariy tushunchalar berish, shuningdek, ajdodlar merosini o‘rgatish asnosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

*Etnomadaniyat* fani Tarix, Pedagogika, Psixologiya, Adabiyot, Madaniyatshunoslik, Sotsiologiya, Etika, Estetika fanlari bilan uzviy rivojlanadi.

Etnomadaniyatning asosiy tarkibiy qismlariga odat, an’ana, marosim, bayram kabilar kiradi.

Odat - kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko‘nikmasidir.

An'ana - tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir.

Marosim - inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy vaziyatda o'tadigan, umum qabul qilgan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir.

Bayram - biror-bir muhim hodisa, voqea, sanani ko'pchilik bo'lib, ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash. Shodlik va xursandchilik kuni.

Bugun ijtimoiy taraqqiyotning mohiyati ham, mezoni ham madaniy boyliklar bilan o'lchanishi, madaniyat inson faoliyatining mahsuli ekani aksiomadir. Ammo, madaniyatning sub'ekti tahlili davomida turli yondashuvlar va fikrlarga duch kelamiz. Ta'kidlash lozimki, madaniyatning sub'ekti masalasi etnomadaniyatning mag'zini tashkil etadi. Inson faoliyatining mahsuli – madaniyat, degan aksioma hali madaniyatning sub'ekti kim – shaxslarmi, ayrim guruh yoki qatlammi yohud xalq, omma, millatmi degan savolga javob emas. Etnomadaniyat, etimologik talqiniga ko'ra, etnos (xalq) yaratgan boyliklar, artefaktlar (ijtimoiy faoliyat jarayonida yaratilgan sun'iy borliq, sun'iy dunyo) bo'lsa-da, u betakror kashfiyotlar qilgan, buyuk asarlar yaratgan shaxslar, guruhlar, qatlamlarning madaniy boyliklar yaratishdagi o'rni qanday, degan savolga befarq qola olmaydi.

Etnomadaniyat genezisi bilan etnogenez dialektik bog'liq jarayon ekan, bu, o'z navbatida etnomadaniyat sub'ekti mavzusini ortiqcha qilib qo'yadi. Chunki, etnomadaniyat negizida xalqning sub'ektligi, ya'ni madaniyatining yaratuvchisi xalqdir, degan tezis yotadi. Demak, etnomadaniyat deganda yaratuvchisi xalq, ya'ni etnos bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi nazarda tutiladi. Ammo ushbu, mohiyatan to'g'ri tezis, madaniyatga tatbiq etilgan zahoti turli, nazariy-falsafiy mushohadalarga, tahlilga undovchi savollar uyg'otadi. Masalan, ijtimoiy-madaniy jarayonlarda shaxs (ijodkor)ning o'rni qanday bo'ladi? Shaxs (ijodkor) bilan xalq (sub'ekt) o'rtasida farq bormi yoki ularning differensial xususiyatlari ijtimoiy-madaniy borliq uchun muhim emasmi? Etnomadaniyat xalqning yaratuvchilik rolini e'tirof etish bilan cheklanib

qolaveradimi? Falsafa, etnologiya, madaniyatshunoslikda bu borada qanday qarashlar, konsepsiyalar ilgari suriladi?

“Islom falsafasining asoschisi” Abu Nasr Farobiy: “Insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilatlariga kelsak, bu fazilat tug‘ma emasdir”, - deb ta’kidlagan. Mazkur fazilatlar ta’lim va tarbiya orqali shakllantiriladi. “Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir”. Demak, xalqlar va shaharliklar fazilatlarini ta’lim va tarbiya orqali, ya’ni ular hamjihat bo‘lib yaratgan tartiblar, vositalar orqali madaniy makonni barpo etadilar. Unda nafaqat “nazariy va amaliy fazilatlar”, shuningdek san’at, kasb-hunar egallash odatga aylanadi. Ushbu asosda xalqlar, kishilar birlashadilar yoki ular bir-birlariga yordamga keladilar. “Har bir inson, – deb yozadi al-Farobiy, – o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni etkazib beradi”. Demak, insonlar o‘z quvvatlarini ro‘yobga chiqarish, etuklikka erishish va ehtiyojlarini qondirish uchun bir jamoaga birlashadilar. Shu tariqa ular baxt-saodatga, madaniy shaharlar barpo etishga, ularni o‘z ehtiyojlariga, adolat tamoyillariga muvofiq boshqarib, har bir kishini, xalqni ijtimoiy-madaniy borliqni yaratuvchi sub’ektga aylantiradilar.

Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobi ijtimoiy-madaniy borliqning sub’ekti xalq ekanligi haqidagi ilmiy asardir. Ammo, Beruniy ham xalqni, millatni ijtimoiy-madaniy borliqning yaratuvchisi, sub’ekti deb atamaydi. Unga ham hozirgi ma’nodagi “sub’ekt” va hozirgi talqindagi “ijtimoiy-madaniy borliq” tushunchalari ma’lum emas edi. Bu tushunchalar XVIII asrdan keyin ilm-fanda paydo bo‘ladi va ilmiy, falsafiy adabiyotlarda qo‘llanila boshlaydi.”.



Xalq ijtimoiy-madaniy borliqning sub'ekti ekani nemis ma'rifatparvari va faylasufi I.G.Gerder (1744-1803) tomonidan asoslab berilgan. Aynan u insoniyat sivilizatsiyasi madaniyatlar va madaniy o'zgarishlar tarixi ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbek xalqi etnik madaniyati (etnomadaniyati)ni o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalar va yondashuvlarni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

- I. Tarixiy-arxeologik yondashuv
- II. Mifologik-diniy yondashuv
- III. Sotsiologik yondashuv
- IV. Folkloristik yondashuv
- V. Jug'rofiy-etnografik yondashuv
- VI. Ijtimoiy-pedagogik yondashuv
- VII. Badiiy-estetik yondashuv
- VIII. Sivilizatsion yondashuv
- IX. Sotsiologik (sotsiodinamik) yondashuv
- X. Falsafiy-madaniy yondashuv va b.

Ushbu yondashuvlar ijtimoiy-tarixiy rivojlanishdan o'ziga taalluqli yo'nalishlarni tadqiq etadi. Ularning har biri etnik madaniyatdan o'z tadqiqot maqsadlariga taalluqli belgilarni, jarayonlarni, o'zgarishlarni qidiradi va ularni ilmiy-nazariy baholaydi. Biz o'zbek xalqi etnomadaniyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalar va yondashuvlarni tahlil qilganda faktlarning ichki xususiyatlariga, ular o'rtasidagi bog'liqliklarning ijtimoiy-amaliy ahamiyatiga diqqatimizni qaratamiz.

**Tarixiy-arxeologik yondashuv** o'zbek xalqi etnomadaniyatining ijtimoiy-tarixiy paydo bo'lishi va rivojlanishini tarixiy-arxeologik manbalar, ashyolar, dalillar asosida tadqiq etadi. O'rta Osiyo, I.Jabborov qayd etganidek, «o'ziga xos tarixiy-etnografik va xo'jalik-madaniy tiplar yaratgan mintaqa. Unda yashovchi xalqlarning kelib chiqishi va tarixiy taqdiri umumiy xarakterga ega. Tarixda umumiy etnik ildizga ega bo'lgan, muayyan hududda joylashgan, ammo turli til, madaniy-xo'jalik tipdagi har xil elatlar doimo o'zaro yaqin munosabatlarda bo'lib, aralashib kelgan va uzoq murakkab tarixiy jarayonni boshidan kechirgan».<sup>1</sup> Demak, o'zbek

---

<sup>1</sup> Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1994. –19 б.

xalqi etnomadaniyati, tabiiy ravishda, Oʻrta Osiyo mintaqasida yashayotgan qardosh xalqlar etnomadaniyati bilan bir ijtimoiy-tarixiy negizga ega, mohiyatan yaqindir. Buni Janubiy Turkmaniston, Janubiy Qozogʻiston, Tyan-Shan-Pomir etaklari, Kaspiy dengiz sohillari, Markaziy Fargʻona, Xorazm, Surxondaryo viloyatlarida topilgan arxeologik topilmalarning oʻxshashligi ham koʻrsatadi.

Tarixiy-arxeologik topilmalar Oʻrta Osiyoga aholi Old Osiyodan paleolit davridayoq koʻchib kela boshlaganidan darak beradi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq oʻlkamiz xalqlarining etnik xususiyatlarini ifoda etuvchi xoʻjalik-madaniy tiplari yuzaga kelgan. Mahalliy qabilalar va jamoalarning integratsion aloqalari umumiy koʻrinishdagi etnomadaniyatning shakllanishiga asos boʻlgan. Natijada ovchilik, baliqchilik, keyinroq esa dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan oʻlkamizning jugʻrofiy xususiyatlariga mos xoʻjalik-madaniy tiplari tashkil topgan.

**Mifologik-diniy yondashuv** oʻzbek xalqi etnomadaniyatini afsonalar, rivoyatlar, gʻayrihayotiy hikoyalar – miflar, diniy tasavvurlar orqali tadqiq etishdir. Miflar kishilar ruhini, badiiy-estetik qarashlarini, olam haqidagi tasavvurlarini ifoda etadi. Ayniqsa, Sharq xalqlari oʻz orzu xayollari va oʻtmishini mifologik obrazlarda, tasvirlarda ifodalashga oʻta moyil ekanini kuzatamiz. Agar Yangi Dunyo va Yevropa kishisi qadimdan gʻayrihayotiy simvollarga ochiqdan-ochiq kurashib kelsa, Sharq xalqlarida mifologiyaga, gʻayritabiiy kuchga ega valiylar, paygʻambarlar va avliyolarga ishonish hamon kuchlidir. Shuning uchun ham miflardan foydalanilgan badiiy asarlar xalqimiz, kishilarimiz his-tuygʻulariga tez taʼsir qiladi.

Quyida ana shunday gʻayritabiiy kuchlarga ishonishga yoʻgʻrilgan marosimlar - Bibi Mushkulkushod hamda Bibi Seshanbaga toʻxtalib oʻtamiz.

**Bibi Mushkulkushod** – diniy-mistik manbalarga koʻra mushkulni oson qiladigan avliyo ayol. Qissada yozilishicha, Bibi Mushkulkushod Bahouddin Naqshbandning xolasi boʻlib, odamlarning mushkulini oson qilgani uchun shu nomga sazovor boʻlgan. Oʻzbek ayollari orasida qadimdan mushkulini oson qilish, ishlariga rivoj berish maqsadida haftaning chorshanba kunlari Bibi Mushkulkushodga atab diniy ziyofat

o'tkazib turish odati mavjud bo'lgan. «Bibi Mushkulkushod» qissasida bayon qilinishicha, bir kambag'al bobo o'tinchilik bilan bola-chaqasini boqar ekan. Kunlardan bir kuni bobo ro'zg'orini tebratib turgan o'rog'i va arqonini yo'qotib qo'yadi. U o'rog'i va arqonini qidirib, bir g'orda yuzlaridan nur yog'ilib turgan Bibi Xotunga duch keladi. Bibi Xotun bobo mushkulini oson qiladi va buning evaziga har chorshanba biror otinga «Bibi mushkul kushod» qissasini o'qittirishni so'raydi. «Boshiga mushkul tushgan ayol (oilada biror mushkulot, bemorlik bo'lsa) mahallaning otinoyisiga ikkita issiq non, ikki hovuch qora mayiz, ikkita pilta (paxta) chiroq, bir tanga (20 tiyin) keltirib, shu oila himoyasiga Bibi Mushkulkushoddan madad so'rab, tilovat o'qittirgan. Otinoyi olti hafta "mushkulkushod" o'qigan. Yettinchisi boshiga mushkul ish tushgan ayolning xonadonida o'qitilgan. Qarindosh va qo'shni ayollar "mushkulkushod" o'qitiladigan uyga to'planishgan va otinoyi boshchiligida marosim o'tkazilgan. Mushkulkushod qissasi o'qilayotgan vaqtda ayollar mayizni dumini (cho'pchasini) ajratib o'tirishgan, keyin uni paxtaga o'rashgan. Marosim tugagach, o'sha paxtalar tegirmonga solingan yoki oqar suvga oqizib yuborilgan. Bu odat mushkullar tegirmonda yanchilib ketsin yoki suvda oqib, yo'q bo'lib ketsin, degan niyatda amalga oshirilgan.

**Bibi Seshanba** – diniy-mistik qarashlarga ko'ra, oila baxtining himoyachisi, charx yigiruvchi ayollarning homiysi hisoblanadi. Bibi Seshanba qissasida yozilishicha, u Bahovuddin Naqshbandning ammasi bo'lgan. O'zbek ayollari bu avliyo onaga sig'inib, seshanba kunlari uning sharafiga ziyofat o'tkazganlar.

Rivoyat qilishlaricha, bir etim qiz o'gay ona qo'lida xoru-zor yashar ekan. O'gay ona har kuni uni sigir boqqani yuborib, qo'lga bir etak paxta ham berar, to kechgacha ushbu paxtadan ip yigirib kelishni buyurar ekan. Kunlardan bir kuni qizning sigiri qochib, bir g'orga kiradi. Sigirining orqasidan kirgan qiz g'orda yuzlaridan nur yog'ilib turgan bir Bibiga duch keladi. Bibi qizning ahvoli bilan tanishgach, unga o'gay onaning zulmidan qutilib, boy-badavlat, olijanob insonga turmushga chiqishiga yordam beradi. To'ydan so'ng Hazrat Bibi qizga shunday nasihat qiladi: «San bu martabaga etding. Mehnating rohatiga va mashaqqating davlatiga mubaddal bo'ldi. Ammo ulug'liq qilib bizni unutmag'il! Endi san mani

haqimda osh qilib va yana bu qissani bayon qilib turgil.» Qissada yozilishicha, qiz g'orda uchratgan ayol - Hazrat Bibi Seshanba edi.

«Bibi seshanba»ni o'tkazish uchun etti xonadondan (xonadon sohiblari bir nikohli bo'lishlari shart) ozginadan un tilab olinadi. Agar bunday qilinmasa, uyning to'rt burchiga to'rtta tog'orachada un qo'yiladi, keyin undan olib, sut bilan umoch osh qilinadi, kulcha pishiriladi. Marosimga albatta otin oyi taklif etiladi. Otin oyi «Bibi seshanba qissasi»ni o'qib, salavatlar aytib, Qur'oni Karimni sharaflab, Alloh Taologa hamdu sanolar aytadi. Shundan so'ng, umoch osh bilan kulcha beva xotin va etim qizlarga tarqatiladi (erkak kishi eyishi mumkin emas). Kimki ushbu marosimni sidqidildan bajo keltirsa, ko'zlagan murodiga etadi, degan diniy qarashlar mavjud.

«Mushkulkushod» va «Bibi Seshanba» marosimlarida matriarxatga borib taqaluvchi (homiylarning ayol kishi ekanligi, g'or, etti va b.) simvollar aralashib kelishi kuzatiladi.

Hozir dunyoda, xalqlar hayotida global o'zgarishlar kechmoqda. Sharq dunyosida evropotsentrizm keng yoyilmoqda. Har yili Osiyo qit'asidan Yevropaga millionlab kishilar ko'chib ketayotgani kuzatiladi. Bu jarayonlar tarixiy-madaniy paradigmalarga ta'sir etmay qolmaydi. Natijada xalqlar o'z etnomadaniyatining o'zagi (yadrosi) bo'lgan mifologik-diniy tasavvurlarini himoya qilishga o'tishi tabiiy holdir. Shuning uchun ham Sharq xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi ham o'zining diniy qadriyatlarini asrashga, zardushtiylik, islomga oid axloqiy-ma'naviy boyliklardan unumli foydalanishga intiladi.

Xalqimiz ruhiy-ma'naviy komillik masalalariga muhim e'tibor bergan, lekin u hayotiy muammolarni esdan chiqarmagan. Bu o'rinda Naqshbandiyning («Diling Allohda bo'lsin, qo'ling mehnatda») tariqatini eslash o'rinlidir.

**Sotsiologik yondashuv** xalq, millat tilining yuzaga kelishi va ma'lum bir hududlarda tarqalib, etnomadaniy hodisaga aylanishi qonunlarini, xususiyatlarini o'rganishdir. Shubhasiz, avvalo, og'zaki so'zlashuv tili yuzaga kelgan. Qadimgi xorazmiylar, baqtriyaliklar, parfiyaliklar, marg'inonliklar, so'g'diylar, chochliklar, toharistonliklar o'ziga xos so'zlashuv tillariga ega bo'lgan.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. -Тошкент: Ўқитувчи, 1996. -Б.13-15.

O'lkamizda yozuv tili er. av. bir minginchi yillarda finikiy yozuvining oromi yozuvi orqali paydo bo'lgan. E'tiborli manbalarga qaraganda, hatto o'lkamizdagi xorazmiylar, baqtriyaliklar, so'g'diylar o'ziga xos tillarda, lahjada gapirishgan bo'lsalar-da, rasmiy ishlarini oromiy yozuvida olib borganlar.<sup>1</sup> Er. av. VI-IV asrlarga kelib eron (fors) yozuvi ahmoniyalar davlati (O'rta Osiyo ham unga qarashli edi)ning tiliga aylanadi. Er. av. III-I asrlarda o'lkamizda baqtriylar yozuvi, greklar yozuvi, hind (brahmo va kxaroshtxi) yozuvi, pahlaviy (o'rta fors) yozuvi, suriy-nestorian yozuvi va hozirgacha kelib chiqishi aniqlanmagan, "issiq" yozuvi, fors-sug'diylari yozuvi amalda bo'lgan. Xullas, uch ming yillar ichida O'rta Osiyo va Eron hududida fors-tojik va turk xalqlarining yozuv tili shakllangan.<sup>2</sup>

**Folkloristik yondashuv** etnomadaniyatni xalq og'zaki ijodining ertak, doston, maqol, matal, qo'shiqlar kabi ko'rinishlari orqali o'rganishdir. N.Rahmonov va B.Sarimsoqovning fikriga ko'ra, qadimgi turkiy xalqlarda yirik epik folklor janri bo'lmagan, ular "dastlab qahramonlik qo'shiqlari" ixcham bayon qiluvchi hikoyalar shaklida bo'lgan. Bu esa folklor asarlarini yodda saqlab qolishni, bir avloddan ikkinchi avlodga etkazishni, jug'rofiy tarqalishini osonlashtirgan. Folklor asarlarida o'zbek xalqining ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy adolat, farovon hayot, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy g'oyalari ifoda etilganki, aynan ular bois etnomadaniyatda "boqiy mavzular" shakllangan. Xalq qo'shiqlarida, - deb yozadi Iso Jabborov, - "insonning yuksak tuyg'ulari, pok sevgisi, sadoqatlilik, do'stlik kabi fazilatlari bilan birga og'ir ijtimoiy ahvoli, jabr-zulmlar, bevafoqlik, tushkunlik, alam-sitamli qayg'uli ravishda kuylanadi. Ayniqsa, hazin qo'shiqlar xotin-qizlar ahvoliga oid bo'lib, ularning oilada va jamiyatdagi fojiali turmushi tasvirlangan. Keng tarqalgan ashulalarda ijtimoiy jabr-zulm va adolatsizliklar o'z ifodasini topgan." Demak, xalqimiz tarixiy-madaniy hayoti o'tmishda har doim ham "go'zal", "etuk", farovon bo'lmagan. Folklor asarlari xalq qalbidagi o'y, fikr, orzular bilan hamohang bo'lgani uchun ularda etnomadaniyatning eng muhim qirralari aks etadi. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida folklor asarlarini to'plash, o'rganish, xalq og'zaki ijodidagi progressiv g'oyalardan

<sup>1</sup> Ртвеладзе Э.В., Лившиц В.А. Памятники древней письменности. – Тошкент: Узбекистан, 1985. –С. 7-8.

<sup>2</sup> Ахунджанов Э.А. Письменная культура Средней Азии. – Тошкент, 2000. - С. 36-37.

milliy tiklanishda, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda foydalanishga qiziqish oshmoqda.

**Jug‘rofiy-etnografik yondashuv** xalq madaniyatidagi hududiy rang-barangliklarni, har bir hududda yashovchi kishilarning hayot tarzi, urf-odatlarini, kiyinishi, bo‘sh vaqtlardagi mashg‘ulotlari, tabiiy olam bilan bog‘liqlik jihatlari, xo‘jalik yuritish usullari kabilarni o‘rganishni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy-pedagogik yondashuv** madaniyatning tarbiyaviy va ma‘rifiy funksiyalaridan kelib chiqib etnomadaniyatdagi kishilarning ongi, dunyoqarashi va tarbiyasiga samarali ta‘sir etuvchi vositalarni, usullarni, pedagogik texnologiyani o‘rganadi.

Keyingi yillarda etnopedagogika yoki xalq pedagogikasi alohida fan sohasi sifatida shakllanayotganini kuzatamiz. Bu aslida etnomadaniyatning bir yo‘nalishidir. “O‘zbek pedagogikasi antologiyasi” mualliflarining tan olishicha, “Xalq pedagogikasini o‘rganish va uni zamonamiz nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqishga ulgurmadik va amaliy faoliyatda qo‘llay olmadik.” Bu manbalarning kamligi bilan emas, balki ilmiy muhitning, ushbu sohani o‘rganishga hamda mavjud tarbiya sistemasining xalq pedagogikasini jiddiy qabul qilishga tayyor emasligi bilan izohlanadi. Ammo xalq pedagogikasidagi deyarli barcha g‘oyalar, fikrlar, usullar etnomadaniy hodisa sifatida qaralishi darkor, chunki har qanday pedagogik jarayon madaniy taraqqiyot natijasidir.

**Badiiy-estetik yondashuv** xalq etnomadaniyatini nafosat prinsiplariga binoan bunyod etilgan inshootlar, kishilarning olam haqidagi tuyg‘ulari, qarashlarini ifoda etuvchi musiqa, tasviriy va amaliy san‘at asarlari orqali o‘rganishdir. Ilk arxeologik topilmalardayoq o‘zbek xalqining badiiy-estetik madaniyatiga oid tasavvurlar, g‘oyalar va an‘analarga duch kelamiz. O‘rta Osiyo xalqlari qadimgi san‘atini maxsus o‘rgangan L.I.Rempelning ta‘kidlashiga ko‘ra, ilk topilmalardayoq ajdodlarimiz o‘zining dunyo haqidagi tasavvurlarini ma‘lum belgilar (krest, yarim krest, doira, yarim doira), hayvon-belgilar (naqshga o‘xshash hayvonlar, arslon, echki boshlari, ilon), antropomorf xudolar (yarim odam, yarim totem, ho‘kiz boshli boltalar), mifologik, yarim xudo qahramonlar

(ajdaho bilan kurashayotgan shoh va b.)da ifoda etganlar. Ularda “hali badiiy usulga ega bo‘lmay turib, ma’lum bir qarashlar o‘z aksini topgan.”<sup>1</sup>

Deyarli barcha tadqiqotchilar madaniyatni internatsionalizatsiyalashni nomuvofiq hol hisoblab, har bir etnomadaniyat o‘ziga xosligini saqlab qolishi lozim degan fikrni yoqlaydilar. To‘g‘ri, ba’zi etnomadaniy belgilar yo transformatsiyaga uchraydi yoki iste’moldan chiqadi, bu ijtimoiy-madaniy voqelikka xos xususiyatdir. Agar yaponiyaliklar uchun cho‘kka tushib ovqatlanish, ayollarning mayda qadam tashlab yurishi, zulular uchun bir oyoqda uxlash estetik madaniyat belgisi hisoblansa, o‘zbek xalqining chordona qurib o‘tirishi, katta kishiga o‘rnidan turib joy berishi estetik qadriyatdir. Demak, har bir xalq o‘zining tarixiy-madaniy an’analarida badiiy-estetik qarashlarini ifoda etadi.

**Sivilizatsion yondashuvni** ilm-fanga ingliz faylasufi va tarixchisi A.Dj.Toynbi olib kirgan. Uning fikriga ko‘ra, insoniyat 21 lokal sivilizasiyalar orqali rivojlangan. Ushbu sivilizasiyalar o‘ziga xos bosqichga kirguncha va o‘z paradigmalarini yaratguncha bir-birlari bilan aloqada bo‘lmagan.<sup>2</sup>

**Sotsiologik yondashuv** etnomadaniyatni jamiyat hayotida, tizimlarida, institutlarida, qatlamlarda kechayotgan ijtimoiy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida qaraydi. Keyingi paytlarda ushbu jarayonlarni maxsus tadqiq etuvchi madaniyat sotsiologiyasi yuzaga keldi va etnosotsial tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Ularda jamiyat hayoti va taraqqiyotining madaniy omillarga bog‘liqligi, ijtimoiy munosabatlar bilan etnomadaniyat dialektikasi, shaxs-jamiyat-madaniyat sistemasida antropologik va etnologik masalalarning uyg‘unlashib kelishi, regional (Evroosiyo va Markaziy Osiyo) muammolarning ijtimoiy-madaniy modellari tahlil qilinmoqda.

**Falsafiy-madaniy yondashuv** etnomadaniyatning inson va borliq, inson va jamiyat sistemalari bilan bog‘liqligini, xalq ommasining ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi o‘rnini, milliy madaniyatning jamiyatni transformatsiyalash va modernizatsiyalashga ta’sirini, shaxs ma’naviy kamolotida urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar, din, ilm-fan, axloqning tarbiyaviy funksiyalarini o‘rganadi.

---

<sup>1</sup> Ремпель Л.И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. –Тошкент: Изд. лит. и искусства им. Г. Гуляма, 1987. – С. 10.

<sup>2</sup> Тойнби А.Дж. Постигжение истории. Сборник. -М.: Прогресс, 1991. -С. 99-100.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek xalqi etnomadaniyatiga bo'lgan ilmiy qiziqishning doirasi juda keng, ularda, birinchidan, milliy, hududiy, ma'naviy-ruhiy, maishiy va umuminsoniy belgilar butun O'rta Osiyo xalqlariga xos voqelik sifatida tadqiq etiladi. Ikkinchidan, o'zbek xalqi etnomadaniyati azaldan o'zida innovatsiyalarga moyillikni saqlab, uni rivojlantirib kelgan. Bu esa unga dunyo xalqlari bilan integratsiyaga kirishib taraqqiy etish imkonini bergan. Uchinchidan, o'zbek xalqi o'zining tarixiy-madaniy paradigmalarini asrab kelgan, ularni tashqi ta'ziqlar tufayli yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymagan.

### **Nazorat savollari**

1. Etnomadaniyat fanining predmeti nima?
2. Odat, an'ana, bayram va marosim tushunchalarini qiyosiy tahlil qiling.
3. Etnomadaniyatni o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni tahlil qiling.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. Jabborov I. O'zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
4. Murodov M., Qoraboev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. – Toshkent: Adolat, 2003. -225 b.
5. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.

## **2-MAVZU. ETNOMADANIYATNING GENEZISI**

### **Reja**

1. Etnomadaniyatning genezisi va evolyusiyasi
2. Urug', qabila, elat, millat tushunchalari
3. Etnomadaniyatdagi subetnik-etnik-superetnik sistemalar

O'zbek xalqining kelib chiqishi, etnogenezi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. S.P.Tolstov yozganidek «Er yuzidagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqi ham tarixan qadimda va o'rta asrlarda turli nomlar bilan



atalgan qabilalar va elatlardan shakllangan.» M.Ermatovning ta'kidlashicha, o'zbek xalqi etnomadaniyatiga xos belgilar ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq ko'zga tashlanib, keyingi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichlarida yanada aniqroq ko'rinishda namoyon bo'ldi. Masalan, yarim ko'chmanchi, ko'chmanchi va o'troq turmush tarzi ana shunday belgilardir.

Etnos genezisini anglashda o'zbek olimlari A.Asqarov, K.Shoniyozov va Iso Jabborovlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga ega, chunki aynan ular o'zbek xalqi genezisini, etnomadaniyatini falsafiy-retrospektiv tahlil etib, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun metodologik yo'llanma bergan.

“Xalq tarixining etnogenez qismi, – deb yozadi A.Asqarov, – uning elat, xalq bo'lib shakllanishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Etnogenezning boshlang'ich nuqtasi, uning ibtidosi qabiladan boshlanadi... Etnogenez yakunida etnosga xos barcha etnik belgilar, etnik alomatlar birin-ketin yuzaga chiqib, mujassamlashgan bo'ladi. Etnik alomatlarni esa hududiy birlik, iqtisodiy-xo'jalik birligi, etnomadaniy birlik, antropologik tip birligi, etnik nom, o'zlikni anglash, til birligi va nihoyat siyosiy uyushma birligi tashkil etadi”<sup>1</sup>. Bu o'rinda etnos xalq ma'nosida ishlatilayotganini sezish qiyin emas. Ammo, unda etnogenez xalq shakllanishini yuzaga keltirgan bosqich sifatida qaraladi. “Ikkinchi bosqich, bu elat – xalq tarixidir. Ya'ni, xalq etnogenezi yakunlangach, uning shakllangan xalq tarixi to'laligicha feodal jamiyatining ijtimoiy mahsulidir”.

Olim o'zbek etnogenezi o'sib, rivojlanib, davom etib, uchinchi bosqichga o'tgach, o'zbek millati shakllanganini qayd etadi. Bunda etnomadaniy rivojlanish muhim rol o'ynagan. “Xalq tarixi o'z iqtisodiy-xo'jalik va etnomadaniy rivojining ma'lum nuqtasiga etgach, uning millat bo'lib shakllanish jarayoni boshlanadi, ya'ni uning uchinchi, millat tarixi boshlanadi”. Demak, “millatning shakllanishi ham xalqning tarkib topishi kabi uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo'lib, millat etnik tarixining eng yuksak yuqori cho'qqisi, kamolot bosqichiki, bu bosqichga ko'tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi, u suveren davlat sifatida ichki va tashqi siyosatini mustaqil yuritadi, millat

---

<sup>1</sup> Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – 58 б.

tili davlat tili maqomini oladi, uning davlat chegaralari qat'iy, daxlsiz bo'lib, jahon hamjamiyati tomonidan tan olinadi, millatning o'zlikni anglash darajasi yuksak, milliy g'urur, vatanga fidoyilik, ona zamin va xalqiga sodiqlik millat fuqarolarining hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi, millatga xos mentalitet shakllanadi, ya'ni davlat millatning xohish-irodasini bajaruvchi jonli mexanizmga aylanadi." Etnogenez etnomadaniy jarayonlar bilan dialektik bog'liqdir, shuning uchun ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Xalq, millat etnomadaniyatni yaratar ekan, o'z navbatida etnomadaniyat ham ularning rivojlanishiga ta'sir etadi, ularning tarixiy-madaniy birlik sifatida kelishini ta'minlaydi.

Ommaviy axborot vositalari va maxsus nashrlarda bildirilayotgan fikrlarni umumlashtirib, K.Sh. Shoniyozov yozadi: «Etnografiya fanida elatni (millatni ham) belgilovchi bir qancha alomatlar mavjud: hudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyliigi, ong tizimi, etnosning uyushqoqligi, ma'lum bir davlat doirasida bo'lishi, o'z etnik nomiga (etnomiga) ega bo'lishi, din umumiyliigi va bir qancha boshqa alomatlar. Albatta, bu alomatlar etnosning shakllanish jarayonida ishtirok etishi kerak bo'lgan. Ammo amalda esa bu alomatlarni barchasi elatning shakllanayotgan kezlarda muayyan bir vaqtda hozir bo'lishi yoki bir davrda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lmagan. Etnik alomatlarining biri, balki bir nechtasi bir vaqtda hosil bo'lsa, boshqasi esa keyinroq paydo bo'lishi mumkin. Ma'lum bir etnosni tashkil topishida til bosh rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi bir elatning paydo bo'lishida xo'jalik, uchinchisida esa moddiy madaniyat etakchi alomat bo'lishi ehtimoldan holi bo'lmasa kerak.» Demak, etnomadaniyat etnogenezda muhim omildir, biroq uning barcha komponentlari bir vaqtda to'la namoyon bo'lavermaydi. Etnosning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotda muhim o'rin olishi bilan etnomadaniy belgilar kengroq ko'zga tashlanadigan va etnosning xususiyatlarini to'laroq ifodalaydigan bo'ladi. Xo'sh, o'zbek xalqi etnomadaniyatidagi ushbu o'ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat? Etnomadaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini moddiy va ma'naviy, ijtimoiy, badiiy-estetik, ahloq, xulq-atvor, imo-ishora, maishiy hayot kabi ko'rinishlarga ajratib o'rganish mumkin.

Shu o‘rinda mavzumiz uchun prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan, o‘zbek madaniyatidan chuqur joy olgan fikr haqida to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Mustaqillik yillarida ayrim tadqiqotlarda o‘zbek etnomadaniyati o‘troq xalqlar madaniyati asosida yuzaga kelgan, degan qarash uchraydi. Bu tarixiy haqiqatdan yiroq qarashdir. K.Shoniyozovning ta’kidlashicha, “O‘zbekiston Respublikasi hududida asosan ikki turdagi madaniyat mavjud bo‘lgan: dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan turg‘un aholi madaniyati va ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troq chorvador qabilalar madaniyati... Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, yuqorida eslatilgan har ikkala turdagi madaniyat taraqqiyoti, bir xilda (bir tekisda) rivojlanmagan. Vohalarda dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan qishloq va shahar aholisining madaniyati, ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troq chorvador qabilalarning madaniyatiga nisbatan birmuncha taraqqiy etgan bo‘lgan. Bu bilan biz chorvador qabilalarning madaniyati past bo‘lgan, demoqchi emasmiz. Bunday desak, qo‘pol xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Har bir xalq o‘z taraqqiy darajasida, o‘z davriga xos madaniyatga ega bo‘lgan”<sup>1</sup>. Ushbu metodologik ahamiyatga ega xulosani xalq madaniyatining shakllarini, turlarini tahlil qilganda, ulardagi badiiy-estetik qadriyatlarning mohiyatini ochib berganda unutmasligimiz kerak. Chunki, har bir etnomadaniy boylikdagi badiiy-estetik qadriyatlar – go‘zallik va xunuklik tasviri, ranglar kombinasiyasi, fojiaaviylik yoki kulgililik ifodasi, badiiy til va obraz, qahramonlarning yoki ijodkorning xatti-harakatlari o‘sha etnomadaniy boylik yaratilayotgan davrning mahsulidir. Badiiy-estetik qadriyatlar o‘sha davr sintezidan o‘tkazilib, baholanishi darkor. O‘zbek etnomadaniyati, ayniqsa xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lmish dostonlarda yuqoridagi ikki madaniyat ta’siri sezilib turadi. Bu ham o‘zbek etnomadaniyati o‘troq xalqlar madaniyati asosida yuzaga kelgan, degan fikr bir tomonlama ekanini ko‘rsatadi. Uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida o‘zbek etnogenezida turli urug‘, qabila, elatlar signifikativ (integratsiyalashuv va differensialashuv jarayonlari) tarzida aloqalarga kirishib, o‘ziga xos bir madaniyat yaratganki, aynan ushbu aloqalar yadro vazifasini o‘tagan va o‘z atrofida avlodlarni birlashtirgan. Ushbu jarayonlar tufayli xalq madaniyati ichida

---

<sup>1</sup> Шониязов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. -Тошкент: Шарқ, 2001. -100 б.

o'ziga xos beoromlik qaror topgan, ya'ni urug', qabila, elatlarning bir-biriga madaniy ta'siri, ijodiy izlanishlar, innovatsiyaga intilish, plyuralizmni qo'llab-quvvatlash va nihoyat tolerantlik shakllangan. Bir xil badiiy-estetik obrazlar va syujetlarning o'zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz etnomadaniyatlarida uchrashi ham aslida o'sha jarayonlar mahsulidir.

Etnomadaniyatni maxsus tadqiq etgan S.A.Arutyunov esa uni insonning mikrokosmida kechadigan ma'naviy va makrokosmida kechadigan moddiy madaniyatlar sistemasiga ajratib qarashni taklif etadi. Shu bilan birga u ushbu ikki sistemani uyg'unlashtirib, dialektik bog'lab keluvchi jismoniy yoki insoniy «vujudiy xatti-harakatlari madaniyati» ham bor deb ko'rsatadi. Ushbu sistemalar borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish, insonni o'zini anglash va shakllantirish, iste'mol qilish (ozuq-ovqatdan tortib badiiy estetik asarlardan huzur olishgacha), kishilararo aloqalarni va jamiyatdagi ierarxik bog'liqlikni ta'minlovchi muloqot (kommunikasiya) – normativ funksiyalarni bajaradi. Albatta, etnomadaniyatni bunday podsistemalarga va funksiyalarga klassifikasiya qilishda ma'lum bir ilmiy-nazariy konsepsiya, maqsadlardan kelib chiqiladi. Bizning fikrimizcha, etnomadaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ibtidoiy davrlarda yuzaga kelgan madaniy belgilar bilan cheklash mumkin emas. Har bir ijtimoiy-tarixiy rivojlanish bosqichlari etnomadaniyatlarining podsistemalariga ham, funksiyalariga ham ta'sir ko'rsatib, ularda umumiy (umuminsoniy) va xususiy, (milliy, etnik) belgilarni yuzaga keltirganki, ularni hisobga olmay ma'lum bir xalq madaniyati haqida so'z yuritib bo'lmaydi.

Etnos qadimgi yunon tilida xalq, urug', to'da, kishilar birligi, qabila, o'zga qabila, nasl ma'nolarida ishlatilgan.

**Urug'** - bir ajdoddan tarqalgan, qon-qarindoshlik asosida shakllangan jamoa.

**Qabila** - urug'chilik bilan birga territoriya mavjudligi, iqtisodiy birlik, til (sheva) birligi, bayram va marosimlar umumiyliigi, yagona boshqaruvga ega bo'lgan ijtimoiy birlik

**Elat** - etnik nom, til, territoriya, iqtisodiy va madaniy jihatdan tashkil topgan ijtimoiy birlik

**Millat** - milliy (etnik) ong, psixologiya, turmush tarzi, iqtisodi, madaniyati, tili, territoriya va boshqa komponentlarni birligi asosida tashkil topgan ijtimoiy taraqqiyot shakli.

U.Mengliqulovning fikricha, “millat bilan xalq ta’rifiga qo‘yilgan talablar tashqaridan qaraganda bir-birlariga o‘xshash ko‘rinsada, ammo, mohiyat jihatdan ular bir ma’noni anglatmaydi. Birinchidan, xalq uzil-kesil shakllangan feodalizm jamiyatining ijtimoiy mahsuli, millat esa kapitalistik jamiyatning ijtimoiy mahsulidir. Ikkinchidan, xalqni uyushtiruvchi etnik omillardan hududiy birlik chegaralari tarix taqozosiga ko‘ra, o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Ammo, millat davlat chegaralari qat’iy, mutlaqo daxlsiz, jahon jamoatchilik tashkilotlari tomonidan tan olingan va muhofazali bo‘ladi. Uchinchidan, xalq shakllangan paytda hamma vaqt ham uning etnik nomi bo‘lavermaydi, xalq millat darajasiga ko‘tarilganda esa uning etnik nomi bo‘lishi shart. Masalan, o‘zbek xalqi nomi uning elat sifatida shakllanib bo‘lgandan ancha keyin paydo bo‘ldi. To‘rtinchidan, xalqning siyosiy uyushmasi - davlat tarix taqozosiga ko‘ra, hamma vaqt ham etnos nomi bilan atalavermaydi, ammo, xalq millatga aylanganda davlat nomi millat nomi bilan yuritilishi shart. Beshinchidan, etnosning xalq darajasida o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, vatan fidoyisi bo‘lish, o‘z xalqidan faxrlanish hissi o‘sha davr jamiyati tartib-qoidalariga ko‘ra, ko‘pchilikda bir xil, yuksak darajada bo‘lmaydi. Ammo, xalq millat darajasiga ko‘tarilganda bu sifatlar yuksak darajada bo‘ladi. Oltinchidan, etnosning til birligi elatning xalq darajasida hamma vaqt ham davlat maqomini olavermaydi, xalq millat darajasiga chiqqanda uning tili albatta davlat maqomini olishi shart. Yettinchidan, mentalitet etnosning xalq darajasida emas, balki millat darajasida shakllanadi va nihoyat, sakkizinchidan, millat uzil-kesil shakllanganda davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya’ni davlat xalq xizmatchisi, barcha sohalarda millat talabi va hoxish-irodasini bajaruvchi mexanizmga aylanadi. Demak, millatning shakllanishi etnogenetik jarayon kabi uzoq davom etadigan tarixiy jarayon bo‘lib, millat etnik tarixning eng yuqori yuksak cho‘qqisi, kamolot bosqichiki, birinchidan, bu bosqichga ko‘tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi; ikkinchidan, millat nomi bilan yuritilgan davlat chegaralari qat’iy, daxlsiz, jahon jamoatchilik tashkilotlari tomonidan tan olinadi; uchinchidan, aniq hududiy chegarada muomalada bo‘lgan umum

millat tili davlat tili maqomi darajasiga ko'tariladi; to'rtinchidan, aholining o'zlikni anglash darajasi fuqarolarning hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi; beshinchidan, millatga xos milliy mentalitet shakllanadi; oltinchidan, davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya'ni davlat millatning hoxish-irodasini bajaruvchi mexanizmga aylanadi"<sup>1</sup>.

Mentalitet - ayrim kishi yoki ijtimoiy guruxga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi. Macalan, o'zbek millati mentalitetining shakllanish jarayoni deyarli uch yarim ming yillik tarixga ega. O'zbek xalqi insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatini bebaho durdonalar bilan boyitgan. Uning mentaliteti, akliy qobiliyati o'tkirlashib borgan. Ammo 16-20-asrlar oralig'ida turli istibdod va mustamlakachilik zulmini boshidan kechirganligi tufayli milliy mentalitetiga jiddiy putur etdi. Mustaqillik mafkurasi oldida o'zbek xalqining haqiqiy mentalitetini tiklash vazifasi turibdi.<sup>[1]</sup>

O'zbek xalqi etnomadaniyatidagi umuminsoniylik va milliylik bir-biriga dialektik bog'liq va uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan subetnik-etnik-superetnik sistemalarning o'zaro aloqalari va funksional belgilarida namoyon bo'ladi.

Subetnik madaniyatga jamiyat ichidagi elatlar, hududiy milliy guruhlar, o'zining milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan uyushmalarga (jamiyat podsistemalari) taalluqli qadriyatlar, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy boyliklar kabilar kiradi. Subetnik madaniyat cheklangan doiradagi etnik uyushmalarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ifodalab kelgani uchun ular etnomadaniyatni rang-baranglashtirib, ma'lum bir ichki qonunlarga muvofiq davr talablariga moslashtirib turadi. Masalan, o'zbek etnomadaniyati ichidagi submadaniyatga xorazmliklarning o'ziga xos til va muomala madaniyati, namanganliklarning sertakallufligi va mehmondo'stligi, toshkentliklardagi pragmatizm va savdogarlikka moyilliklar misol bo'lishi mumkin. Xuddi

---

<sup>1</sup> Менгликулов У.М. Ўзбек этномаданиятининг эволюцияси // Фалсафа ва ҳуқуқ. -Тошкент, 2019. -№ 2. - Б. 188-189.

shuningdek, submadaniyatga ayrim guruhlar (yoshlar), kasb egalari (yozuvchilar, musavvirlar va b.), aholi qatlamlari (keksa kishilar, ayollar va b.), tadbirkorlar va ishbilarmonlar, sportchilarning o'ziga xos xulq atvori, fikrlashi, turmush tarzi, qiziqishlari ham kiradi. Albatta, submadaniyat etnomadaniyatga qarshi turmaydi, balki o'ziga xos xususiyatlari bilan etnomadaniyatda ma'lum bir podsistema ko'rinishida keladi.

Submadaniyat respublikamizda yashayotgan turli millatlarga ham xosdir. Hozirgi kunda O'zbekistonda tojiklar 1,7 mln., qozoqlar 821,2 ming, ruslar 720,3 ming, qirg'izlar 291,6 ming, turkmanlar 206,2 ming, tatarlar 187,3 ming, koreyslar 174,2 ming, ukrainlar 67,9 ming, ozar – 41,2 ming, belarus 18,5 ming va boshqa millatlar – 426,4 ming kishini tashkil etadi. Ular titul millat – o'zbeklar etnomadaniyatiga nisbatan submadaniyat sub'ektlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, ushbu millatlar etnomadaniyati ichida ham submadaniyatlar bo'lishi tabiiy holdir. Ammo ularning barchasini o'zbek xalqi etnomadaniyati o'z atrofida birlashtirib, umumijtimoiy manfaatlarini ifoda etuvchi O'zbekiston Respublikasi xalqlari madaniyatini shakllantirishga yo'naltirib turadi. Shu tariqa submadaniyatlar bilan titul millatning etnik madaniyati uyg'unlashib umuminsoniy xarakter kasb etadi. Milliylik va umuminsoniylik «milliy differentsiatsiya va integratsiya», madaniy –informatsion va iqtisodiy aloqalar, xalqaro qadriyatlar va huquq normalari, fan va texnika taraqqiyoti, global muammolar ta'sirida ham etnomadaniyatning barqaror xususiyatlariga aylanadi. Masalan, milliy differentsiatsiya «etnik o'z –o'zini anglashning o'sishi, milliy hayotning uyg'onishi» natijasi bo'lsa, integratsiya esa ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyot sharti sifatida regional va umumplanetar ahamiyat kasb etmoqda.

Etnomadaniyatda umuminsoniy belgilarning shakllanishi va qaror topishiga supermadaniyat ta'sir ko'rsatadi. Supermadaniyat deganda zamonaviy sivilizatsiya yaratayotgan aeroportlar, temir yo'llar, yuqori qavatli binolar, sun'iy o'g'itlar va sun'iy yaratilayotgan narsalar, jonivorlar, xalqaro universitetlar, jahon tillari, fazoviy aloqalar sistemasi, xullas, umumplanetar voqelikka da'vogar boyliklar nazarda tutiladi. Supermadaniyat mintaqalar va xalqlar o'rtasidagi madaniy-informatsion hamda integratsion aloqalarning yoyilishini u yoki bu boyliklarning umuminsoniy qadriyatlarga aylanishini tezlashtiradi. Aynan

supermadaniyat ta'sirida bir tomondan, etnomadaniyatlarning o'zaro aloqalari kengayayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalq madaniyatida yot elementlarning paydo bo'layotgani, natijada kishilardagi ijodiy xislatlarni o'stirish o'rniga boqimandalik, konformizm kayfiyatlarining shakllanayotgani ko'zga tashlanadi. Ammo o'zbek xalqi etnomadaniyatida o'zining tarixiy-madaniy paradigmalarni saqlashga intilish kuchli. Bizning fikrimizcha, xalqimiz madaniyatidagi ushbu etnik xususiyatlarni yanada mustahkamlash, yosh avlod qalbiga ularni singdirish haqida mudom qayg'urish zarur.

### **Nazorat savollari**

1. Etnomadaniyatning genezisi qaysi davrlardan boshlab o'rganiladi?
2. Mentalitet nima?
3. Elat va millat tushunchalarini farqi nimada?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. Jabborov I. O'zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
4. Murodov M., Qoraboev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. – Toshkent: Adolat, 2003. -225 b.
5. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.

## **3-MAVZU. ETNOMADANIYATNING IJTIMOIIY FUNKSIYALARI**

### **Reja**

1. Etnomadaniyatning ustki va ichki (yadro) qatlami
2. Etnomadaniyatning umumiy funksiyalari.
3. Etnomadaniyatning rekreativ funksiyasi.

Etnomadaniyatni ijtimoiy-tarixiy va badiiy-estetik voqelik sifatida tushinishda turmush tarzi, oila-xo'jalik hayoti, an'ana- marosimlar, din va diniy tasavvurlar, gnoseologik tajribalar, og'zaki ijod, adabiyot va san'at, xalq tomoshalari kabi omillar ham muhim o'rin tutadi. Mazkur rang-



barang omillar etnopsixologik sintezdan o'tib, etnomadaniy voqelik darajasiga ko'tariladi. Ma'lum bir urf-odat, so'z yoki tajribaning etnomadaniy voqelikka aylanishi shunchaki ko'chirish, taqlid orqali emas, balki xalqning ma'naviy-ruhiy olami nazoratidan, etnopsixologik sintezidan o'tishi darkor. Etnosning ma'naviy-ruhiy olamiga singmagan, etnopsixologik sintez talablariga javob bermagan artefakt etnomadaniyatdan joy ololmaydi. Sho'rolarning proletar internasionalizm g'oyasi nafaqat o'zbek xalqining ma'naviy-ruhiy olamiga, shuningdek, umuminsoniy paradigmalarga ham to'g'ri kelmagani uchun mag'lub bo'ldi, u xalqlarning etnopsixologik sintezidan o'tmadi va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotga zid qarash sifatida rad etildi. Demak, etnomadaniyatga kiradigan narsalar, artefaktlar, qadriyatlar etnopsixologik sintezdan o'tib, xalqning, millatning ma'naviy-ruhiy hayotidan chuqur joy olishi shart. Shu nuqtai nazardan milliy madaniyatda ikki – kunaro o'zgarib, transformatsiyaga uchrab, goho o'zini o'zi rad etib turadigan ustki qatlam va etnomadaniyatga kirgan, barqaror, muqim artefaktlardan iborat o'zak qatlam, yadro mavjuddir.

Ustki qatlam va o'zak qatlam dialektik bog'liqdir, ular mudom bir-biriga ta'sir etib turadi. Tashqi ta'sirlar ortib borayotgan, insonning ongi, tasavvurlari, hayot tarzi tinmay o'zgarayotgan hozirgi davrda madaniyatning ustki qatlami nihoyatda faol harakat qilmoqda. Ommaviy axborot vositalari, urbanizasiya, modernizatsiyalashuv jarayonlari, xalqaro aloqalar, integratsiya, global o'zgarishlar madaniyatning ustki qatlami doirasini kengaytirmoqda. Bu madaniyatning ijtimoiy-tarixiy zaruriyatga moslashib rivojlanishining shartidir.

Shu bilan birga madaniyatda barqaror, muqim narsalar, artefaktlar ham bo'lishi lozim. Mazkur o'zaksiz, yadrosiz xalq, millat o'zligini namoyon qila olmaydi, u kuchli ijtimoiy-madaniy oqim ta'siriga berilib, etnik belgilarini yo'qotadi. Demak, etnomadaniyat xalqning, millatning o'zligini asrashning, o'zligini namoyon qilishning yagona imkonidir. Etnomadaniyatning asosiy mohiyati ham shundadir.

Etnomadaniyatda etnosning mangu, umrboqiy qadriyatlari, an'analari, artefaktlari mujassamdir. Etnos mazkur qadriyatlari, an'analari, artefaktlari orqali o'zini ham umrboqiy etnik birlik sifatida sezadi, idrok etadi. Yangi avlodlar madaniyatning ustki qatlami ta'siriga qancha

berilmasin, etnos o'zining umrboqiy, mangu qadriyatlari, an'analari, artefaktlaridan voz kechmaydi, balki mudom ularni asrashga, rivojlantirishga intiladi. Etnos uchun umrboqiylik, mangu muhim ahamiyatga ega tushunchalardir. U barqaror, muqim boyliklari orqaligina umrboqiylik, mangu muhim ta'minlashini biladi. Agar etnos hayotni, yaratganlarini o'tkinchi, besamar narsa bilganida betinim izlanib, iztiroblar chekib boqiylikka munosib biror yangi narsa yaratmagan, Epikurning "e, ich, mazza qil" da'vatiga muvofiq yashagan bo'lardi. Xalqning daholigi shundaki, u kelajakka xizmat qiladigan, o'z hayotini boqiy qiladigan narsalarni yaratishga intiladi. Ayrim shaxslargina hamma narsani muvaqqat bilishi, hayotning o'tkinchi ekanini tan olib, madaniyatga ermak sifatida qarashi mumkin, lekin xalq, millat bunday qilolmaydi, unga boqiylik, mangu kerak. Demak, xalq, millat madaniy boyliklar yaratish orqali o'zining boqiylik, hayotning mangu ta'minlaydi. Etnomadaniyatning mazkur mohiyati xalq, millat bilan madaniyat, yaratish dialektik bog'liq, ular bir-birini boyitib, ifodalab keladi, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

O'zbek etnomadaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini U.H. Qoraboev xalq donishmandligi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush-madaniyati kabilar orqali ochib beradi. Bu o'rinda tadqiqotchi etnomadaniyatning xususiyatlarini aniqlashga empirik nuqtai nazardan yondashadi. Shubhasiz, ular o'zbek xalqi etnomadaniyatining o'ziga xos ko'rinishlarini bilishga yordam beradi. Ammo ijtimoiy-falsafiy yondashuv ularni yiriklashtirishni va ilmiy-nazariy tahlilning abstraklashtirish usuliga muvofiq falsafiyashtirishni taqozo etadi.

Madaniyatning funksiyalari haqida rang-barang yondashuvlar, klassifikatsiyalar mavjud. Ushbu yondashuvlar, klassifikatsiyalar tadqiqotchilarning turli ilmiy-nazariy konsepsiyalariga muvofiq yaratilgan. Shuning uchun ularda bir-biriga yaqinlikdan ko'ra, farqlar ko'proq.

Tadqiqotlarda etnomadaniyatning umumiy funksiyalari quyidagicha tasnif qilinadi:

- madaniy boyliklarni asrash (muzey);
- olamni idrok etish, bilish (gnoseologik);

- muloqot (kommunikativ);
- sotsializatsiya;
- ommaviylashuv;
- badiiy-estetik boylik (artefakt)lar yaratish;
- integrativ;
- rekreativ (dam olish va hordiq chiqarishni uyushtirish);

**Muzey funksiyasi** ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan, madaniyatning o‘zak qismiga aylangan boyliklarni asrashga qaratilgan. “Muzey” so‘zi aslida to‘plash, yig‘ish, saqlash degan ma‘nolarni bildiradi. Biz ham uni madaniy boyliklarni asrovchi, to‘plovchi ma‘nosida ishlatamiz. Xalq, millat o‘z madaniy boyliklarini an‘ana, marosim, og‘zaki ijod, san‘at, kitob, yodgorliklar orqali asrashga intiladi.

Muzey funksiyasi (an‘anaviylik) ajdodlarimiz yaratgan madaniy boyliklarni asrash, ularni yot elementlarning buzg‘unchi ta‘siridan, beayov ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning emirishidan himoya qilishga qaratilgan. An‘anaviylik insonga xos filogenetik va ontogenetik hodisadir. U ajdodlar yaratgan boyliklarni, muqim xulq-atvor, axloq normalarini, turmush tarzini avlodlardan avlodlarga uzatish orqali etnomadaniyatni asrash vazifasini bajaradi. An‘analarga kishilarga “zo‘rlab singdirilmaydi, ular xalqning tarixan shakllangan ijtimoiy holati, uning moddiy ishlab chiqarish bilan bog‘liq turmush tarzi va maishiy hayotidir”. “Aynan xalq an‘analarni yaratadi, rivojlantiradi, ba‘zilarini qabul qiladi yoki ba‘zilarini rad etadi”.

Ba‘zan an‘analarga qoloqlik belgisi, taraqqiyotga g‘ov, to‘siq sifatida qarash ham uchraydi. Masalan, Fr.Nisshe nigilizmi insoniyat yaratgan “qadriyatlarni “qayta baholash” shiori ostida barcha ma‘naviy-ruhiy, badiiy-estetik, axloqiy-diniy merosni rad etishga borib etadi. Ilgarigi falsafani yangicha beayov tanqid qilish, bir yo‘la eski qadriyatlarni mahv qilish va shu tariqa yangi ijodiy izlanishlarga yo‘l ochib berish Nisshe nigilizmining maqsadi edi”. Shunday munosabat sobiq sovet totalitar tuzumi davrida o‘zbek etnomadaniyatiga nisbatan ham olib borilgan. Jumladan, uch marta yozuv o‘zgartirildi, diniy qadriyatlarga qarshi “urush” e‘lon qilindi. Biroq qatag‘onlik davrida xalqimiz madaniy-ijodiy faoliyatdan, ma‘naviy boyliklar yaratishdan to‘xtamadi, o‘z etnomadaniyatini asrab-avayladi. Yoki ayrim tadqiqotchilarning zamonaviylik shiori ostida sovetlar davridagi yutuqlarni nigilistlaracha rad etishini eslaylik.

O‘zbek xalqi etnomadaniyatiga munosabatlarda ham shunday holatlar uchraydi. Masalan, 20-25 yoshlardagi yigit va qizlar o‘z paytida shohlar kiygan liboslarda “chillak” o‘ynashayotgani televidenie orqali ko‘rsatiladi. Bu xalq madaniyatining ko‘rinishi sifatida butun respublikaga namoyish qilinadi. An’anaviylik madaniyatni iloji boricha buzmay, ijtimoiy-tarixiy bosqichga xos ko‘rinishda saqlashni taqozo etadi.

Muzey funksiyasi kishilarda merosga chuqur hurmat, ularni o‘rganish, rivojlantirish tuyg‘usini shakllantiradi. Etnomadaniyatdagi vorisiylik ham muzey funksiyasi orqali ta‘minlanadi.

Muzey funksiyasi etnomadaniy boyliklarni, artefaktlarni keng targ‘ib etish, kishilar ongi va turmush tarziga singdirish vazifasini ham bajaradi.

**Gnoseologik funksiya** etnosning yon-atrofni, olamni bilish, idrok etish tajribalarini ifoda etadi. Etnos o‘ziga xos ma’naviy-ruhiy olamiga ega ekan, yon-atrofni, olamni bilishga intilar ekan, u shubhasiz gnoseologik tajribalariga ham ega bo‘ladi. Fasllarning almashishi, oy va quyoshning chiqishi, yomg‘ir va qorning yog‘ishi kabi tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalarni har bir etnos o‘zicha idrok etgan. Ming-ming avlodlar kuzatuviga va tajribasiga asoslangan bunday gnoseologik izlanishlar asta-sekin etnomadaniy boylikka, etnomadaniyatning xususiyatiga, funksiyasiga aylangan.

Hozir falsafiy ilmiy kuzatuvlarning, fan-texnikaning ahamiyati, o‘rni oshib borayotgan bo‘lsa-da, etnosning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida to‘plagan gnoseologik tajribalari ham o‘z ta‘sirini yo‘qotmagan. Shu nuqtai nazardan gnoseologik funksiya etnomadaniyat o‘zagidan, yadrosidan joy olgan.

**Kommunikativ funksiya** kishilararo va xalqlararo (integrativ) aloqalarni, muloqotlarni o‘z ichiga oladi. Til madaniyatning asosiy vositalaridan biri ekan, u o‘zini muloqot orqali ifoda etadi. Muloqot etnomadaniyatning shakllanish va rivojlanish sharti bo‘lib kelgan.

Kommunikativ funksiya bevosita yoki bilvosita, majburiy yoki ixtiyoriy, yakka tartibda yoki guruh, ommaviy, belgilar yoki imo-ishoralar orqali amalga oshiriladi.

Etnomadaniyatning ayrim ko‘rinishlari (masalan, amaliy san’at, dostonchilik, raqs va b.)ni alohida olingan shaxs yaratishi mumkin, lekin ularning tarqalishi, xalq ijodiga aylanishi muhitga, ko‘pchilikka bog‘liq.

Shuning uchun kommunikasiya (muloqot) etnomadaniyatning asosiy belgilaridan biridir.

**Sotsializatsiya funksiyasi** shaxsning ijtimoiy hayotda faol bo‘lishi, badiiy-ijodiy kuchlari, intellektual salohiyatini jamiyat ravnaqi, etnos manfaatlariga sarflashini ifoda etadi. Madaniyat ayrim shaxsning, ijodkorning ilmiy, badiiy, estetik izlanishlarini inkor qilmaydi, balki uni etnik hayot muammolarini yanada faolroq, kengroq ochib berishga, tasvirlashga, shu tariqa o‘zini rivojlantirishga intiladi. Shu yo‘l orqali shaxs xalqning, millatning ijtimoiy-madaniy hayotida sub’ekt sifatida qatnashadi.

**Ommaviylashuv funksiyasi** madaniyatning tashqi tashkiliy belgisi sifatida keladi, biroq u etnomadaniyatning milliy xususiyatlari va ma’naviy qiziqishlari yaqin kishilarning ruhiy birligi, bir-biriga yaqinlashishi tufayli paydo bo‘ladi. Ommaviylik madaniyatning ko‘pchilikka tushunarli ekanligi, egallash usullarining osonligi bilan xarakterlanadi. Ushbu belgisi yo‘q madaniyat xalq, omma orasida tarqalmaydi.

**Badiiy-estetik boyliklar (artefaktlar) yaratish** madaniyatning, badiiy-estetik ijodning bosh maqsadi, pirovard natijasidir. Mazkur funksiya yuqoridagi barcha funksiyalar bilan bog‘liq, ammo unda shaxsning badiiy-estetik boyliklar, artefaktlar yaratishda qatnashishi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Agar sotsializatsiya funksiyasi uchun shaxsning ijtimoiy-madaniy hayotda qatnashishi etarli bo‘lsa, badiiy-estetik boyliklar, artefaktlar yaratish funksiyasi uchun shaxs u yoki bu badiiy-estetik boylik yaratishi shart. Demak, shaxsning milliy madaniyatni boyitadigan ijod namunalarini, asarlarini yaratishi butun madaniyatning pirovard maqsadidir.

Etnomadaniyatning badiiy-estetik funksiyasi yon-atrofni, olamni go‘zallik va xunuklik, oliyjanoblik va pastkashlik, ulug‘vorlik va tubanlik, fojiviylik va kulgililik, qahramonlik va qo‘rqoqlik kabi antinomik kategoriyalar orqali idrok etish, anglash, insonni ijodiy izlanishlarida ularga tayanib asarlar yaratishga undaydi. Xalq eposlari va ertaklarida antinomik kategoriyalar ezgu va yovuz kuchlarning fazilatlari, ularning to‘qnashuvlari tarzida tasvirlanadi. To‘g‘ri, xalq xayrixoh bo‘lgan qahramonlar og‘ir sinovlarga duchor etiladi, hatto yovuz kuchlar tomonidan o‘ldiriladi, lekin ular sehrli kuchlar yordamida qayta tirilib, yovuz kuchlarni mag‘lub qiladi, ezgulik va adolatni qaror toptiradi. Ezgu

va yovuz kuchlar o'rtasidagi to'qnashuvlar o'quvchi qalbida badiiy-hissiy (emotsional) munosabatlar uyg'otadi, ezgulikning, go'zal va oliyjanob fazilatlarning tantanasi unda insonparvarlik, olamparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Mazkur funksiya etnomadaniyatni xalq, millat ijodiy mehnat, izlanishlar va tajriba almashishlar jarayonida yaratadi, degan fundamental ahamiyatga ega yondashuvga tayanadi. Ijodiy faoliyat, umuman faoliyat – insonning mavjudlik usulidir. Inson hayot tarzining madaniyat tushunchasidagi belgisi uning faoliyatidir. To'g'ri, barcha faoliyatlar ham madaniyatni yaratavermaydi, balki ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, ongli, sun'iy tarzda yaratilgan narsa, hodisa (artefakt)lar madaniyatdir. Demak, artefaktlar madaniyatlarning asosiy belgisidir.

O'zbek etnomadaniyatida bu funksiya mavjud ijtimoiy-madaniy boyliklarni o'zlashtirishdan tortib, to yangi bir ijod namunasini yaratishgacha bo'lgan izlanishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek etnomadaniyatiga xos ilk naqsh asarlari eramizdan avvalgi 1-ming yillarga oid arxeologik topilmalardayoq uchraydi. Biroq, bu o'ta sodda chizmalarga har bir avlod o'z ulushini qo'shib, uni tarixiy-diniy tasavvurlar bilan boyitib, hozirgi murakkab san'at darajasiga ko'targan. "Amaliy hunarmandchilik namunalarida badiiy bezaklar ko'payib borgan bo'lsa, tasviriy san'atning keyingi namunalarini kulolchilik buyumlaridagi rasmlarda uchramiz. Sopol idishlarning formalari asta-sekin murakkablasha boshlaydi va sopol idishlarga tasvirlar, bezaklar tushirilishi badiiy kulolchilik san'atining har tomonlama rivojlanishiga olib keldi"<sup>1</sup>. Shu tariqa ijodiy faoliyat ta'sirida xalq amaliy san'ati oddiy ko'rinishdan yirik, murakkab janrga o'sib chiqqan.

Etnomadaniyatning badiiy-estetik boyliklar yaratish funksiyasi me'morlik san'atida ham o'zini yorqin ifodasini topadi. Ma'lumki, O'zbekiston noyob, betakror tarixiy inshootlar, me'moriy obidalarga boy o'lka. Ayniqsa, Samarqand, Xiva va Buxorodagi tarixiy yodgorliklar o'zining hashamati va ulug'vorligi bilan kishini hayratga soladi. Jumladan, Samarqand Registon maydonidagi Sherdor, Tillakori madrasalari, Xo'ja Axrori Vale qabri oldida Nodir devonbegi madrasasi, Bibixonim Jome masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Shoxi Zinda majmuasi, Ulug'bek

---

<sup>1</sup> Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Тошкент: Ўқитувчи, 1997. –Б. 15.

madrasasi, rasadxonasi butun dunyoni hamon lol qoldirib kelmoqda. Shuningdek, Samarqandda Temuriylar davrida qurilgan yana qator tarixiy obidalar ham borki, ularning ayrimlari bugun xalqimizga yaxshi tanish emas. “Temuriylar davrida Samarqand me’morchilik san’ati yuksak darajaga ko’tarilgan. Xususan, me’morchilik maktabi vakillari tomonidan Oqsaroy, Ishratxona, Qirgiz (Childuxtaron, XVI asr) va boshqa ko‘plab nodir yodgorliklar barpo etilgan. Har uchala obida ham o’sha davr me’morchiligining eng yuksak cho‘qqisi (butun O‘rta Sharqda) hisoblangan. Ayniqsa, ularning ichida Ishratxona va Oqsaroy maqbaralari o‘zining asl bezaklari, naqsh va koshinlari bilan Samarqand obidalari ichida bebaho san’at gavharlari hisoblanishgan... Temuriylar davri me’moriy inshootlari badiiy tuzilish jihatidan ixcham hajmli bo‘lib, ulardagi me’morchilik elementlari O‘rta Osiyoning boshqa mahobatli, ulug‘vor binolarida bo‘lgani singari peshtoq, ravoq va eng muhimi uchli lojuvard gumbazlardan iborat bo‘lgan. Chunonchi, Oqsaroy maqbarasining qurilish uslubi tashqi bezaklarsiz, sodda va oddiyroq ko‘rinishda barpo etilgan. Binoning ichki pardozi asosan gul-o‘simlik tipidagi naqsh turlari va bezaklaridan keng foydalanilgan. Ishratxona maqbarasida esa, O‘rta Sharq yangi qurilish uslubiga xos bir-biri bilan kesishadigan to‘rtta ravoq hamda gajak kabi yangi qurilish uslubi qo‘llanilgan. Bundan tashqari, Samarqand me’morchilik maktabining an’anaviy “Kundal” uslubi ham birinchi bor shu binoni bezash va pardoqlashda qo‘llanilgan. Me’morchilikning kundal usulida devorga bo‘rtma, qavariqli naqshlar tushiriladi hamda naqshlar va uning atroflari oltin bilan qoplanadi. Bu uslubdan keyinchalik Tillakori madrasasining ichki pardozi ham keng foydalanilgan. Umuman olganda, Temuriylar davrida Samarqand me’morchilik maktabi tomonidan yaratilgan bino va inshootlar o‘z davri va bugungi kunning durdona me’moriy asarlari hisoblanadi”<sup>1</sup>. Shuningdek, Registonning sharqiy qismida joylashgan Moturudiy maqbarasi ham qurilgan vaqtda mahalliy aholi orasida mashhur ziyoratgohlardan biri bo‘lgan bo‘lsada, keyinchalik, ayniqsa sho‘rolar davrida deyarli unutilgan. “Maqbara XX asrning 30 yillarida buzib tashlangan hamda uzoq yillar

---

<sup>1</sup> Ялгашев Б. Samarkand architectural style of Timurid dynasty period (Oqsaroy and Ishratkhona mausoleums as examples) // Modern views and research. International scientific and practical Conference. – London, 2020. -P. 98-99.

davomida xalqning milliy va diniy qadriyatlari orasidan unutila boshlangan. Maqbara 2000 yil 17 noyabrda Imom Moturudiyning 1130 yillik yubileyini nishonlash munosabati bilan qayta tiklandi. Maqbaraning barpo etilishida o‘zbek milliy me‘morchilik maktabining ilg‘or an‘analari qo‘llanilgan bo‘lib, binoning tashqi shakl ko‘rinishidan boshlab, devorlardagi naqshinkor parchinlar islomiy bitiklar bilan bezatilgan... Majmuaning ichki va tashqi ko‘rinishida me‘moriy epigrafika, ya‘ni arabcha xusnixat yozuvidagi bezaklar bilan bezash san‘atidan foydalanilgan. Bu esa IX-XV asrlarda islom dinining Samarqand milliy me‘morchilik san‘atiga ko‘rsatgan ta‘siridan dalolatdir. Arab yozuvidagi bezaklarni uzoqdan o‘qish oson bo‘lishi uchun ulkan moviy gumbazlarni ko‘tarib turuvchi gardishlarning sathi baravariga yirik kufiy yozuvlar bilan naqshlangan... Bundan tashqari, O‘rta Osiyo va Sharq me‘morchiligiga ilgaridan (VII-VIII asrlarda) ma‘lum bo‘lgan, asosan gumbazlar ichini bezashda ishlangan yulduzsimon bezak turi – muqarnasni qo‘llash keng tarqalgan. Imom Moturudiy maqbarasining poygumbaz va ganchkori panjaralarning o‘rtasidagi joyi ham murakkab tuzilishdagi muqarnaslar bilan bezatilgan. Muqarnas bu arabcha so‘z bo‘lib, me‘moriy bezak turi hisoblanadi. Bunda ravoqli kosachalar ustma-ust joylashtiriladi va murakkab shakl hosil bo‘ladi. Bu bezak turi faqatgina binolarning ichki bezaklarida emas, balki tashqi peshtoqlar ravoqlari va minoralar guldastalarining bosh qismini bezashda ham keng qo‘llanilgan. Mazkur bezak uslubini Temuriylar davri me‘moriy obidalarida, ya‘ni Ulug‘bek madrasasi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda uzlatgohidagi Shodimulk maqbarasida ajoyib takrorlanmas namuna sifatida uchratishimiz mumkin. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Samarqand me‘moriy obidalarining qurilish uslubi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, shu jihatdan, Imom Moturudiy maqbarasining qurilishida ham milliylik va islom dini me‘morchiligi hamohangligi ko‘zga tashlanadi. Bu esa nafaqat, mahalliy aholining, balki xorijiy sayyohlarning ham e‘tiborini o‘ziga tortishda asosiy ahamiyat kasb etadi”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ялгашев Б. Самарқанд миллий меъморчилик санъатининг ўзига хос жиҳатлари (Имом Мотурудий мақбараси мисолида) // Глобал ҳамкорлик – барқарор ривожланиш ҳолати ва кафолати: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. -Тошкент, 2020.



Ba'zan ijodiy faoliyatda izlanishlar to'xtaganini kuzatamiz. Yurtimizda arablar istilosi va mo'g'ul-tatarlar bosqini avj olgan davrlarda turg'unlik, ba'zan esa orqaga qaytish hollari kuzatiladi. O'lkada tinchlik qaror topishi bilan xalqimiz madaniy boyliklarni yaratishda davom etadi.

Og'zaki ijod, qo'shiq san'ati kabi janrlarda esa hatto chet elliklar bosqini paytida ham xalqimiz ijodiy izlanishlardan to'xtamagan. Demak, o'zbek etnomadaniyatiga xos bosh xususiyat uning ijodiy faoliyat va izlanishlardan hech qachon to'xtamaganida, xalqimizni madaniy boyliklar yaratishga uzluksiz intilib kelganidir.

Etnomadaniyatning ko'rinishlari va shakllari turli-tuman bo'lgani uchun uning estetik funksiyasi ham mazkur ko'rinish va shakllarda har xil ko'lamda, darajada namoyon bo'ladi. Xalq naqqoshlik san'atida fojaviylik, tubanlik, xunuklik elementlari ko'rinmaydi, ranglarning mutanosibligi, estetik zavq qo'zg'atishi birinchi planda turadi. Lekin bu xalq naqqoshlik san'atida antinomik elementlar mutlaq bo'lmaydi, degan fikrni anglatmaydi. Qizil, sariq, to'q sariq, binafsha ranglardan keyin yoki yonma-yon keladigan qora, yashil, dolchin, ko'k kabi ranglarning kelishi badiiy-estetik didning darajasini ifoda qiladi. Antinomik hodisalar ob'ektiv borliqning negizi, asosi, xalq naqqoshlik san'atida esa u issiq (qizil, sariq, to'q sariq, binafsha) va sovuq (qora, dolchin, ko'k, yashil) ranglarning yonma-yon ishlatilishi orqali ifodalanadi. Ammo uni badiiy-estetik ijod sirlaridan yaxshi xabardor kishigina to'g'ri payqaydi. Xullas, etnomadaniyatning badiiy-estetik funksiyasi, o'z mohiyati va maqsadiga ko'ra insonni xalq yaratgan madaniy boyliklardan bahramand qilish va badiiy-estetik didini yuksaltirish orqali uni ijtimoiy-madaniy hayotning faol sub'ektiga aylantirishdir.

O'zbek etnomadaniyatida **integrativ** belgilar (funksiyalar) mudom mavjud bo'lgan. Ular o'zbek xalqining O'rta Osiyo xalqlari bilan bir jo'g'rofiy hududda yashagani, xo'jalik-madaniy tiplari va ijtimoiy-tarixiy hayotining aynanligi, bir yirik etnos – turk qavmiga mansubligi, diniy e'tiqodlarining birligi kabilar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, O'rta Osiyoda turli xalqlar (fors, arab, mo'g'ul, rus, grek-makedoniyaliklar) ijtimoiy-madaniy qadriyatlarining sintezlashib kelishini ham unutib bo'lmaydi. Ushbu belgilar nafaqat o'zbeklarni, shu bilan birga O'rta Osiyodagi barcha xalqlarni o'z atrofida birlashtirib kelgan. Ushbu

madaniyatdagi Sharq (Xitoy, Mongoliya, Hindiston, Turkiya, arab davlatlari, Kavkaz) xalqlari madaniyatiga yaqin belgilarning mavjudligi bizni ushbu xalqlar tarixi, madaniyati, milliy urf-odatlarini to'g'ri tushunishga, etnogenez nuqtai nazaridan esa yaqin xalq, qavm ekanimizni anglashga undaydi. Bu esa ushbu xalqlarni etnomadaniy qadriyatlar atrofida integratsiyaga kirishib yashashga da'vat etadi.

**Rekreativ funksiya** etnik guruhlarining, millatning o'z vaqtini o'tkazishga, psixofiziologik holatini tiklashga qaratilgan an'analarini ifoda etadi.

Dam olish va hordiq chiqarish shaxsning o'z ixtiyoridagi ishi bo'lsa-da, u jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan tashqarida kechmaydi. Dam olish va hordiq chiqarish shaxs va ijtimoiy taraqqiyot manfaatlari bilan dialektik bog'liqdir. Shuning uchun uni maqsadli tashkil etish uchun jamiyat va davlat maxsus ijtimoiy-madaniy texnologiya (vositalar, usullar, tashkiliy mexanizmlar majmuasi) yaratgan. Bozor munosabatlari sharoitida esa bunday texnologiya vazifasini ijara, xo'jalik hisobi kabi iqtisodiy boshqarish usullari bajaradi. Aynan bozor munosabatlari etnomadaniyatni xalq, kishilarning ijtimoiy-madaniy va milliy taraqqiyot nuqtai nazaridan erkin, tashqi tazyiqsiz rivojlanishiga imkon beradi.

Keyingi yillarda etnopedagogika yoki xalq pedagogikasi alohida fan sohasi sifatida shakllanayotganini kuzatamiz. Bu, aslida etnomadaniyatning bir yo'nalishidir. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" mualliflarining tan olishicha, "Xalq pedagogikasini o'rganish va uni zamonamiz nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqishga ulgurmadik va amaliy faoliyatda qo'llay olmadik". Bu manbalarning kamligi bilan emas, balki ilmiy muhitning ushbu sohani o'rganishga hamda mavjud tarbiya tizimining xalq pedagogikasini jiddiy qabul qilishga tayyor emasligi bilan izohlanadi. Ammo xalq pedagogikasidagi deyarli barcha g'oyalar, fikrlar, usullar etnomadaniy hodisa sifatida qaralishi darkor, chunki har qanday pedagogik jarayon madaniy taraqqiyot natijasidir.

Badiiy-estetik yondashuv xalq etnomadaniyatini nafosat tamoyillariga binoan bunyod etilgan inshootlar, kishilarning olam haqidagi tuyg'ularini, qarashlarini ifoda etuvchi musiqa, tasviriy va amaliy san'at asarlari, umuman san'at orqali o'rganishdir. "San'at insonga, avvalo, o'z

tuyg‘ularini tarbiyalash, o‘z-o‘zini yaxshiroq anglashiga yordam beradi. Biz o‘z-o‘zini anglash deganda, insonning o‘z dunyoqarashi, xarakteri, axloqiy qarashlarini konkretlashtirib olishi, anglashini nazarda tutamiz. Ammo, inson faqat shu jihatlardangina iborat emas. Uning aqliy va axloqiy mohiyati qanchalik bo‘lsa, estetik mohiyati, his-tuyg‘ulari ham shunchalik ahamiyatlidir. Binobarin, barkamol, mustaqil shaxsni san’atsiz, badiiyatsiz tarbiyalab bo‘lmaydi”<sup>1</sup>.

Ilk arxeologik topilmalardayoq o‘zbek xalqining badiiy-estetik madaniyatiga oid tasavvurlar, g‘oyalar va an’analarga duch kelamiz. O‘rta Osiyo xalqlari ijodini maxsus o‘rgangan L.I.Rempelning ta’kidlashiga ko‘ra, ilk topilmalardayoq ajdodlarimiz o‘zining dunyo haqidagi tasavvurlarini ma’lum belgilar (krest, yarim krest, doira, yarim doira), hayvon-belgilar (naqshga o‘xshash hayvonlar, arslon, echki boshlari, ilon), antropomorf xudolar (yarim odam, yarim totem, ho‘kiz boshli boltalar), mifologik, yarim xudo qahramonlar (ajdaho bilan kurashayotgan shoh va b.)da ifoda etganlar. Ularda “hali badiiy usulga ega bo‘lmay turib, ma’lum bir qarashlar o‘z aksini topgan”.

“Insonning har qanday faoliyatida estetik manba mavjud: inson o‘z faoliyati davomida moddiyat bilan birga ma’naviyatga, shodlik-sevinch, orzu umid, erk, ozodlik tuyg‘ulariga suyanib yashaydi, moddiy samaralar bilan birga o‘zi va boshqalar faoliyatini nafosat mezonlari bilan o‘lchanadigan ijtimoiy baholashga harakat qiladi. Baholash – voqea-hodisalarning qadrini yoki ijtimoiy ahamiyatini anglashning maxsus shaklidir. Insonning voqelikka estetik munosabati aslida voqelikka baho berishning alohida turi, voqea-hodisalarni estetik qadrlash usulidir”<sup>2</sup>. Biroq baholash, barcha ong shakllari singari, o‘zining milliy jihatlariga, etnomadaniy belgilariga ega. Yaponlardek cho‘kkalab o‘tirib ovqatlanish evropaliklar uchun qiyin holatdir. Yoki nafaqat evropaliklar, shuningdek, O‘rta Osiyo xalqlari ham janubiy afrikalik zulularning bir oyoqda uxlashini tasavvur qilolmaydi. Shuning uchun tadqiqotchilar har bir etnomadaniyat o‘ziga xosligini saqlab qolishi lozim, degan fikrni yoqlaydilar. To‘g‘ri, ba’zi etnomadaniy belgilar yo transformatsiyaga uchraydi, yoki

---

<sup>1</sup> Шерова Д. Шахс камолотида бадий-ижодий тасаввурлар уйғунлиги // Санъат ва бадий таълимнинг замонавий жамиятни маънавий модернизациялашдаги ўрни: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. -Тошкент, 2018. -Б.620.

<sup>2</sup> Умаров Э. Эстетика. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 77 – 79.

iste'moldan chiqadi. Bu, ijtimoiy-madaniy voqelikka xos xususiyatdir. Agar yaponiyaliklar uchun cho'kka tushib ovqatlanish, ayollarning mayda qadam tashlab yurishi, zulular uchun bir oyoqda uxlash estetik madaniyat belgisi hisoblansa, o'zbek xalqining chordona qurib o'tirishi, katta kishiga o'rnidan turib, joy berishi estetik qadriyatlardir. Demak, har bir xalq o'zining tarixiy-madaniy an'alarida badiiy-estetik qarashlarini ifoda etadi.

### **Nazorat savollari**

1. Etnomadaniyatni funksiyalari qanday tasnif qilinadi?
2. Etnomadaniyatni muzey funksiyasi nima?
3. Badiiy-estetik boyliklar (artefaktlar) yaratish funksiyasining ahamiyati nimada?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. Murodov M., Qoraboev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. – Toshkent: Adolat, 2003. -225 b.
4. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.

## **4-MAVZU. XALQ MADANIYATI VA XALQ ESTETIKASI: IMMANENT BELGILARI HAMDA DIALEKTIK BOG'LIQLIGI**

### **Reja**

1. O'zbek etnomadaniyati va etnoestetikasining shakllanishi
2. Etnoestetika - etnomadaniyatdagi estetik qadriyatlarni ifoda etuvchi fenomen.
3. Etnomadaniyat va etnoestetika o'rtasidagi dialektik aloqalar.

Yangi O'zbekistonda o'zbek etnomadaniyati xalqimizning ijtimoiy-tarixiy merosi, avlodlararo diaxron aloqalarning ko'rinishi, O'zbekiston hududida yashagan va yashayotgan etnoslarni birlashtiruvchi asos,

millatimizning mentalitetini, olamni idrok etish tajribasini, gnoseologik tasavvurlarini, yangi ijtimoiy-madaniy borliq yaratishdagi izlanishlarini ifodalovchi voqelik sifatida qarala boshlandi.

Etnomadaniyatning falsafiy, ijtimoiy, tarixiy jihatlarini tadqiq etgan, o'zbek xalqi yaratgan artefaktlarning mustaqillik yillarida o'zgarishini, transformatsiyasini tadqiq qilgan U.H.Qoraboev bu haqda shunday fikrga keladi: "Xalq madaniyati, birinchidan, ma'lum bir hudud (joy) aholisining madaniyati, ikkinchidan, mehnatkash xalq, omma madaniyati, uchinchidan, aniq bir etnos madaniyatidir... Keng ma'noda xalqning g'oyaviy pozitsiyalarini, orzu-umidlarini, ichki dunyosini ifoda etgan omma, shuningdek, professionallar tomonidan yaratilgan barcha madaniyatni xalq madaniyati deyish mumkin". Ushbu ta'rifdan xalq madaniyati ma'lum bir etnos va uning vakillari tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi ekanini anglash mumkin. Tadqiqotchi ushbu boyliklarni klassifikatsiya qilganida, ulardan an'anaviy madaniyat shakllarini alohida ta'kidlab ko'rsatganida inson hayotining barcha sohalaridan, faoliyatidan kelib chiqib: "Madaniyat – bu hayotning bir sohasi emas. U faqat ilm-fan, ma'rifat, din, adabiyot, san'at, ijod, ijobiy an'ana kabilar bilan cheklanib qolmaydi. Madaniyat inson hayotining barcha sohalarida namoyon bo'ladi va u barcha sohalar uchun zarur", – deydi.

Etnomadaniyat – xalqning tarixiy-madaniy paradigmasidan chuqur joy olgan, uning yadrosiga aylangan, hayotiy, badiiy-estetik, falsafiy-gnoseologik, transsendental izlanishlari jarayonida shakllangan moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisidir.

Ilmiy bilishda keng tarqalgan butundan bo'lakka, keyin esa butundan umumiylikka borish usulini xalq madaniyati va xalq estetikasi o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni o'rganishda ham qo'llash mumkin. Xalq madaniyati – butun, xalq estetikasi – bo'lak, ya'ni xalq madaniyatining bo'lagi, qismi, qirrasini sifatida qaraladi. Mazkur usuldan kelib chiqib, eng avvalo, xalq madaniyati va xalq estetikasi uchun umumiy bo'lgan jihatlarni, konvensional negizlarni aniqlab olishimiz darkor. Ushbu umumiy jihatlarni, konvensional negizlarni xalq madaniyatining umumiy, tizimli xususiyatlarini, xalq estetikasining esa ichki, immanent belgilarini aniqlab olishga yordam beradi.

Xo'sh, ushbu umumiy jihatlar, konvensional negizlar nimalardan iborat?

Birinchi, etnomadaniyat va etnoestetika ijtimoiy munosabatlar, empirik izlanishlar, amaliy faoliyat, real hayotiy ehtiyojlar in'ikosi.

O'zbekiston hududida o'tkazilgan arxeologik izlanishlar xalqimizga tasviriy san'at, musiqa qadimdan ma'lum bo'lganligidan darak beradi. Masalan, Samarqand viloyati Urgut tumanining Mo'minobod qishlog'ida o'tkazilgan arxeologik qazishma paytida odam skeleti bilan birga g'aroyib nay topilgan. Mutaxassislarining qayd etishicha, ushbu nay bronza davriga taalluqli bo'lib, uning yoshi 5 ming yilga teng. "Bu nay Zarafshon vodiysida yashagan eng qadimgi qabilalar bundan 5 ming yil avval musiqa sozidan unumli foydalanganliklaridan va umuman musiqa ular ijtimoiy-madaniy hayotining tarkibiy qismi bo'lganidan dalolat beradi".

Tasviriy va amaliy san'at tarixidan ham istagancha misollar keltirish mumkin. "Yunon-Baqtriya davri san'ati yodgorliklarida yunon musiqiy cholg'ularining namunalarini, avlos chalayotgan ayol, merada o'ynayotgan haykalchalarni ko'rish mumkin. Ayritom peshtoqlari, shu bilan birga burchakli chang (arfa)chilar, ikki tomonli ko'ndalang nog'ora, surnay, turli xil zarbli cholg'ularni ko'plab uchratish mumkin.

Shu o'rinda ilmiy metodologik ahamiyatga ega bo'lgan bir vazifani keltirib o'tish zarur. Etnomadaniyat va etnoestetikada xalqning axloq, ezgulik, gumanizm haqidagi azaliy fikrlari, tasavvurlari mujassam.

Ikkinchi, madaniy va estetik boyliklar, qadriyatlar ijtimoiy ong shakllari sifatida etnosning olamni gnoseologik idrok etishga, bilishga oid orzu- tasavvurlari, gipotetik qarashlarining ifodasidir.

Ta'kidlash lozimki, har qanday badiiy-estetik ijod, asar real borliqdan oldinda yuradi, ma'lum bir gipotetik qarashlarni ifoda etadi. Haqiqiy san'at asarlari "o'tkinchi borliqdagi azaliy go'zallikni ilg'ab oladi, tasvirlaydi, shu tariqa ular borliqdagi go'zallikni kelgusi hayotdagi go'zallik bilan bog'laydi". Shuning uchun ham etnomadaniyat va etnoestetika mavjud borliqdagi go'zallikni ifoda etadi, keyin u orqali inson dilini kelgusi hayotda bo'lishi lozim bo'lgan go'zallik bilan bog'laydi. Badiiy, estetik ijoddagi ushbu gipotetik qarash etnomadaniyat va etnoestetikada fantaziya, utopiya, bo'rtirma tarzida keladi. O'zbek xalq ertaklari va dostonlaridagi o'z sevgisiga, yoriga sadoqatli, har qanday

to'siqlarni engishga shay Barchin, Zuhra, Layli, Gulandom kabi pokiza qalbli, parivash suratli qizlar, yigirma, hatto qirq yillab oshiq yigitini kutgan mahbubalar ana shunday tasvirlar mahsulidir. Bilagi kuchga to'la, dili toza, tog'ni ursa talqon qiladigan, oliyjanob fazilatli Alpomish, Tohir, Farhod, Kenja botirlar ham shunday go'zal obrazlardir.

Uchinchidan, ijtimoiy borliqni insoniylashtirish va go'zallashtirishga qaratilgan qadriyatlar yig'indisidir. Ular, ya'ni etnomadaniyat va etnoestetika: "1) tabiatda aks etishi mumkin bo'lmagan g'oyalarning chuqur ichki sifatlarini o'rganish; 2) tabiatdagi go'zallikdan ilhomlanib va u orqali; 3) tabiiy go'zallikdagi betakror individuallikni ifodalash" orqali yaratiladi.

Tabiatda aks etishi mumkin bo'lmagan estetik g'oyalarni inson o'zining badiiy-estetik ehtiyojlariga, estetik idrok etish tajribalariga muvofiq yaratadi. U tabiat go'zalligidan ilhomlanadi, ammo bu bilan cheklanib qolmaydi, u tabiat nihoyasiga etkazolmagan go'zallikni etuklik cho'qqisiga etkazishga intiladi. To'g'ri, uning barcha intilishlari ham xalq madaniyatidan badiiy-estetik qadriyat, betakror, umrboqiy asar sifatida joy olavermaydi. Masalan, barcha xalq dostonlari ham "Alpomish" yoki "Go'ro'g'li" kabi yirik badiiy-estetik qimmatga ega epik asarlar darajasiga ko'tarilmagan. Eng muhimi shundaki, ushbu epik asarlarda xalq qahramonlari (Alpomish, Barchin, Go'ro'g'li) eng oliyjanob insoniy fazilatlariga ega, avlodlar uchun mardlik, elsevarlik, adolatparvarlik va insonparvarlik timsoli, ideal sifatida tasvirlanadi. Bu bejiz emas. Bunday madaniy-estetik qadriyatlar deyarli barcha xalqlarda uchraydi. Demak, olamni insoniylashtirish, hayotni yanada go'zallashtirish maqsadi etnomadaniyat va etnoestetikani uyg'unlashtiruvchi, konvensional negizdir. Shuning uchun etnomadaniyat ham, etnoestetika ham ushbu negizdan kelib chiqib o'rganilishi, tadqiq etilishi lozim. Mazkur negizdan ajratilgan etnomadaniyat, etnoestetika "o'zi o'zi uchun" bo'lib qoladi, o'zining ijtimoiy – gumanistik mohiyatini yo'qotadi.

To'rtinchidan, etnomadaniyat va etnoestetika ijod, ijodiy izlanishlar bilan bevosita bog'liqdir. Ijod qilish, yangi badiiy-estetik boyliklar yaratish ularni uyg'unlashtiruvchi, insonning barcha badiiy-estetik faoliyatini xarakterlovchi jarayondir.

Ijod qilish, avvalo, biror badiiy-estetik yoki g'oyaviy maqsad sifatida ongda paydo bo'ladi. Inson ushbu maqsadini ob'ektivlashtirishga intiladi. Agar "ijod texnologiyasi" dan yaxshi xabardor bo'lmasa, havaskor sifatida, o'rganuvchi-resipient sifatida yirik san'atkorlar uslubini o'rganadi, ularga taqlid qiladi. Mazkur bosqich har qanday badiiy-estetik ijod uchun tabiiy holdir. Keyin havaskor kasb mahoratini, agar ustoz topolsa, uning yordamida ijod usulini egallaydi, o'z maqsadini yuksak obrazlar, ranglar, asarlar, rollar va ohanglarda tasvirlaydi.

Etnomadaniyat va etnoestetika o'rtasidagi dialektik aloqalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Etnomadaniyat etnoestetikaning namoyon bo'lishiga xizmat qiladigan, uning mavjudligini real hodisalar, artefaktlar bilan ta'minlaydigan makon hisoblanadi.

2. Etnoestetika etnomadaniyatdagi go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojaviylik va kulgililik kabi estetik qadriyatlarni ifoda etuvchi fenomendir. U etnomadaniyatning tarkibiy qismi sifatida undagi artefaktlar, obrazlar, simvollar, ijod namunalari, urf-odatlar, gnoseologik tajribalar, an'analar, ommaviy bayramlarni estetika qonuniyatlari nuqtai nazaridan baholaydi. Shuning uchun etnoestetika xalq madaniyatining estetik-akseologik qismidir.

3. Estetika qonunlariga muvofiq baholanmaydigan etnomadaniyat, umuman madaniyat yo'q. Lekin barcha artefaktlar, ijod namunalari, hatto etnomadaniyatga oid ashyolar etnoestetikaning ob'ekti bo'lavermaydi. Masalan, avtomobil dizayni yoki kompyuterlarning tashqi ko'rinishini etnoestetika emas, balki zamonaviy dizayn san'ati baholashi mumkin.

4. Etnoestetikaning ob'ekti mudom xalqning tarixiy-madaniy paradigmasidan joy olgan, muqim, barqaror moddiy va ma'naviy boyliklarga aylangan qadriyatlardir. Shuning uchun u ko'proq xalq hayotidan mustahkam o'rin olgan an'anaviy ijod turlarini o'rganadi. Bu xalq estetikasining aprior qonunidir.

5. Estetika xalq madaniyatini o'zining tadqiqot ob'ekti qilib olganida estetika fani metodlariga, kategoriyalari va xulosalariga tayanadi. Biroq, u kelgusida alohida ilm sohasi yoki nazariya sifatida shakllanganida ham ijtimoiy-madaniy makondan uzoqqa ketolmaydi.



6. Etnoestetika xalqning go‘zallik va xunuklikni o‘ziga xos tarzda baholash tajribalariga, ulug‘vorlik yoki tubanlik haqidagi mentalitetiga singgan g‘oyalariga, fojaviylik va kulgililikka oid etnostereotiplariga tayanadi.

7. Etnomadaniyatni etnoestetika nuqtai nazaridan baholagandagina uning haqiqiy mohiyati, funksional ahamiyati, sotsium va inson taraqqiyotidagi o‘rnini ob‘ektiv, to‘liqroq, chuqurroq anglash mumkin.

8. Etnoestetikaning mezonlari, usullari etnomadaniyatning mazmunidan, uning tarkibiy qismiga aylangan ijod namunalaridan, artefaktlari va an‘analaridan izlanadi. Ana shunda biz etnomadaniyatni tashqi tazyiqsiz, sun‘iy tarzda yaratilgan nazariy modellarsiz ob‘ektiv, borligicha o‘rganamiz. To‘g‘ri, biz estetika, san‘atshunoslik, xalq ijodi, san‘at falsafasi, san‘at tarixi kabi ilm-fan sohalarida yaratilgan nazariy modellar, ularning imkoniyatlaridan foydalanamiz. Lekin ular etnomadaniyatning immanent qonunlariga muvofiq kelishi lozim.

### **Nazorat savollari**

1. Xalq madaniyati nima?
2. Etnoestetika deganda nimani tushunasiz?
3. Etnoestetikaning qanday mezonlari bor?
4. Etnomadaniyat va etnoestetika o‘rtasidagi dialektik aloqalar nimalarda namoyon bo‘ladi?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
3. Jabborov I. O‘zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
4. Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. –Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, 2009. 5,5 b.t.
5. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.

## **5-MAVZU. ETNOMADANIYATDA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK DIALEKTIKASI**

### **Reja**

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi o'ri.
2. O'zbek etnomadaniyatidagi milliylik milliy xarakterda o'z ifodasini topishi.
3. O'zbek etnomadaniyatidagi umuminsoniylik.

Milliy madaniyat bilan etnomadaniyat aynan fenomenlar emas, milliy madaniyat etnomadaniyatdan kengdir. "Etnomadaniyat (xalq madaniyati) milliy madaniyatning qadimiy qatlamidir. U, asosan, maishiy hayotni qamrab olgan bo'lib, "ajdodlar urf-odatlaridan iboratdir. Uning belgilari oziq-ovqat, kiyinish, xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati kabi xalq hayotiga bevosita taalluqli artefaktlarda, narsalar, an'analar, marosimlar, tomoshalar va xo'jalik tiplarida namoyon bo'ladi". Xullas, etnomadaniyat millatni shakllantirgan, etnoslar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi sifatida milliy madaniyatning yadrosini tashkil qiladi. Uning bosh funksional xususiyati etnoslar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash, kelgusi avlodlarga etkazish, milliy o'zlikni anglashga xizmat qilish, yoshlarda milliy g'ururni, vatanparvarlik va xalqparvarlik tuyg'usini shakllantirishdir. "Konservatizm, uzoq o'tmishga borib taqaluvchi vorisiylik, "negiz"ni asrashga yo'naltirilganlik etnomadaniyatning xarakterli belgisidir".

Etnomadaniyat milliy madaniyatning yadro qismi ekan u, shubhasiz, milliy madaniyat tizimida qaraladi. To'g'ri, etnomadaniyat bilan milliy madaniyat o'rtasiga "xitoy devori" qo'yib bo'lmaydi, ular mudom dialektik birlikda, bog'liqlikda keladi. Shunday bo'lsa-da, etnomadaniyatga xos barqaror, muqim, tashqi ta'sirlarga tez berilmaydigan, o'zgarmaydigan belgilarni topish qiyin emas.

Milliy madaniyatlarni shakllanishi xususida U.Mengliqulov shunday yozadi: "Er kurrasining turli iqtisodiy, ijtimoiy, geografik sharoitlari insonlarning tashqi va ichki madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy jarayondir. Dunyoda minglab millat va elatlar o'zlariga xos milliy xususiyat va madaniyatiga ega. Milliy madaniyatlar har bir millat yoki elat

yashab turgan hududning tabiiy joylashuvi, geografiyasi, iqlimi, turmush kechirishida mavjud mashg‘ulotlari doirasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish choralarini izlash jarayonida vujudga keladi va keyinchalik milliy urf-odat va an’anaga aylanib boradi. Mazkur etnik xususiyat bora-bora millat xarakteriga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib boradi... Jahonda tarqalgan barcha elat va xalqlar o‘zlari yashaydigan hududning iqlimi va geografik imkoniyatlaridan kelib chiqib turmush uchun zarur bo‘lgan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadilar. Bir tomondan, Markaziy Osiyo xalqlari yuksak imkoniyatlar mavjud hududda yashaganliklari qadimdan ishlab chiqarish, ilm-fan, san’at, madaniyat sohalarida ulkan yangiliklar yaratganligiga ishora bersa, ikkinchi tomondan o‘zbek xalqi qadimdan yaratuvchilik, bunyodkorlik, mehnatsevarlik, jamoaviy ishlarda faol hatti-harakatlari bilan ajralib turgan. Mamlakatimiz tarixida bunyod etilgan juda ko‘plab kanallar, ko‘priklar, qal’a devorlari, kommunikasiya inshootlari hashar yo‘li bilan barpo etilgani haqida ma’lumotlar beriladi”<sup>1</sup>.

O‘zbek etnomadaniyatidagi milliylik milliy xarakterda o‘z ifodasini topadi. O‘zbek milliy xarakteri M.Quronov ta’kidiga ko‘ra, mingga yaqin sifatlardan iborat. “Millat hayotining har bir bosqichi uning xarakterida o‘z izini qoldiradi. Bosib o‘tilgan yo‘l qancha uzoq va qiyin bo‘lsa, millatning xarakteridagi sifatlar ham shunchalik chuqur bo‘ladi”. Olim milliy xarakterning ko‘rinishlari, xalq hayoti, madaniyati va ma’naviyatida namoyon bo‘lish xususiyatlari haqida to‘xtalib yozadi: “Milliy xarakter muayyan millat farzandlarining o‘ziga xos xususiyatlarining majmuasidan iborat bo‘ladi. Milliy xarakter o‘z ichiga irodaviy sifatlarni (mustaqillik, chidamlilik, prinsipiiallik, o‘zini o‘zi tuta bilish, qat’iylik, matonat kabilarni) va axloqiy xislatlarni (poklik, intizomlilik, samimiylik, haqqoniylik, insonparvarlik va boshqalarni) qamrab oladi. Shuningdek, milliy xarakter odamlarga bo‘lgan munosabatlarni (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik), mehnatga bo‘lgan munosabatlarni (mehnatsevarlik va yalqovlik, mas’uliyatlilik yoki mas’uliyatsizlik), narsalarga bo‘lgan munosabatlarni (ozodalik-ifloslik, tejamkorlik-isrofgarchilik, ayash yoki ayamasklik) va odamlarning o‘z-o‘ziga munosabatlarini (izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag‘rurlik, o‘zini katta

---

<sup>1</sup> Менгликулов У.М. Ўзбек этномаданиятининг Шарқ цивилизациясига таъсири // ЎзМУ хабарлари. - Тошкент, 2020. -№ 1/3. -Б. 126-127.

olish, dimog‘dorlik, kamtarlik) kabi xususiyatlarni ifodalaydi”. Xullas, “milliy xarakter – qadriyatlar tizimi, me‘yorlar mantiqi, tashqi ritual va milliy birlikning e’tirof etilgan ko‘rsatmalari majmuidir”.

Mazkur milliy xarakterga xos fazilatlarini xalq madaniyatining deyarli barcha shakllarida, ko‘rinishlarida u yoki bu darajada uchratish mumkin. Masalan, Navro‘z bayrami xalqimizga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, erni asrash, yoshlarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga, Gul sayli ona tabiatdagi go‘zallikdan bahramand bo‘lish, tabiatni asrashga, Qovun sayli mehnat natijalarini tarannum etib, xalqqa noz-ne‘matlar etkazib berishga qaratilgandir.

O‘zbek etnomadaniyati milliy xususiyatlaridagi navbatdagi estetik jihat ona zamin tabiatini tasvirlashdadir. Ona vatan tabiatini, unda etishtiriladigan hosilni kuylash, tasvirlash barcha xalqlar kabi o‘zbeklarda ham an‘ana bo‘lgan, bu borada maxsus marosimlar uyushtirilgan. O‘zbek xalq marosimlarini tadqiq etgan olimlar ularda xalqimizga xos vatanparvarlik bilan mehnatsevarlik uyg‘unlashib kelganini, tabiat yaratgan in‘omlar va go‘zallikni asrash marosimlarda tarannum etilganini uqtiradilar.

Din, e’tiqod, erdagi mavjudotlar va narsalarni nigohidan qochirmaydigan, ularni yaratgan borligini tan olib yashash o‘zbek xalqi tarixiy-madaniy paradigmasidan chuqur joy olgan qadriyatlardir. Xudoga, transsendentga ishonish, spiritualistik mushohadalarga berilish Sharq kishilariga xos xislatdir. Shuning uchun xalq madaniyatini ushbu transsendental, spiritualistik qadriyatlarsiz to‘la tasavvur etib bo‘lmaydi.

O‘zbek xalq madaniyatida din, e’tiqod, spiritualistik mushohadalarga berilishni g‘ayrihayotiy obrazlarning qahramonlarga yordamga kelishida (bo‘yi bir qarich, soqoli qirq qarich chol, Xizrbobo, Bibiseshanba, yoriltosh, sehri oyna, taroq yoki tosh, jun), ilohiy ruh obrazida (“Alpomish”dagi g‘oz, “Bahrom va Gulandom”dagi etti yuz yoshli chol, bobo obrazi kabilar), Alloh nomining tilga olinishida kuzatamiz.

Xalq madaniyatining umrboqiyliigi undagi umuminsoniy qadriyatlar, xususiyatlar tufaylidir. Aynan umuminsoniylik etnomadaniyatdagi konservatizmni pozitiv voqelikka aylantiradi. Xalq qalbidan, hayotidan, turmush tarzi va mentalitetidan chuqur joy olib, uning tarixiy-madaniy paradigmasiga aylangan an‘analar, an‘anaviy axloq, odob, muomala,

yashash normalari, boshqa madaniyat vakillariga qancha konservativ ko‘rinmasin, agar ular insoniylikka qarshi chiqmasa, birovni o‘ldirishga, molini talashga, bosqinchilik qilib, zug‘um o‘tkazishga, zo‘ravonlik qilishga da‘vat etmasa, ularni ijobiy baholash mumkin. Gap an‘analarning qadimiy, hayotdan orqada qolgan, turg‘un, mudom takrorlanadigan hodisalar ekanligida emas, bunday an‘analar insonni sotsium bilan ittifoq, murosa qilib yashash, o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlariga qarshi qo‘ymaslikka o‘rgatadi, bu pozitiv hol, albatta. Ammo ushbu an‘analar umuminsoniy qadriyatlarga zid kelsa, ularni inkor qilsa, insonning erkin yashashiga, ijodiy kuchlarini ro‘yobga chiqarishiga to‘sqinlik qilsa salbiy oqibatlariga olib keladi.

O‘zbek etnomadaniyatidagi umuminsoniylik, eng avvalo, undagi insonparvarlik g‘oyalarida, ushbu g‘oyalarni badiiy-estetik vositalar va usullar bilan ifodalanishida namoyon bo‘ladi. Insonni, undagi go‘zal qiyofa va fazilatlarni ulug‘lash, unda kelajakka umid bilan qarash ibratli axloqiy-estetik qadriyatlardir.

Umuminsoniylik xalqlar, millatlar, davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni, integratsiyani qo‘llab-quvvatlovchi g‘oyalar, syujetlar, asarlarda ham aks etadi. “Alpomish” dostonining deyarli barcha turkiy xalqlarda tarqalgani, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagining deyarli barcha xalqlar og‘zaki ijodida uchrashi, turli millat vakillarining do‘stligini kuylagan syujetlar, ishqiy sarguzashtlar xalqaro ko‘chma tasvirlar ekani xalq madaniyati mudom integratsiya ta‘sirida bo‘lganini ko‘rsatadi. Izolyusionizm xalq madaniyatlariga xos hodisa bo‘lmagan, xalqaro aloqalar va muloqotlar esa etnomadaniy jarayonlarga umuminsoniy motivlar, mavzular, estetik idealni olib kirgan.

O‘zbek madaniyatidagi umuminsoniylik va undagi estetik qadriyatlar o‘zbek xalqining boshqa qardosh xalqlar, eng avvalo O‘rta Osiyodagi xalqlar madaniy aloqalari natijasida shakllangan. Shuning uchun nafaqat ayrim syujetlarda, badiiy-estetik tasvir va ideallarda yaqinlik, aynanlik, balki butun boshli asarlar, xalq kitoblari, xalq qo‘shiqlari, kuylari va o‘yinlari, naqsh san‘atining bir-biriga yaqinligi mavjuddir. Masalan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham, turkman xalq og‘zaki ijodida ham, “Xorazmcha lazgi” bizda ham, ozarbayjonlarda ham mavjud. Naqshlardagi ko‘k, havorang, yashil

bo‘yoqlar o‘zbek, tojik, qirg‘iz xalqlarida ko‘proq uchrashini kuzatamiz. Turkman gilamlarida qizil, sakkiz burchakli naqshlar esa ozar va turklarda ko‘p qo‘llaniladi. Xullas, o‘zbek etnomadaniyatidagi ko‘pgina badiiy-estetik tasvirlar, syujetlar uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish va madaniy integratsiya ta‘sirida shakllangan. Shuning uchun O‘rta Osiyodagi etnomadaniy jarayonlar o‘ziga xos integratsiya hosilasi sifatida kechgan. Ya‘ni, birinchidan, bunday madaniy integratsiya tarixiy rivojlanishning bevosita ta‘siri edi; ikkinchidan, o‘z tarixi va dinamikasiga ega O‘rta Osiyo sivilizatsiyasining asosi bo‘lgan; uchinchidan, mintaqa xalqlari uchun umumiy, universal bo‘lgan ma‘naviy boyliklar qaror topgan. Shuning uchun ham mintaqamiz xalqlari bir-birining madaniyatlarini, an‘analari va badiiy-estetik fikrlarini, g‘oyalarini hech qanday izohsiz, tarjimonsiz tushunadi, ularni boshqa mintaqalardagi etnomadaniyatlardan osongina farqlay oladi. Kuylaridagi sertuyg‘ulik va o‘ynoqilik, raqslaridagi nafislik va chaqqonlik, naqshlaridagi serjilolik va ranglar tanlashda tabiatga taqlidlik, og‘zaki ijodidagi epiklik va polistilistika, xalq bayramlari va tomoshalaridagi ochiqlik va sinkretlik o‘lkamiz xalqlari madaniyatidagi badiiy-estetik o‘ziga xosliklardir.

Milliy va umuminsoniy xususiyatlarning shakllanishiga etnos yashagan tabiiy-jo‘g‘rofiy muhit, turmush tarzining o‘ziga xosligi, ijtimoiy munosabatlar, ayniqsa mehnat turlari kabi omillar ham ta‘sir etgan. Mazkur omillar insonning, xalqning olamga, yon-atrofga va ijtimoiy-madaniy hayotiga ta‘sir etmay qolmagan. Shuning uchun ham turli mintaqalarda yashasa-da, tabiiy-jo‘g‘rofiy muhiti aynan bo‘lgan xalqlar madaniyatida o‘xshashlik, yaqinlik ko‘plab topiladi. Lekin asosiy diqqat etnomadaniyatlar izolyatsiyasiga olib keluvchi omillarga qaratilmasligi zarur. Milliy o‘ziga xosliklarni falsafiy qirralarini o‘rganish qanchalik muhim bo‘lmasin, ulardagi umuminsoniy xususiyatlarni aniqlash, etnomadaniyatlar integratsiyasini ta‘minlaydigan vositalarni, badiiy-estetik qadriyatlarni topish muhim amaliy ahamiyatga ega.

### **Nazorat savollari**

1. Etnomadaniyat milliy madaniyatning yadro qismi deganda nimani tushunasiz?
2. Etnomadaniyatdagi milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligi nima?
3. Etnomadaniyatdagi umuminsoniylikka misol keltiring.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. -274 b.
3. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
4. Jabborov I. O‘zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
5. Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. –Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, 2009. 5,5 b.t.
6. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.

## **6-MAVZU. O‘ZBEK ETNOMADANIYATIDA MILLIY G‘OYANING AKS ETTIRILISHI**

### **Reja**

1. Etnomadaniyat mazmunan milliy g‘oya va mafkura bilan bog‘liqligi.
2. Etnomadaniyatdagi fikr, g‘oya va maqsadlar milliy ma’naviyatdan darak berishi.
3. O‘zbek milliy madaniyati - milliy g‘oya va mafkuraning ildizi.

Etnomadaniyat insonning dunyoni, ijtimoiy borliqni gnoseologik anglashga qaratilgan sub’ektiv faoliyati natijasi. Etnomadaniyatning ushbu sub’ektiv negizi moddiy va ma’naviy boyliklarda ma’lum g‘oya va mafkuraning ifodasi sifatida keladi. Hatto, utilitar maqsadlarga yo‘naltirilgan qurollar, artefaktlar ham o‘zida sub’ektning nafaqat estetik, shu bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy, hatto siyosiy qarashlarini, fikrlarini tashiydi. Qayd qilish lozimki, o‘zbek do‘ppisida nafaqat boshni issiq-sovuqdan asrash maqsadi yashiringan, shuningdek, u milliy g‘urur, milliy o‘zlikni namoyon etish timsoliga aylangan. Jamiyatdagi mavjud etnos vakillarining tashqi ko‘rinishi, lokal-etnografik belgilari, kiyinish madaniyati, hatto kinesika va imo-ishorali xatti-harakatlari orqali ajratish

mumkin. Bu nafaqat fiziologik, biologik, shuningdek, “madaniy determinizm” ta’siridir. Ushbu ta’sir mentalitetda, yurish-turishda, munosabatlarda ma’lum bir stereotiplarni yuzaga keltiradi. Ushbu holatni o‘rganib, “shablon”ni kuzatib, kishining qaysi etnosga, etnomadaniyatga taalluqli ekani, uning kiyinishi, kinesikasini tahlil qilib, estetik didi aniqlanadi, qanday ijtimoiy g‘oyalar tarafdori ekanligini bilamiz. “Aholining milliy kiyimlarida urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba’zi bir elementlari, diniy e’tiqod, nafasat va estetik normalar o‘z aksini topgan. Milliy kiyimlar moddiy va ma’naviy yodgorliklar ichida xalqning milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarni ko‘rsatuvchi mezondir”<sup>1</sup>. To‘g‘ri, biz ushbu tasavvurlarimizda adashishimiz mumkin, ammo kishining stereotiplaridan uning ichki dunyosini, etnomadaniyatini, estetik didini bilishga, anglashga intilishdan to‘xtamaymiz.

Ayniqsa inson xatti-harakatlarini biror narsa yaratishga qaratganida ichki dunyosidagi fikrlarini, g‘oya va qarashlarini, estetik didini o‘sha narsaga “sarf” etadi, singdiradi. Shu tariqa ongning, didning ob’ektivlashuvi ro‘y beradi.

O‘zbek etnomadaniyatida har doim ham hozirgi ma’nodagi milliy g‘oya va mafkura bo‘lmagan. Ba’zi tadqiqotchilar milliy g‘oya va mafkuraning ildizlarini antik davr madaniyatidan, qadimgi rivoyatlarimizdan keltirib chiqaradilar. Bizning fikrimizcha, ilgarigi jamiyatlarda milliy g‘oya va mafkura hozirgidek nazariy-falsafiy konsepsiya sifatida emas, balki o‘zbek va boshqa o‘lkamiz xalqlari vakillarini ijtimoiy birlik tarzida shakllanishiga olib kelgan g‘oyalar, yondashishlar, maqsadlar shaklida mavjud edi. Milliy g‘oya va mafkura o‘zbek millatining to‘la shakllanishi bilan nazariy-falsafiy konsepsiyaga, anglangan ta’limotga aylangan bo‘lsa-da, u o‘zbek etnomadaniyatining ichida, uning tarkibiy qismi sifatida mudom mavjud bo‘lgan. Shuning uchun etnomadaniyatni milliy g‘oya va mafkuradan ajratish, ular o‘rtasida “xitoy devori” tiklash xatodir.

---

<sup>1</sup> Ялгашев Б. Самарқанд аҳолисининг анъанавий халқ кийимларидаги этник кўринишлар // Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар: Республика 18-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари. -Тошкент, 2020. -Б. 58.



Etnomadaniyat mazmunan milliy g'oya va mafkura bilan bog'liq. Undagi fikrlar, g'oyalar, qahramon kurash olib borgan maqsadlar, tasvirdagi obrazlar, chizgilar, hatto naqshlardagi ranglar, ularning ishlatilishi, texnologiyasi milliy ma'naviyat haqida xabar beradi. O'zbek musiqasidagi yurakni, dilni o'rtovchi, nolali ohanglar, raqqosalar harakatidagi ibo, nafislik, muloyimlik, hatto itoatkorona halimlik ham xalqimiz amal qilgan ijtimoiy g'oyalar, estetik qarashlar, xullas etnoestetik merosdagi mafkuraviy omillar ta'siridan darak beradi.

O'zbek etnomadaniy merosida xalqimizning o'zligini anglash va asrashga bo'lgan intilishlari izchil tasvirlangan. Bu eng avvalo Vatan va xalq ozodligi uchun kurashlar tasvirlangan xalq ijodi va san'ati asarlarida namoyon bo'ladi. "Alpomish", "Qirq qiz", "Go'ro'g'li", "Yodgorxon", "Rustamxon" kabi xalq dostonlaridagi bosh qahramonlar vatanparvarlik tuyg'usini qalbiga singdirgan obrazlardir. "Xalqimizning qadimiy tasavvurlariga ko'ra, o'q-yoy – hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish etti yoshida o'n to'rt botmon birichdan – bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, "alp" degan unvonga sazovor bo'ladi. Alp degani – hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko'p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ishonch hosil qilamiz...

Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini yo'qotmagan xalqimizning bag'rikenglik, matonat, oliyjanoblik kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan". Go'ro'g'li esa turli xalq vakillarini birlashtirib, o'z atrofiga yig'ib, vatani dushmanlariga qarshi chiqadi. U "ulg'ayib, voyaga etgach, ko'k va erni bog'lovchi mediatorga, yanada aniq aytilsa, er ahliga tajovuz solib, tahdid qilayotgan yovuz kuchlarni qaytaruvchi xaloskorga aylandi. Odamlarga yo'l boshchilik qilib, ularni to'g'ri yo'lga boshladi. Izdan chiqqan jamiyatda adolat o'rnatadi, ma'rifat tarqatadi".

Xalq kitoblari va dostonlarida tasvirlangan vatan va xalq ozodligi, mustaqilligi uchun olib borilgan kurashlar bo'rttirib, giperbolik tasvirlanadi, bosh qahramon yoki bir guruh pahlavonlar butun boshli yov, dushman lashkari bilan jang qiladi, oxir-oqibat ularni mag'lub etadi. Bu badiiy tasvir hayrat uyg'otadi, ammo xalq qahramonlarini qanday yovuz va beshafqat kuchga qarshi chiqayotganini unutmaydi. Bunday kuchni undan ham zo'r va qudratli tug'yon, qalbiga vatani va xalqi ozodligini jo etgan

qahramongina engishi, tor-mor qilishi mumkin. Bosh qahramonlarni g‘oyat baquvvat, qudratli, bitta o‘zi tog‘da ariq kavlab, suv o‘tkazadigan, “ming-ming lashkarga qarshi” turadigan, “tunu kun mehnat qiladigan”, “qirq kunlik masofani bir damda bosib o‘tadigan” obraz sifatida keltirish xalqning ijtimoiy, badiiy-estetik idealiga muvofiqdir. Xalq bosh qahramonlariga, ularning vatan va xalq ozodligi uchun olib borgan kurashlariga o‘zining g‘oyaviy, madaniy, estetik qarashlarini singdiradi.

Vatan va xalq ozodligi g‘oyasining ushbu etnomadaniy va etnoestetik xususiyatlari mustaqillik yillarida shakllangan milliy g‘oya va mafkuraga ham ko‘chgan. Shuning uchun ham mutaxassislar vatanparvarlik g‘oyasini ajdodlarimizning tarixiy jasoratlari, etnomadaniyatda, ayniqsa xalq og‘zaki ijodi, dostonlari va qo‘shiqdarida yaratilgan obrazlar, tasvirlar, motivlar, xullas millat vakilida, yoshlarda milliy g‘urur, vatanparvarlik hissini uyg‘otadigan ibratli syujetlar, asarlar bilan bog‘lab talqin etadilar. Chunki xalq asarlariga singdirilgan ijtimoiy g‘oyalar badiiy, estetik vositalar yordamida ta’sirchan, emotsional tasvirlar yaratgani bois ular kishilar ongiga, kayfiyatiga, munosabatlariga tez va samarali ta’sir etadi. “O‘tmishda ona-Vatan himoyasi, yurt tinchligi uchun jonini fido qilishga tayyor turgan Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi kabi shaxslar bo‘lganligi faktining o‘zigina kishilarda kelajakka ishonch ruhini mustahkamlaydi”. Ushbu nazariy-falsafiy konsepsiyadan kelib chiqib tadqiqotchilar milliy g‘oya va mafkuradagi vatanparvarlikni:

- o‘z xalqining tarixini yaxshi bilish va undan g‘ururlanish;
- buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy merosni ko‘z qorachig‘idek asrab, kelgusi avlodlarga etkazish;
- ajdodlar urf-odat, rasm-rusum va udumlarini, merosini o‘rganib, uning qadriyatga aylangan qismini davom ettirish;
- davlatimiz kelajagi, istiqlolning barqarorligi, kelajakning buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishga astoydil ko‘maklashish kabi yuzlab fazilatlarini anglatadi”, deb ta’kidlaydilar.

O‘zbek milliy madaniyati o‘z o‘zagi asosida shakllangan. Shunday ekan, o‘zbek etnomadaniyati va undagi fundamental ahamiyatga ega g‘oyalar, qadriyatlar, qarashlar bugungi milliy g‘oya va mafkuraning ham ildizidir. Shuning uchun milliy g‘oya va mafkura mazmunida ifodalangan

fundamental qadriyatlar, konseptual qarashlarni etnomadaniyatdan, etnomadaniy va etnoestetik merosdan izlash kerak.

O‘zbek etnomadaniyatining ideogenezi (estetik qarashlarining kelib chiqishi, negizi) tor, sinfiy yoki ayrim guruhlar g‘oyalarini, manfaatlari va qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilmagan. Sinfiylik, oqimparastlik, hatto o‘z qarashlarini dogma darajasiga ko‘tarib boshqa etnoslarni, elatlarni uni qabul qilishga majburlash unga yotdir. O‘zbek xalqi ham, uning etnomadaniyati ham boshqa xalqlarni assimilyatsiyalashga intilmagan, turli etnomadaniyatlarga o‘zining merosini, qadriyatlarini, tushunchalarini zo‘rlab kiritmagan. Unga xos tolerantlik mavjud badiiy-estetik metodlar va tasvirlardan erkin foydalanish imkonini bergan. Shuning uchun o‘zbek etnomadaniy va etnoestetik merosida yunon, eron, arab, mo‘g‘ul, rus xalqlari madaniyatlariga xos motivlar, syujetlar, uslublar, iboralar va kompozitsiyalar uchraydi. Shu bilan birga ideogenezga duch kelgan mavzular va tasviriy uslublar kiravergan deb ham bo‘lmaydi. Xalq o‘zlashtirayotgan moddiy va ma’naviy boyliklarni, badiiy, estetik tajribalarni o‘zining tarixiy-madaniy paradigmasidan, g‘oyaviy va ma’naviy qadriyatlari sintezidan o‘tkazgan. Bu o‘zbek etnomadaniyatiga yot, buzg‘unchi, g‘ayrimilliy qarashlarning, da’vat va tajribalarning kirib qolishiga yo‘l bermagan. Demak, biz hozir nazarda tutayotgan g‘oyaviy immunitet etnomadaniyatimizdagi an‘analarning, tajribalarning tadrijiy davomidir.

O‘zbek etnomadaniyati tarbiya, ta’lim, yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan etnopedagogik g‘oyalarga boy. Nafaqat xalq ijodi va san’atiga oid asarlar, shuningdek buyuk allomalarimiz, so‘fiy-mutafakkirlarimiz, shoiru murabbiylarimiz, o‘z xalqining, farzandlarining istiqbolini o‘ylagan barcha ajdodlarimiz ham etnopedagogik merosga o‘z hissasini qo‘shgan. Shu bois o‘lkamizda etnopedagogik merosning rang-barangligi, o‘ta boyligi, madaniy-ma’rifiy g‘oyalarga to‘laligi ko‘zga tashlanadi.

Har qanday g‘oya, shu jumladan milliy g‘oya va mafkura ham, tarbiyaviy, targ‘ibiy tadbirlarga muhtojdir. Shuning uchun etnomadaniyatimizdagi ulkan etnopedagogik boyliklardan, tajribalar, ibratli hikoyalar, pandnomalardan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘zbek etnopedagogikasi “ajdod-avlodlarning axloqiy,

ma'rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi rol o'ynadi. Oddiy insonlarni yoxud buyuk allomalar, shunchaki fuqarom va yo yurt sultonlari, kichik suvoriymi yoki ulug' sarkardami baribir xalq tomonidan yaratilgan, amalda bo'lgan xalqona tarbiya an'alariga to'la amal qilgan, unga suyangan, tayangan holda yashasa, faoliyat ko'rsatsa kam bo'lmagan, el-yurt nazariga tushgan, olqishiga sazovor bo'lgan". O'zbek etnopedagogikasining yashovchanligi, ahamiyati "birinchidan, uning hayotiyliigi, ta'sirchanligi, serqirra, serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'alarda yaratilishi, yashashi, hayot, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari echimini hal etishga qaratilgani, uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya-maqсадlarga qaratilgan bo'lganligidir... Zero, xalq orzu-umidi, quvonch-tashvishlari, g'am-g'ussayu armonlari, shodlik, baxtiyorlik onlariyu qadr-qimmatlari, ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, dunyoqarashi, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalari xalq pedagogikasida zuhr etiladi". Ayniqsa, unda milliy g'oya va mafkuraning ta'sirchanligini, samarasini oshirishga xizmat qiladigan etnopedagogik tajribalar mujassamdir.

Xalq pedagogikasi etnoestetik vositalarga boy. Chunonchi, tez aytish kishida nutq madaniyatini, burro talaffuz qilish ko'nikmasini, topishmoq zukkolik, topqirlik va hozirjavoblikni shakllantiradi, maqollar xalq hikmatidagi serma'nolik va donishmandlikni qadrlashga, alla qo'shiqlari kuy tinglashga, qo'g'irchoq o'ynash kiyinish madaniyatiga, latifalar laqmalik, go'llik va bad qiliqlar, xatti-harakatlar ustidan kulishga, masxarabozlik, xalq tomoshalari esa zavq olish va hordiq chiqarishga o'rgatadi. Ko'rinib turibdiki, etnopedagogika badiiy-estetik vositalardan, usul va tasvirlardan foydalanibgina etnomadaniyatdan joy oladi. Bu esa uning milliy g'oyaviy, axloqiy tarbiyadagi o'rnini ham belgilaydi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbek milliy madaniyatining asosi?
2. Milliy g'oya va mafkura o'zbek etnomadaniyatida qaysi davrlardan buyon mavjud deb o'ylaysiz?
3. Xalq pedagogikasini ahamiyati?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. -274 b.
3. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
4. Jabborov I. O‘zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
5. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.

## **7-MAVZU. ETNOMADANIYATDA XALQ IDEALINING AKS ETTIRILISHI**

### **Reja**

1. Etnomadaniyatning yoshlarda ma’naviy-estetik idealni shakllantirish funksiyasi.
2. Etnoestetik va milliy estetik ideal.
3. Umuminsoniy estetik ideal.

Etnomadaniyat milliy madaniyatning o‘zagi, yadrosi sifatida barqaror, turg‘un moddiy va ma’naviy boyliklardan, xalqning ijodi va san’ati orqali yaratilgan artefaktlardan iborat bo‘lsa-da, u ijtimoiy hayot va taraqqiyotdan mutlaq chekkada turadigan fenomen emas. Aks holda u dogmatik voqelikka, xalq, millat uchun, ijtimoiy muammolarni hal etish uchun mutlaq yaroqsiz, benaf narsaga aylanardi. Etnomadaniyat mudom ijtimoiy-madaniy hayot, mazkur sohada yuz berayotgan transformatsiya jarayonlari, tub o‘zgarishlar ta’siridan chekkada qololmaydi va o‘zi ham ushbu jarayonlarda ishtirok etadi. Demak, jamiyatning strategik maqsadi etnomadaniyatga ham ma’lum bir ijtimoiy vazifalar yuklaydi, uning funksiyasini belgilab beradi. Kishilarda, ayniqsa yoshlarda ma’naviy-estetik idealni shakllantirish etnomadaniyatning O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyotidan, strategik maqsadidan kelib chiquvchi ana shunday funksiyasidir. “Ijtimoiy ideal va ma’naviy taraqqiyot mohiyatan bir-biriga

bog‘liq voqeliklardir. Ushbu bog‘liqlik milliy g‘oya va milliy mafkurada o‘z aksini topadi, chunki aynan milliy g‘oya va milliy mafkurada xalqning uzoqqa yo‘naltirilgan maqsadlari, qanday jamiyat qurish rejalari, kelgusi avlodda shakllantiriladigan fazilatlar va davlat rivojlanishining strategiyasi mujassam bo‘ladi”<sup>1</sup>.

Etnomadaniyatning ma’naviy-estetik idealni shakllantirish funksiyasi ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyot bilan uyg‘unlikda qaralishi darkor. Bizning nazarimizda, ma’naviyat estetik voqelikdan keng, ikkinchisi birinchisiga xizmat qiladi, uni badiiy-estetik va emotsional ta’sir vositalari bilan boyitadi. Ilmiy adabiyotlarda ko‘pincha “estetik ideal” yoki “badiiy-estetik ideal” tushunchasi qo‘llaniladi.

“Badiiy-estetik ideal ijtimoiy borliqni, insonning badiiy, ma’naviy-ruhiy hayotini go‘zallashtirishga, nafasat qonunlariga muvofiq uni takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy ong shaklidir”. Ushbu nazariy-falsafiy qarashidan kelib chiqib, tadqiqotchi S.Agzamxodjaeva badiiy-estetik idealning ma’naviyat bilan bog‘liq funksional xususiyatlarini: “1) olamni badiiy-estetik bilishga; 2) yon-atrofni hissiy-emotsional idrok etishga; 3) badiiy-estetik qadriyatlar yaratishga; 4) madaniy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga; 5) tarbiyaviy-kommunikativ vazifalarni bajarishga qaratilgan”, deb ko‘rsatadi.

Olimaning fikriga ko‘ra, “badiiy-estetik ideal shaxsiy va ijtimoiy pog‘onalarda sodir bo‘ladi. Ulardan qaysi birining ustunlik qilishini shaxsning badiiy-estetik ongi, hayotiy maqsadlari, borliqqa munosabatlari hal etgan. Ko‘pincha san’atning badiiy-estetik idealga aylanishi bevosita san’at orqali emas, balki ijtimoiy muhitdagi hukmron yondashuvlar, tarixiy-madaniy tajriba, did, qarashlar yordamida sodir bo‘lgan. Milliy an’analar, hayot tarzi badiiy-estetik didga ta’sir etmay qolmagan. Ayniqsa, diniy urf-odatlar, transsendental izlanishlar va qarashlar badiiy-estetik idealning shakllanishida muhim rol o‘ynagan”.

Etnomadaniyatning ma’naviy-estetik idealning shakllanishiga ta’sirini uchta pog‘onada qarash mumkin:

I. Etnoestetik ideal;

II. Milliy estetik ideal;

---

<sup>1</sup> Agzamxodjaeva S. Ижтимоий идеал ва маънавий ҳаёт. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. нашр., 2007. – Б. 9.

### III. Umuminsoniy estetik ideal.

Etnoestetik ideal etnomadaniyatdagi badiiy-estetik qadriyatlar, g'oyalar va tajribalarning umumlashmasi, kvintessensiyasi sifatida keladi. Tarixiy-madaniy paradigmaga tayanish, xalqning go'zallik, oliyjanoblik, ulug'vorlik, beg'uborlik haqidagi tasavvurlarini ifoda etish estetik idealning xususiyatidir. "Avvalo shuni aytish kerakki, estetik ideal inson, shaxs va jamiyatning estetik tajribasidan vujudga keladi. Inson dunyoni ana shu tajriba vositasida estetik idrok etadi. Shu sababli estetik ideal go'zallik, ulug'vorlik, mo'jizaviylik va boshqa estetik xususiyatlarni belgilovchi mezon sifatida yuzaga chiqadi. Inson ana shu idealga mos keladigan go'zallik yoki ulug'vorlikni tan oladi, mos kelmaydiganlarini esa aksil estetik hodisa sifatida inkor etadi"<sup>1</sup>. Agar yuqoridagi birinchi pog'onaga nazar tashlasak, etnoestetik ideal "sof" holda xalq eposlari – xalq kitoblari ("Qissai Mashrab") va xalq dostonlarida uchraydi. Chunki ushbu xalq ijodi namunalariidagi qahramonlar son-sanoqsiz dushmanlar bilan kurashda el, yurt, xalq manfaatlari uchun fidoyilik ko'rsatib, kerak bo'lsa, jonini ham qurbon qiladilar. Dramatik vaziyatlar, fojialar qahramonlar aqlini o'tkir, bilagini kuchli, e'tiqodini barqaror, qadamini, so'zini dadil, raqiblari ustiga tashlanishini shiddatli qiladi. Shu bois ham Alpomish o'zbek xalqi idealini ifoda etgan milliy qahramonga aylangan. "Alpomish dostoni o'zbekning milliy ruhiyatini ilg'ash va aks ettirish jihatidan o'xshashi yo'q estetik hodisadirki, asarning badiiy qatlamlariga, **qahramonlarning o'yi, niyati, maqsadi, amallariga** (ta'kid bizniki - ON) chuqurroq kirib borish millat ruhiy dunyosini teranroq anglash, uning bugungi o'zbek ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan jihatlarini tayin etish imkonini beradi"<sup>2</sup>.

O'zbek etnomadaniyatidan joy olgan "Alpomish" ajdodlarimizning ittifoqini kuylab, o'sha davr qarama-qarshiliklari, elatlarning orzu-tilaklari, ma'naviy olamini ifoda etsa-da, ular faqat tarixga, o'tmishga taalluqli tasvirlar bo'lib qolmaydi. Doston negizidagi falsafiy mohiyat kelajakka, keyingi avlodlarga yo'naltirilgan. Aynan ushbu mohiyat Alpomish qahramonliklariga singib, uni idealga aylantiradi. Biz uchun muhimi shundaki, Alpomishdagi jismoniy va ma'naviy etuklik uyg'unligi

<sup>1</sup> Шер А., Хусанов Б. Эстетика. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010. –Б. 98.

<sup>2</sup> Йўлдошев Қ. "Алпомиш" талкинлари. –Тошкент: Маънавият, 2002. –Б. 133.

(shakl va mazmun uyg'unligi), el-yurtga, vatanga fidoyilik, ulug'vor maqsadlar bilan yashash, pokdillik, juvonmardlik, do'stlik qadriga etish, ishq-muhabbatda sodiqlik, va'daga vafodorlik kabi go'zal va oliyjanob fazilatlar yoshlar uchun estetik, axloqiy ideal namunasi sifatida xizmat qiladi.

Nasriddin Afandi, Aldar ko'sa, Birbala kabi xalqimiz qahramonlari ham nopoklikka, bedillik, g'ofillik, ochko'zlik va axloqsizlikka qarshi kurashda ibrat namunalaridir. Ularni kishilardagi illatlarni beayov tanqid qilishi, laqma, bekas, shumniyat amaldorlar ustidan kulishi xalqimiz ruhini, idealini ifoda etadiki, aynan shuning uchun ham ular ideal obrazlar sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi. Ulardagi pokdillik, to'g'rilik g'oyat go'zal fazilatlardir. Ushbu fazilatlari tufayli ularning badiiy obrazlari etnomadaniyatimizdan joy olgan.

Etnoestetik pog'onadagi ideal, asosan, bir etnosga xos xususiyatlarni, fazilatlar va hayot tarzini o'zida mujassam etadi. U boshqa etnomadaniyatlardagi obrazlar bilan integratsiyaga kirishmaydi, etnomadaniyati doirasi bilan cheklanib qoladi. Bunday ideal, bir tomondan, tarixiy-madaniy o'zakni, yadroni saqlashga, asrashga xizmat qiladi. Bu, shubhasiz, muhimdir. Ikkinchi tomondan esa, u ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga xos bo'lgan integratsiyalashuvga, tajriba almashishga, innovasion o'zgarishlarga to'siq bo'ladi. O'zbek etnomadaniyatida birinchi pog'onada qotib qolgan, ayniqsa xalqimizning estetik idealiga aylangan obrazlar, tasvirlar, asarlar uchramaydi. Bu xalqimizga boshqa xalqlar va ularning etnomadaniyatlari bilan ijodiy aloqalarga, integratsiyaga kirishib yashash xos ekanidan dalolat beradi. Biroq nasionalizmni, millatchilikni qo'llab-quvvatlayotgan ayrim etnoslarda etnoestetik idealga (birinchi pog'ona) misollar etarlicha topiladi. Demak, birinchi pog'onadagi etnoestetik idealning mohiyatini to'g'ri ilg'ash, topish uchun uni kelgusi pog'onalarga qiyoslash zarur.

Ikkinchi pog'onadagi milliy estetik ideal: a) ma'lum bir etnos yoki millatning; b) ijtimoiy-siyosiy borlig'i umumiy bo'lgan barcha (eng avvalo titul) millat va elatlarning badiiy-estetik qadriyatlarini, tajribalarini, moddiy va ma'naviy boyliklarini ifoda etadi. Masalan, Alpomishni O'zbekistonda yashayotgan barcha elat va millat vakillari ham o'zining ideali sifatida qabul qilganini tasavvur etib bo'lmaydi. Alpomish titul



millat bo'lgan o'zbeklarning milliy qahramoni, milliy idealidir. Lekin Alisher Navoiy, ideal shaxs, ideal ijodkor sifatida nafaqat o'zbeklar, shuningdek, barcha qardosh va boshqa xalqlar uchun ham idealga aylangan. Go'ro'g'li o'zbek va turkman, Majnun o'zbek va ozarbayjon, Xizr musulmon, Xo'ja Nasriddin dunyo xalqlari asarlarida badiiy-estetik ideal, obraz sifatida tasvirlanadi.

Milliy estetik ideal etnosning, millatning badiiy-estetik qadriyatlarini, estetik qarashlari va didini, hayotni, yon-atrofini go'zallashtirish tajribalarini o'zida mujassamlashtiradi. Milliy estetik ideal etnos yoki millat badiiy-estetik olamining kvintessensiyasidir.

O'zbek etnomadaniyatidagi milliy estetik ideal:

– tarixiy-madaniy paradigmadan joy olgan xalq ijodi va san'atini qadrlash;

– xalq e'zozlaydigan badiiy-estetik qadriyatlarning realligiga ishonish;

– insondagi tashqi go'zallikni uning ichki axloqiy fazilatlarini orqali baholash;

– go'zal va oliyjanob xulqni, axloq-odobni, yuksak ma'naviyatni o'zining ijtimoiy fazilatlariga aylantirishga intilish;

– tabiatdagi go'zallikni, garmoniyani asrashga, ulardan zavqlanib, hayratlanib, o'zlari ham nafosat yaratishga intilib yashash;

– kishilararo munosabatlarning o'zaro murosaga, yordam berishga, umumiy garmoniyaga qurilishini istash;

– milliy estetik qadriyatlarga innovatsiya kiritish orqali ularga umuminsoniylik baxsh etish kabi fazilatlar va xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Ideal gipotetik obraz bo'lgani uchun uni ayrim olingan bir shaxsda uchratish qiyin. Gegel san'atdagi idealni "absolyut ruh"dan keltirib chiqarganida, qisman haq edi, chunki bunday ruhni topish ham, unga etish ham amrimaholdir. Shuning uchun ideal obrazlar, ulardagi pozitiv jihatlar, axloqiy-ma'naviy fazilatlar, orzu istaklar gipotetik tasavvurlarning yig'indisi, mag'zidir. Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Nizomulmulk ideal podshoh to'g'risida fikr yuritganlarida o'n-o'n ikki fazilatlarini behudaga keltirmaydilar. Bu bilan ular ideal rahbar, ideal shaxs bo'lish nihoyatda og'ir vazifa ekanini ta'kidlaydilar.

Idealni ko‘pincha tarixdan, o‘tmishdan qidiradilar. Zamondoshlar yonidagi buyuk iqtidor egalarini, oliyjanob fazilatli, go‘zal xulqli, bilimdon, har qanday yoshga ibrat namunasi bo‘la oladigan kishilarni ob‘ektiv baholayvermaydilar.

Estetik ideal qahramonlar obrazidagina emas, balki ijodda, san‘atkorlar yaratgan asarlarda, xalq etnomadaniyatidan joy olgan artefaktlarda, badiiy-estetik qadriyatlarda ham namoyon bo‘ladi. Yuksak mahorat va estetik did bilan yaratilgan, ezgu, oliyjanob g‘oyalar bilan sug‘orilgan, hayot murakkabliklarini ro‘y-rost tasvirlagan, kuylagan durdona asarlar shunday ideal bo‘lib ko‘rinadi.

Toshkentdagi Xalq amaliy san‘ati muzeyi ayvoni, Bahouddin Naqshband maqbarasi peshtoqlaridagi, Go‘ri Amir, Shohi Zinda, Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi va Tosh Hovli devorlaridagi naqshlar o‘zining serjiloligi va mukammalligi bilan ideal asarlar qatoriga kiradi. Bunday asarlarni tosh o‘ymakorligi, kandakorlik, kulolchilik, zargarlik, zardo‘zlik, gilamchilik, yog‘och o‘ymakorligi kabi xalq ijodi va san‘ati turlaridan ko‘plab keltirish mumkin. Ular betakrorligi, o‘zbek etnomadaniyati va etnoestetikasiga mosligi tufayli milliylik kasb etadi.

Ideal birinchi va ikkinchi pog‘onada qololmaydi, har qanday ideal mavjud borliqdan, yon-atrofdagi shablon, an‘analardan, hatto shakllangan maktablardan o‘zishga, Gegel iborasi bilan aytganda, “erkin badiiy faoliyat natijasi” bo‘lishga intiladi. Xullas, idealning eng muhim, bosh belgisi umuminsoniy qadriyatga, asrlar sinovidan o‘tib, tarixiy-madaniy paradigмага aylanganidadir.

Etnomadaniyatdagi asarlar, simvollar, obrazlar va artefaktlarning umuminsoniy estetik qadriyatlar, ideallarga aylanishi bir oyda, hatto bir yilda amalga oshadigan jarayon emas. Hattoki, bugun global kommunikasiya tizimi shakllangan bo‘lsa-da, u yoki bu etnomadaniy, milliy estetik idealni umuminsoniy pog‘onaga ko‘tarish oson sodir bo‘lmaydi. Bu o‘rinda etnomadaniyatlarga xos bo‘lgan “o‘zini asrash”, chetdan kelgan, begona simvollarni o‘zlashtirishga qarshilik ko‘rsatish mexanizmi xalaqit beradi<sup>1</sup>. Etnomadaniyatlar assimilyatsiyani hech qachon yoqtirmagan, balki ular ixtiyoriy-ijodiy integratsiya tarafdorlari bo‘lganlar. Shuning uchun ham etnomadaniyatlardagi differensial xususiyatlar hamon

---

<sup>1</sup> Клакхон К.К.М. Зеркало для человека. Введение в антропологию. – СПб.: Евразия, 1998. –С. 38-41.

o‘z ta‘sirini o‘tkazib keladi. Biroq asrlar sinovidan o‘tib, tarixiy-madaniy paradigmaga aylangan xalq ijodi va san‘atida umuminsoniy estetik idealga intilish mavjuddir. Bu intilish xalqlar, etnomadaniyatlar o‘rtasida qadimdan davom etib kelayotgan aloqalar, integratsiyalar ta‘sirida shakllanganki, uni eng despotik tuzum ham to‘xtatilmagan. Mazkur umumiy ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonuni etnomadaniy, milliy madaniyatlarni umuminsoniy idealga talpinishga undaydi. Etnomadaniyat va milliy madaniyatda umuminsoniy idealning qaror topishi ushbu talpinishning mahsulidir.

Estetik ideal:

- targ‘ibot va tashviqot;
- badiiy-estetik tarbiya;
- tajriba almashish;
- festivallar, simpoziumlar, ko‘rgazmalar uyushtirish;
- mutaxassislar tayyorlash;
- tadqiqotlar o‘tkazish;
- maxsus institutlar (Madaniyat saroylari, ijod uylari, san‘atkorlar uyushmalari va b.) tashkil etish;
- muzeylar, ijodkorlarning uy-muzeylarini ochish kabi rang-barang ma‘rifiy-ijodiy tadbirlar orqali shakllantiriladi.

Shuni esda tutish zarurki, estetik ideal ma‘naviy-axloqiy imperativlar ta‘sirida, ular bilan uyg‘unlikda shakllantirilganida pozitiv ahamiyat kasb etadi. Estetik ideal xalqning, shaxsning ijtimoiy-ma‘naviy kamolotiga xizmat qilganidagina o‘z funksiyasini bajaradi. Xose Ortega-i-Gaset yozganidek, “inson mudom insonligini yo‘qotish xavfi ostida yashaydi...” Insoniylikdan yiroq har qanday ideal insonni o‘zidagi pozitiv fazilatlarni yo‘qotishga etaklaydi. Ijod va san‘at tarixida bunday hollar ko‘p bo‘lgan. Demak, etnomadaniyat negizidagi gumanistik mohiyat estetik idealni shakllantirish uchun yagona asosdir.

### **Nazorat savollari**

1. Ideal tushunchasiga ta‘rif bering.
2. O‘zbek etnomadaniyatidan idealga misol keltiring.
3. Etnoestetik ideal, Milliy estetik ideal va Umuminsoniy estetik idealni bir-biridan farqi nimada?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. -274 b.
3. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
4. Jabborov I. O‘zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
5. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.

## **8-MAVZU. ISLOM DINI QADRIYATLARI: ILOHIYLIK VA INSONIYLIK UYG‘UNLIGI**

### **Reja**

1. Islom dinining xalqimiz hayoti va etnomadaniyatida tutgan o‘rni.
2. Islom dinidagi axloqiy-ma’naviy qarashlar, normalar.
3. Islomiy bayram-marosimlar

Islom dini xalqimiz hayoti va etnomadaniyatida beqiyos o‘rin tutadi. VII-XXI asrlar mobaynida u xalqimizni ma’naviy-ruhiy birlashtirib, uni o‘zining tarixiy-madaniy qadriyatlarini asrashga, tashqi tazyiqlarga jipslashgan holda qarshi turishga, xullas, xalq, millat sifatida o‘zligini, etnomadaniyatini saqlab qolishga yordam berdi. Bundan tashqari din inson ruhidagi bokiralikka, ulug‘likka va komillikka intilishni qo‘llab-quvvatlaydi, uni yon-atrofga, boshqalarga ana shu sifatlar ko‘zi bilan qarashga o‘rgatadi. Aynan dindagi ruhiy-ma’naviy qudratgina ushbu mangulikni bulg‘amasdan, buzmasdan saqlab qoladi.

Islomiy qadriyatlarda ilohiylik va insoniylik uyg‘unligi mujassam. “Islomda insoniylik xudo, Alloh, transsendent orqali ulug‘lansa-da, ilohiylik bilan insoniylik uyg‘un voqelik sifatida qaralishini rad etolmaymiz. Ba’zi o‘rinlarda Alloh, iloh, transsendent ustun qo‘yiladi, bu tabiiy hol, chunki bu barcha dinlarga xos xususiyatdir, aks holda islom faqat axloqiy ta’limot bo‘lib qolardi. Insoniylik islom dogmatikasining

tarkibiy qismidir, hatto uning yadrosidir. Qur’oni karimda ilgari surilgan g’oya, bildirilgan fikr insondan, uning ma’naviy-axloqiy fazilatlaridan tashqarida emas, barcha prinsiplari negizida inson hayoti, unda insoniy fazilatlarini qaror toptirish niyati yotadi”<sup>1</sup>. Shuningdek, hadislarda ham insoniylik va ilohiylik uyg’unligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Hadislarda tilga olinadigan masalalar doirasi behad keng, ko‘pdir. Ularning barini ochib berish uchun maxsus, keng tadqiqot o‘tkazish talab etiladi. Ularda qayd etilgan masalalar, hatto ularda goho diniy dogmatika ustun kelganda ham, insoniylik va ilohiylik uyg’unligi konsepsiyasiga qurilgan. Hatto ko‘p hadislarda insoniylik, dunyoviylik ustun turadi, biroq ular konseptual nuqtai nazardan yaxlit qaralganda islom dogmatikasiga – Allohning yagonaligi va Muhammad (s.a.v.) uning Rasuli ekanini tan olish, ya’ni tashahhud, namoz, ro‘za, zakot va haj rukniga bo‘ysundirilgandir. Shu nuqtai nazardan, ular teologik, din falsafasi ob’ektlari sifatida qaraladi”<sup>2</sup>.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, diniy qadriyatlarni tiklash borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Jumladan, «Qurbon hayit» va «Ro‘za hayit» bayramlari qayta tiklandi. Quyida hayit bayramlari yurtimizda qanday nishonlanganiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

**Qurbon hayiti** haj marosimi va qurbonlik qilish bilan, **Ro‘za hayiti** esa ramazon oyi mobaynida ro‘za tutish bilan bog‘liq diniy qadriyatdir. Qurbon hayiti hijriy zu-l-hijja oyining 10-13 kunlarida, Ro‘za hayiti esa shavval oyining 1-3 kunlarida bayram qilinadi. Keyinchalik islomiy diniy qadriyatlar (namozgohda ertalab jamoa bilan hayit namozini o‘qish, Ro‘za hayiti kuni fitr-sadaqa berish, Qurbon hayitida Alloh yo‘liga qurbonlik qilish) bilan mahalliy xalqlarning odatlari (shaklik, arafa kuni is chiqarish, osh ulashish, uzatilgan qiz xonadoniga yo‘qlov yuborish, hayit kuni yangi kiyim kiyish, «hayitlik» berish, marhumlar ruhiga duo-fotiha qilish, sayil qilish, bemorlar, keksa kishilar holidan xabar olish, «kelin salom» marosimi kabilar) aralashib ketgan.

**Shaklik an’anasi.** Ramazon oyining boshlanish sanasini oldindan aniq aytib bera olish mumkin bo‘lmagan zamonlarda musulmonlar yangi oy chiqishi mumkin bo‘lgan kunlarni shak, ya’ni, «ramazon oyi ekanligi

---

<sup>1</sup> Жуманиёзова Д.К. Шахс маънавиятининг шаклланишида инсонийлик ва илоҳийлик уйғунлиги: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. -Тошкент, 2019. -Б. 56.

<sup>2</sup> Жуманиёзова Д.К. Шахс маънавиятининг шаклланишида инсонийлик ва илоҳийлик уйғунлиги: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. -Тошкент, 2019. -Б. 68.

shak-shubhali» deb ataganlar. Agarda o'sha kuni yangi oy chiqsa - «ramazon oyi», chiqmasa - «shak» deyilgan. Shu tariqa xalqimizda shaklik marosimi paydo bo'lgan. Shaklik - ramazon oyidan oldin, ro'zaga sanoqli kunlar qolganida ota-onani, qarindosh-urug'larni, keksalarni, betoblarni, yaqin qo'ni-qo'shni, tanish-birodarlarni ziyorat qilish, ya'ni holidan xabar olish marosimidir. Ramazon oyi yaqinlashganida uy-joylar, hovlilar, darvoza oldilari yaxshilab tozalangan, eshik-derazalar yuvilib, toza pardalar osilgan. Shak kunlari dasturxon bezatilgan, darvozalar ochiq turgan. Keksalari bor xonadonlarga o'zgacha fayz kirgan, uzoq-yaqindan farzandlar, nabiralalar, qarindosh-urug'lar tashrif buyurganlar. Shaklikka kelganlar mezbonga ro'za kunlarida tanovul qilishi uchun yog'lik patirlar, qaymoq, meva-chevalar olib kelganlar. Mehmon va mezbonlar to'planishib, ramazon oyiga sog'u-salomat etkazgani uchun Allohga hamdu-sanolar aytishgan, shukrlar qilishgan. Ular ramazonning qaysi kuni kimning uyida iftor bo'lishini ham kelishib olishgan.

«Shaklik» o'zbek ayollarining axloqi va ruhiy ma'naviyatini yuksaltirishda tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. Chunki, birinchidan, shaklik kunlari uy, xonalar, hovli atroflari supirilgan, suv sepilgan turishi shart edi. Ikkinchidan, pishirilgan taomlar qarindosh-urug'larga, yon qo'shnilarga tarqatilgan. Uchinchidan, iftorlikka hozirlik ko'rish, zarur taomlar tayyorlash, kimsasiz kishilarga u yoki bu narsa (oziq-ovqat, kiyimlik va b.) ulashish ayollarimiz zimmasida bo'lgan.

**Iftorlik an'anasi.** Iftorlik-ramazon oyida uzoq-yaqin kishilar bilan «og'iz ochish» marosimi, diniy qadriyatdir. Ayollar ishtirokidagi iftorlikka odatda otin oyi, erkaklarnikiga imom, domla taklif etiladi. Iftorlikda ramazon oyi, ro'za haqida va boshqa axloqiy mavzularda suhbatlar uyushtiriladi. Odamlar iftorlik bahona diydorlashadi, shirin taomlardan tanovul qilib, hordiq chiqarib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga diniy ulamodan javob oladi. Bu kishilarning ma'naviy-ruhiy olamiga ijobiy ta'sir etmay qolmagan.

**Taroveh namozi.** Taroveh namozi faqat ramazon oyida ado etiladi. Erkaklar taroveh namozini odatda masjidida jamoa bilan, ayollar o'z uylarida tanho yoki biror xonadonda birgalashib o'qiydilar. Taroveh namozi 20 raka'at bo'lib, ikki raka'atda bir salom yoki to'rt raka'atda bir salom berish bilan o'qiladi. Ramazon oyida masjidlarda Qur'on xatm

qilinadi. Taroveh namozi o‘qilish davomida Qur’onni bir marta xatm qilish sunnatdir.

«**Laylat ul-qadr**» (Qadr kechasi). Yurtimizda «Laylat ul-qadr» kechasi odatda Ramazon oyining 26-dan 27-kuniga o‘tar kechasi kutiladi. Diniy manbalarga ko‘ra, bu kechada osmon farishtalari Jabroil alayhissalom bilan birga er yuziga tushib, mo‘min-musulmonlarga salom aytib, duolariga «omin» deb turadilar. Hadislarda «Laylat ul-qadr»ni Ramazon oyining oxirgi o‘n kunligining toq kunlarida kutish buyuriladi. Oisha raziyallohu anho: «Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Ramazonning oxirgi o‘n kunligida e‘tikofga o‘tirardilar va «Laylat ul-Qadrni Ramazonning oxirgi o‘n kunligida kutingiz!» -der erdilar», - deydilar.»<sup>1</sup> Diniy manbalarda Laylat ul-Qadr - taqdirni hal qiluvchi kecha sanalib, Alloh taolo shu tunni ibodat bilan, uyg‘oq o‘tkazgan har bir musulmonga gunohlaridan forig‘ bo‘lishga yordam beradi, deyiladi. Payg‘ambarimiz (s.a.v) hadislarida bu haqda shunday hikoya qilinadi: «Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladirlar: «Nabiy sallallohu alayhi vasallam: «Kimki Ramazonning farz ekanlig‘iga ishonib, unga ixlos qilib va uning savobidan umid aylab, ro‘za tutgaydir, ilgari qilgan gunohlarining barchasi kechirilg‘aydir va shuningdek, kimki Qadr Kechasini, uning ulug‘ligiga inonib, unga ixlos qilib va undan savob umid aylab, bedor o‘tkazg‘aydir ham, ilgari qilgan gunohlarining barchasi kechirilg‘aydir» - deganlar».

**Arafa an’anasi.** Qadimda hayit kunlariga ikki kun qolganida “yolg‘on arafa”, bir kun qolganida “chin arafa” nishonlangan. Yolg‘on va chin arafa kunlari har bir xonadonda “is chiqarilib” (“is chiqarish” odati aslida zardushtiylik diniga xos bo‘lib, islomga tegishli emas), bo‘g‘irsoq, qush tili, chalpak va boshqa turli pishiriqlar tayyorlangan. Chin arafa kuni iftorlikdan so‘ng odamlar bir-birlarini kelayotgan hayit bilan muborakbod etishgan, qo‘shni xonadonlarga turli pishiriqlar va palov (osh) tarqatilgan. Bu rasm-rusumlarga hozir ham amal qilinadi. Oila a‘zolari kimning oshi, pishirgan shirinligi eng mazali chiqqanligi haqida suhbatlashib, mahalla ayollarining pazandalik bobidagi mahoratlariga baho beradi. Shuning uchun ham ayollar arafa oshi va pishiriqlarini butun mehrlari va mahoratlari bilan tayyorlaydi. Yaqin orada qiz uzatganlar esa qudalari

---

<sup>1</sup> Ҳадис. 1-китоб. -Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. –Б. 543.

xonadoniga hayit yo‘qlovi (turli shirinliklar, pishiriqlar, palov (osh)) yuboradi.

**Hayit** - shodlik va xursandchilik bayramidir. Musulmonlar hayit kunlari ko‘ngil yozib, xursandchilik qiladilar. Hadisi Sharifda Hayit haqida shunday deyiladi: «Oisha onamiz rivoyat qiladirlar: «Huzurimga (otam) Abu Bakr kirdilar. Oldimda ikkita ansoriy cho‘ri qiz ansoriylarning «Buos» kuniga bag‘ishlangan baytlarini ashula qilib aytayotgan erdi. Lekin, ikkala cho‘ri qiz ham ashulachi ermas erdi. Shunda Abu Bakr Siddiq: «Shaytonning surnaylari (kelib-kelib) Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning uylarida chaling‘aydirmi?»-deb koyidilar. Bu voqea hayit kuni bo‘lgan erdi. O‘shanda Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: «Ey Abu Bakr, har bir qavmning o‘z bayrami bordir, bu kun bizning bayramimiz!»-degandilar».<sup>1</sup> Yana boshqa hadisda: «Oisha onamiz rivoyat qiladirlar: «...Bu voqea hayit kuni bo‘lgan erdi. O‘sha kuni sudanliklar nayzabozlik, qilichbozlik o‘yinlari ko‘rsatishgandi. O‘shanda, yoki men o‘zim Rasululloh sallallohu alayhi va sallamdan: «Ko‘rsam maylimi?»-deb so‘ragandim, yohud Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning o‘zlari menga: «Tomosha qilasanmi?» - degandilar. Shunda men: «Ha» - degandim. Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning orqalarida turib, tomosha qilgandim, yuzim yuzlariga shundoqqina tegib turgandi. Janob Rasululloh: «Ey Baniy Arfada, bo‘sh kelmangiz!»- deb xitob qilgan erdilar».

Hayit bayramida keksalar va bemorlar yo‘qlanadi, gado, beva-bechoralarga sadaqa beriladi, qurbonlik qilinib, is chiqariladi. Saharda katta-yu kichik erkaklar jome masjidlariga borib hayit namozi o‘qiydi. Namozdan so‘ng bolalarga, ota-ona, opa-singillarga shirinliklar va hayit sovg‘alari hadya etiladi.

Bugun hayit bayramlari istirohat bog‘larida, xiyobonlarda ommaviy sayillar orqali nishonlanadi.

**«Kelin ko‘rish»** («Kelin salom») marosimi nikoh to‘yidan so‘ng birinchi hayitni nishonlayotgan yosh kelinchaklarning mehmon kutish marosimidir. Hayit bayramiga bir necha kun qolganida uzatilgan qizning onasi va opa-singillari “is chiqarib”, turli pishiriqlar, shirinliklar tayyorlashgan. Yolg‘on yoki chin arafa kuni qiz kelin bo‘lib tushgan

---

<sup>1</sup> Ҳадис. Т. I. -Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. -Б. 259.



xonadonga «hayit yo‘qlovi» (pishiriqlar, shirinliklar) yuborilgan. Bu bilan qudalarini, kuyov va qizini hayit bayrami bilan qutlagan bo‘ladi. Yo‘qlovni qizning opa-singlisi, kelinoyisi yoki amma-xolalari olib boradi. Kuyov xonadonida «yo‘qlov» kelishiga maxsus tayyorgarlik ko‘rib, dasturxon bezatiladi. Chin arafa kuni kechqurun kelinning uyida yaqin qarindosh ayollar va qizlar yig‘ilib, yuksak mahorat va nozik did bilan «hayit dasturxonini»ni bezatadilar. Hayit kuni kelinchak erta tongda turadi, yangi libosini kiyib, boshiga harir mato tashlab, xonadon a‘zolariga birmabir ta‘zim-salom beradi, ularni dasturxonga taklif qilib, ta‘voze bilan choy uzatadi.

Ertalabdan qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, tanish-bilish ayollar va qizlar («kelin ko‘rish» marosimining ishtirokchilari faqat xotin-qizlar hisoblanadi) birin-ketin «kelin ko‘rgani» keladi. Kelinchak ularning har biriga alohida ta‘zim-salom beradi, ko‘rishib, dasturxonga taklif qiladi. U o‘z libosini tez-tez o‘zgartirib turadi, mehmonlar esa uning didiga baho qo‘yib o‘tiradi. Bundan tashqari, kelinchak nihoyatda shirinsuhan bo‘lishi, mehmonlarga tabassum bilan muomala qilishi, harakatlari nafis va chaqqon bo‘lishi lozim. Turmushga chiqmagan qizlar bu marosimdan dasturxonni qanday bezatishni, kelinchakning o‘zini qanday tutishi zarurligini, muomala madaniyatini o‘rganadi. Ayollar esa kelinchak bilan yaqindan tanishadi, o‘z kelinlik damlarini yodga oladi.

Ammo, o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilliklaridan boshlab «Kelin ko‘rish» marosimida «kim o‘zar» qabilida oshirib-toshirib «yo‘qlov»lar yuborish holatlari kuzatildi, buning natijasida ba‘zi bir oilalarda kelishmovchiliklar paydo bo‘ldi, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yildi, uch kun mobaynida tinim bilmay mehmon kutish va ularning har biriga egilib salom berish kelinchaklar (ayniqsa og‘iroyoq kelinlar)ning sog‘ligiga jiddiy xavf soldi. Shu bois, OAV, Yoshlar Ittifoqi tashkiloti, mahalla faollarining sa‘y-harakatlari bilan mazkur marosim so‘nggi yillarda ancha tartibga solindi. Jumladan, hayit kunlari yangi turmush qurgan yoshlar yurtimizning diqqatga sazovor joylari (Samarqand, Buxoro, Xiva)ga sayohatga yuborildi. Bugun «Kelin ko‘rish» marosimini kamdan-kam oilalar o‘tkazmoqdalar. O‘tkazilayotgani ham ixchamroq shaklda va faqat hayitning birinchi kunida bo‘lmoqda.

Urf-odat va marosimlar kishilar hayotini og‘irlashtirishga emas, balki uni go‘zallashtirishga xizmat qilishi zarur.

«Kelin ko‘rish»ning etnomadaniy mohiyati yosh kelinning pazandaligini, mehmon kutib, dasturxon bezatishini, uy tutishini ma‘naviy qadriyatlar asosida baholashdir. Marosim dasturxonidagi shirinlik va pishiriqlarni yosh kelinning o‘zi tayyorlashi talab etiladi. Hozir esa marosimdagi barcha nozu-ne‘matlar kelinning ota uyidan yuborilmoqda. To‘g‘ri, bu yosh kelinni og‘ir tashvishlardan xalos qiladi, lekin u marosim negizidagi ma‘naviy-tarbiyaviy ta‘sirni susaytiradi.

«**Hayit choyi**» marosimi Toshkent shahri va uning atroflarida ko‘zga tashlanadi. Uch kunlik hayit tugagandan so‘ng, to‘rtinchi kuni kelinning qarindosh-urug‘laridan 15-20 kishi chaqirilib, «Hayit choyi» marosimi o‘tkaziladi. Mehmonlar quyuq-suyuq taomlar, yoshlari va qarindoshlik jihatlariga qarab shirinlik va matolar bilan siylanadi.

«Hayit choyi» hayotimizga yaqinda kirib kelgan, xalqimiz etnomadaniyatidan chuqur o‘rin olmagan marosimlardan biridir. Hayit kunlari mehmon kutib charchagan kuyov tomon (ayniqsa kelinchak) to‘rtinchi kuni ham mehmon kutishga majbur bo‘ladi. Bu oila byudjetiga ham, yosh kelin sog‘ligi va kayfiyatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zini ko‘z-ko‘z qilishni, boyligini qaerga sarflashni bilmayotgan ba‘zi bir ayollarning o‘ylab topgan bu marosimini ma‘naviy oqlash qiyin.

**Amri ma‘rufga** ko‘ra har bir musulmon o‘z farzandlari va yaqinlariga islom dinini o‘rgatishi lozim. Bu xususda ham quyidagi mazmundagi hadis mavjud: -Vaqtiki, sizlardan dindosh birodarlaringiz nasihat qilishlikni talab qilsa, unga diniy ta‘lim berib, pandu nasihatlar qilinglar. Ammo, har bir ishning o‘z vaqti bor. Amri Ma‘ruf farz ekan deb, mashinalarda, choyxonalarda, dam olish joylarida yoki shunga o‘xshash boshqa joylarda emas, balki masjidlarda va shu kabi boshqa joylarda amri ma‘ruf qilish munosib ishdir.

Xalqimiz, kishilarimiz Alloh yo‘lida savob olmoqchi bo‘lsa, aza yoki to‘y munosabati bilan Amri Ma‘ruf o‘tkazgan. Shu tariqa u o‘zbek xalqi etnomadaniyatidan joy olgan. Bugun Amri Ma‘rufga o‘ziga xos diniy marosim, qadriyat sifatida qaralmoqda.

Ayollar Amri Ma‘rufi ularning diniy savodxonligini oshirish usuli hisoblangan. Unda islomiy-axloqiy ma‘ruzalar tinglangan. Hozirda esa

undan islomiy-ma'rifiy tadbirlar sifatida foydalanilmoqda. Shu bilan birga taraqqiyotga xavf solayotgan ekstremistik guruhlar namoyondalari ham Amri Ma'rufdan foydalanishga intiladi. Bizni fikrimizcha, ushbu oqimlar qo'ygan tuzoqqa faqat sodda, ishonuvchan, diniy bilimi, dunyoqarashi etarlicha shakllanmagan kishilargina tushadi.

**Mavlud** islom dini payg'ambari Muhammad (s.a.v.)ning tug'ilgan kunlarini bayram sifatida nishonlashdir.

Mavlud marosimida ko'pchilik qatnashadi. Keyingi yillarda Mavludni asosan ayollar o'tkazmoqdalar. Marosimda Muhammad alayhissalomning tarjimai hollari haqidagi «Mavlud» kitobi, shuningdek, Qur'on oyatlari o'qiladi.

**Xatmi Qur'on** biron kishining Qur'oni Karimni xatm qilgani munosabati bilan o'tkazadigan yig'inidir. Yigit-qizlar yakka holda yoki guruh bo'lib Qur'ondan saboq olganlar. O'qish yakunida saboq olgan yigit yoki qiz uyida ziyofat bergan.

**Aqiqa an'anasi.** Aqiqa marosimi farzand tug'ilganda shukronalik uchun o'tkaziladigan marosimdir. «Aqiyqa» lug'atda «yormoq» ma'nosini anglatib, aslida yangi tug'ilgan bolaning sochiga nisbatan qo'llangan. Shar'iy istilohda esa: «Aqiyqa – niyat va maxsus shartlar bilan, Alloh taologa shukr sifatida, farzand nomidan so'yilgan jonliqdir».<sup>1</sup> Shariat ta'limotlarida, tavalludining ettinchi kuni bolaning sochini olib, o'sha soch og'irligida kumush sadaqa qilmoq tavsiya qilinadi. Bu haqda quyidagi hadis mavjud: «Har bir yangi tug'ilgan bola tavalludi munosabati bilan etti kunligida sochi olinib, ism qo'yilib, o'tkaziladigan aqiqa marosimi bilan garov qilingandir».

Har bir diniy qadriyat insonda, eng avvalo, Alloh, keyin esa oilasi, farzandlari oldida ma'naviy javobgarlik, mas'ullik hissini shakllantirgan. Islom dinidagi axloqiy-ma'naviy qarashlar, normalar insonda poklik, to'g'rilik, ezgulik, insonparvarlik kabi ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgani sababli xalqimiz etnomadaniyatidan chuqur joy olgan.

Quyida islom dinidagi bir nechta asosiy tushunchalarga to'xtalib o'tamiz:

---

<sup>1</sup> <https://islom.uz/maqola/13059>

**Ibodot** (arabcha - qulluq qilish, bo‘ysunish, o‘zini past olish, itoat qilish) xudoga sig‘inish, iltijo qilishning amaliy ifodasi. Ibodat Allohni ulug‘lash uchun uning amriga binoan amal qilishdir. Ayni paytda, ibodat Alloh yoqtiradigan va rozi bo‘ladigan so‘zlar, ishlar va zohiriy hamda botiniy amallardir. Oddiy fuqarolar nazdida namoz, ro‘za, haj, zakot, qur‘on qiroati, zikr, hayri sadaqa kabi narsalar ibodat hisoblanadi. Shu ma‘nodagi ibodat jismoniy, moliyaviy va jismoniy-moliyaviy ibodatlarga taqsimlanadi. Jismoniy ibodatga namoz, ro‘za kabilar kiradi. Moliyaviy ibodatga zakot, sadaqai fitr kabilar kiradi. Jismoniy-moliyaviy ibodatga haj, umra kabilar kiradi (Islom ensiklopediyasi. – T.: 2004, -103 b.)

Islomda shar‘iy ahkom (arab. hukmning ko‘pligi, islom dinidagi tushuncha, amallar) sakkizta – *farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh, harom, makruh, mustakrah*.

**Farz** Alloh taolo tomonidan buyurilgan, bajarilishi shart bo‘lgan amallar. Uni bajargan kishi savobga erishadi, bajarmagan gunohkor bo‘ladi, bajarish zarurligiga ishonmagan odam kofir va imonsiz sanaladi.

**Vojib** amallarni ham bajarish shart, bajarmaslik gunoh, ammo bajarmagan kofir yo imonsiz sanalmaydi.

**Sunnat** – Muhammad (s.a.v.)ning qilgan amallari. Ularni bajarish savob, bajarmaslik gunoh emas, ammo qiyomatda Muhammad (s.a.v.)ning shafaotiga muyassar bo‘lmaydi, deyiladi.

**Mustahab** - Muhammad (s.a.v.)ning ba‘zan bajargan va ba‘zan bajarmagan amallari bo‘lib, ularni qilishning savobi bor, qilmasa gunoh sanalmaydi, qiyomatda ham malomatga qolmaydi.

**Muboh** – qilsa-qilmasa savob yo gunoh orttirmaydigan amal sanaladi.

**Taqiqlanuvchi amallar.** Ularga harom, makruh, mustakrahlir kiradi. Harom, makruh va mustakrah yuqoridagi amallarning qarama-qarshisidir. Harom islom shariatida qat‘iy taqiqlangan, man etilgan amal bo‘lib, uni qilgan odam qattiq gunohga botadi. Haromni halol degan kishi kofir va imonsiz sanaladi.

**Makruh** amallar ham islomda taqiqlanadi va uni qilgan odam kofir yo imonsiz sanalmasa-da, gunohga botadi.

**Mustakrah** amallarni bajargan odam esa gunohga botmasada, qiyomatda azoblanishi mumkin, deyiladi.

Xulosa shuki, islomiy diniy qadriyatlar o‘n uch asrdan beri o‘zbek xalqining ma’naviyatini shakllantirib keladi. Shu davrda islom dini inson ruhiga, qalbiga, ongiga ta’sir etuvchi marosimlar, bayramlar, urf-odat va rasm-rusumlarni - qadriyatlarni yaratdi. Ushbu ma’naviy-axloqiy qadriyatlardagi insonparvarlik, kishilar bilan ahil yashash, pokdillik, mehnat qilib kun ko‘rish, ilmu ma’rifatga intilib yashash, ajdodlar tajribasiga, pand-nasihatlari va hayot tarziga hurmat bilan qarash kabi umuminsoniy hamda milliy g‘oyalardan samarali va ratsional foydalanish lozim.

### **Nazorat savollari**

1. Islom dinidagi axloqiy-ma’naviy qarashlar?
2. Qanday diniy bayram-marosimlarni bilasiz?
3. Islom ta’limotida farz va fojibni farqi nimada?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Islom va hozirgi zamon: o‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir Sh.Yovqochev. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 207 b.
2. Masharipova G. Dinshunoslik -Toshkent: Navro‘z, 2020.
3. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. Darslik / Mas’ul muharrir akad. Ibrohimov N.I. – T.: Mehnat, 2004. – 296 b.
4. Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. –Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, 2009. 5,5 b.t.
5. Hasanov A., Komilov M., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q., Islom tarixi. Darslik. – T.: «Toshkent islom universiteti» matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.

## **9-MAVZU. O‘ZBEK ETNOMADANIYATINING O‘ZIGA XOS KO‘RINISHLARI**

### **Reja**

1. O‘zbek xalqining oilaviy va maishiy hayot tarzi va axloqiy-ma’naviy tarbiya usullari.
2. Og‘zaki ijodi, ommaviy bayramlar va tomoshalarda ishtiroki.

3. Amaliy san'ati, pazandachilik san'ati, dam olish va hordiq chiqarish usullari.

4. Ijtimoiy, siyosiy, huquqiy qadriyatlari. Tarixiy-madaniy tajribalarni asrashi.

5. Ilm-fanga va dindagi gumanistik g'oyalarga e'tiqodi. Zamonaviy ijod turlarida ishtirok.

O'zbek etnomadaniyatining o'ziga xos ko'rinishlari xalqimizning:

I. O'rta Osiyo jug'rofiy muhitiga mos xo'jalik-madaniy tiplari;

II. Oilaviy va maishiy hayot tarzi;

III. Axloqiy-ma'naviy tarbiya usullari;

IV. Og'zaki ijodi;

V. Ommaviy bayramlar va tomoshalarda ishtiroki;

VI. Amaliy san'ati;

VII. Pazandachilik san'ati;

VIII. Dam olish va hordiq chiqarish usullari;

IX. Ijtimoiy, siyosiy, huquqiy qadriyatlari;

X. Tarixiy-madaniy tajribalarni asrashi;

XI. Ilm-fanga va dindagi gumanistik g'oyalarga e'tiqodi;

XII. Zamonaviy ijod turlarida ishtiroki kabi ijtimoiy-madaniy faoliyatlari orqali aniqlash, ochib berish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, mazkur faoliyatlarni aksariyatida xotin-qizlarni tutgan o'rni katta. Turk xotin-qizlarining ijtimoiy hayotdagi o'rni va huquqi haqida L.N.Gumilyov quyidagilarni yozadi: "Xunlar o'sha davr fransuzlari, gotlari, arablari, slavyanlari va greklaridan ilg'or ham, orqada ham emas edilar. Ularning ijtimoiy hayotida va siyosatida xotin-qizlar faol ishtirok etgan, bu erda xotin-qizlar Xitoy, Hindiston va Erondagi kabi kamsitilmagan edi, bu turkiy qabilalarda xotin-qizlar huquqi baland edi." Qabila hayotida muhim o'rin egallagan ayollar ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi va institutlashtiruvchi madaniy-xo'jalik tiplarini yaratdilar.

"Barcha aholi, - deb yozadi Iso Jabborov, - umumiy xo'jalik-madaniy tiplarga ega. Mintaqamizning tabiiy-geografik sharoiti ularning nafaqat xo'jalik faoliyatini, balki milliy-madaniy xususiyatlarini ham qisman belgilab beradi." Ammo ushbu xususiyatlarning muqim shaklga

kirishi ayolning oilada “o‘choq boshi”, “uy bekasi” bo‘lishi bilan bog‘liqdir. To‘g‘ri, ilk ijtimoiy-tarixiy bosqich-matriarxada bunday funksiyani erkaklar bajargan, biroq asrlar o‘tishi va ayolning xo‘jalik-madaniy tiplarni yaratishga bosh-qosh bo‘lishi bilan insoniyat sivilizatsiyaga qadam qo‘ygan. Shuning uchun “Sivilizatsiya tarixi ayol o‘zining nimaga qodir ekanligini sezganidan keyin boshlanadi. Ungacha odamlar yovvoyi tabiatning bejilov istaklariga bandi yashaganlar.”

Xo‘jalik-madaniy tiplari bilan oilaviy va maishiy hayot tarzi bir-biriga bog‘liqdir. Agar xo‘jalik-madaniy tiplari o‘troq yoki ko‘chmanchi hayot, dehqonchilik, chorvachilik yoki kosiblik, hunarmandchilik kabilar bilan belgilansa, oilaviy va maishiy hayot tarzi yaratilgan moddiy hamda ma‘naviy boyliklardan foydalanish xususiyatlari, amal qilinadigan oilaviy an‘analarda namoyon bo‘ladi. Tarixiy va etnografik manbalar ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqi uy, turar joyini ozoda, saranjom-sarishta tutish, idish-tovoqlarni o‘z mo‘ljaliga qarab ishlatish, dasturxonda eyiladigan narsalardan boshqa narsalar (qaychi, bigiz va h.k.) turmasligi, oila a‘zolari yig‘ilganidan keyin dasturxon solish, ovqatlanish, ostonada iflos chelak, supurgilarni qo‘ymaslik, hovlini erta tongda suv sepib, supirish, unga axlat, oqova to‘kmaslik, erkakka birinchi bo‘lib salom berish, yoshi kattalarni sizlash, ularni gapini bo‘lmaslik, suhbatlashayotgan kishilarning gap-so‘zlariga yashirin quloq tutmaslik kabi maishiy-etnomadaniy qadriyatlarga qat‘iy amal qilgan. Oilaviy munosabatlarni A.Fitrat, «Bani Odam madaniyatining asosi», «manzil tadbiri (ro‘zg‘or tebratish tadbiri)»ni esa oila ahil, tinchlikda yashash sharti deb atagan. Axloqiy-ma‘naviy tarbiya «odamning fe‘lu huyi va harakatida yaxshi fazilatlarni shakllantirmoq demakdir.

O‘zbek xalqi jamiyatdagi islohotlarning ma‘nisini oilasi va farzandlari tarbiyasi bilan o‘lchaydi. Axloq, odob ular uchun asosiy komillik, madaniyat o‘lchovidir. Anbar Otin yozadi:

Ulg‘ayursan, senda bor bo‘lsa adab,  
Ulg‘ayursan, senga yor o‘lsa adab,  
Odam ersang, tashqi surata berma zeb,  
Ona yurtningni hamisha ayla zeb.

Demak, xalqimiz komillikni faqat o‘z oilasi va farzandlari bilan cheklab qo‘ymaydi, u ona yurti taraqqiyotini ham o‘ylaydi. Shu nuqtai

nazardan u farzandlarining axloqiy-ma'naviy tarbiyasini mehnat, ijtimoiy-siyosiy faollik, vatanparvarlik, el-yurt istiqboli uchun yashash kabi fazilatlar bilan bog'laydi. Mustaqillik yillarida bu xislatlar o'zbek xalqi madaniyatining asosiy belgilariga aylandi.

Og'zaki ijod turlarida har bir xalqning, ijtimoiy guruhning dunyoga, tuzumga, o'zgarishlarga o'ziga xos munosabatlari aks etadi. Xalqimiz jamiyatdagi o'zgarishlarga tez va ziyraklik bilan javob beradilar. Ular yaratgan allalar, maqollar, qo'shiqlar, ertak va afsonalar, o'zlari qahramoni bo'lgan dostonlarda o'zbek etnomadaniyatining muhim jihatlari badiiy-falsafiy tasvirlarda o'z aksini topgan.

Xuddi shuningdek, o'zbek (O'rta Osiyo) xalqi qadimdan o'z bayram va tomoshalariga ega bo'lgan. U.H. Qoraboevning yozishicha, «...xotin-qizlar bayrami O'rta Osiyoda qadimdan onalik urug'i hukmronligi (matriarxat) davrida ham bo'lgan ekan. Ma'lum bo'lishicha, bahor arafasidagi oy-«isfandarmo'z» deb nomlanib ayollar oyi hisoblangan. Shu oyning beshinchi kuni esa ayollarning eng katta bayrami hisoblangan.» Shu munosabat bilan olim qiziqarli xulosaga keladi. «Biroq u o'rta asrlarga kelib, ko'pgina qadimiy bayramlar kabi yo'qolib ketgan. XX asr boshida Yevropada vujudga kelgan xalqaro xotin-qizlar kuni, bizga yana o'sha qadimiy bayramimizni qaytardi, desak mubolag'a bo'lmaydi.»

O'zbek xalqi etnomadaniyatida amaliy san'at alohida o'rin egallaydi. San'at, ayniqsa amaliy san'at xalqning olamni idrok etish va o'zgartirishga bo'lgan intilishlarini yorqin aks ettiruvchi ijodiy-madaniy faoliyat turidir. O'zbek xalqining kashtachilik, do'ppichilik, tikuvchilik, pazandachilik kabi an'anaviy ijod turlarida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, buxoro kashtachiligida sariq (tillo) va oq (kumush) iplarning yirik naqsh kompozitsiyalari ko'zga tashlansa, Xorazm kashtachiligida jun yoki oddiy iplarda mayda gullar aks ettiriladi. Samarqand va Farg'ona pazandachiligida dorivorlar, meva-chevalar, sabzavotlar rang-barangligi ko'zga tashlansa, Xorazmliklar va qoraqalpoqliklarda asosan go'sht, yog'ni ko'proq ishlatish kuzatiladi. Xorazm va Qoraqalpog'istonda «ijjon» (maydalangan xom go'sht), Qashqadaryoda tandir kabob sevimli ovqat sanalsa, Farg'onada osh (choyxona oshi), Toshkent viloyatida qazili norin taomi an'anaga aylangan. O'zbek xalqida ushbu pazandachilik ko'rinishlari shunchaki qorin to'yg'azish ehtiyojigina emas, ular alohida



san'at darajasiga ko'tarilgan va har bir hudud etnomadaniyatining tarkibiy qismiga aylangan faoliyat turlaridir.

O'zbek xalqida o'ziga xos rekreativ dam olish va hordiq chiqarish usullari bor. To'g'ri, dam olish va hordiq chiqarish millati, hududi, jinsi hamda kasb-koridan qat'iy nazar barcha insonga taalluqli voqelikdir. Biroq ularni o'tkazish usullari nafaqat millatlar, xuddi shuningdek, ijtimoiy guruhlar, kasb-kor egalari, hatto jinlarda har xildir. Masalan, O'rta Osiyo xalqida g'azalxonlik kechalari o'tkazish an'ana bo'lgan. Unda asosan she'riyatdan, badiiy so'z san'atidan xabardor bo'lgan kishigina qatnashgan. «Sust xotin» marosimi esa barchaga mo'ljallangan. Demak, xalqning dam olish va hordiq chiqarishga qaratilgan an'analarda tor doira (maxsus tayyorgarligi bor) va keng doira, barcha xalq qatnashishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ko'zga tashlanadi. Bunday xususiyat o'zbek xalqi etnomadaniyatining boshqa ko'rinishlarida ham uchraydi.

Etnomadaniyatning «tarixiy-etnografik va etnik tuzilishi qancha barqaror bo'lmasin mazkur etnoslar vaqt hukmi bilan doimo rivojlanib, o'zgarib turgan.» Etnos bilan birga, tabiiy ravishda, uning etnomadaniyati ham transformatsiyaga uchragan, modernizatsiyalashgan. Ijtimoiy-madaniy hayotimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'zbek xalqini ijtimoiy, siyosiy va huquqiy sohalarda o'ziga xos an'analari, turmush tarzi, qarashlar, faollik turlarini yaratishga undamoqda. Masalan, o'zbek xalqining bugungi ishbilarmonlik va tadbirkorlik harakatlarini olaylik. Bu o'rinda o'zbek xalqi jahon xalqining ijtimoiy faollik borasidagi ijobiy tajribalarini o'rganib, o'z imidji (ishbilarmonlik va tadbirkorlik madaniyati)ni yaratmoqda. Unga aqliy salohiyat, bilimdonlik, qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish layoqati, ijodiy yondasha olish, tadbirkor muomala madaniyati, turli toifa, jins va yoshdagi kishilarga fikrini tushuntira bilish, kuchli iroda egasi, o'z «men»iga xos fazilatlarini namoyon etish, talabchanlik, qat'iyat, ruhiy tetiklik, salomatlik zarur.» Ushbu tadbirkorlik madaniyati zamonaviy o'zbek xalqining hayotiy ko'nikmalariga aylanishi lozim. Bu o'rinda etnomadaniyat bilan zamonaviy madaniyat uyg'unlashib, o'zbek xalqida yangi umuminsoniy, umumplanetar qadriyatlarning shakllanishiga olib keladi. Siyosiy, huquqiy sohalarda ham shunday transformatsion va modernizatsion o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Aholi qatlamlari ichida ko‘proq ayollar tarixiy-madaniy tajribalar - an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar, to‘y-yu tomoshalar va marosimlarga to‘la amal qilish, ularni asrash uchun jon kuydiradi. Buni o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan barqarorlikni asrash, oilani mustahkamlash, farzandlar sog‘-salomatligi va baxt-saodatini o‘ylash, topganini oilasiga sarflash, muhosada yashash uchun o‘z qiziqishlari, hatto huquqidan voz kechish kabi psixologik xususiyatlar bilan izohlash mumkin. To‘g‘ri, bular, eng avvalo, kishilararo, shaxslararo munosabatlarning shakllanish xususiyatlari bilan belgilanadi, biroq ularda jinsiy-psixologik omillar ta’siri borligini inkor etish mumkin emas.

O‘zbek xalqida tarixiy-madaniy tajribalarga tayanish va ularni asrash etnomadaniy xususiyatdir. Hatto urushlar, inqiloblar, qayta qurishlar davrida ham ular ushbu etnomadaniy xususiyatlarini yo‘qotmadi. Eng muhimi ushbu belgilar ulardagi umuminsoniy-axloqiy fazilatlar, diniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib keladi. Shuning uchun ularga xalqimiz tarixiy-madaniy qadriyatlariga mos hayo (ibolilik, iffatlilik, nomuslilik), axloq (poklik, andisha, bosiqlik, kamtarlik, samimiylik, soddalik, to‘g‘rilik, uyatchanlik, xushmuomalalik, yuvvoshlik), bardosh (sabr, qanoat, chidam), vafo (sadoqat, mehr-oqibat, vafodorlik), latofat (lobarlik, dilbarlik, nazokat, nafislik, xushsuratlik), bolajonlik (serfarzandlik, bolaparastlik), sha’n (g‘urur, oriyat), mehnatsevarlik, fidoyilik, chaqqonlik, mehmondo‘stlik, vatanparvarlik kabi xislatlar xosdir. Demak, axloqiy-ma’naviy xislatlar o‘zbek xalqi etnomadaniyatining asosiy qismi, hatto negizi hisoblanadi. Aslida axloqiy-ma’naviy belgilersiz etnomadaniyat yo‘q, biroq ular har bir xalq va ijtimoiy qatlamlarda o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Ilm-fanga, diniy qadriyatlarga qiziqish ham o‘zbek xalqiga xos xislatlardir. «Barcha yirik dinlar va diniy-e’tiqodiy oqimlarning asoschilari erkaklardir. Biroq, ular o‘z e’tiqodlarining tarqalishi, eng avvalo ayolga bog‘liq ekanini tushunganlar. Iso payg‘ambar xristianlikni targ‘ib qilishdan oldin, unga o‘z onasi Bibi Maryamni, Muhammad payg‘ambar esa o‘z rafiqasi Xadichani imonga keltirganlar. Gautama (Sakna Muni) ibodatxonalarida ko‘plab ayollar yashagan va ular buddizmning yoyilishida katta rol o‘ynagan.»

Etnomadaniyat mutlaq shakllangan, o'zgarmas voqelik emas, u jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy jarayonlar ta'sirida, kishilarning ma'naviy, madaniy, ruhiy ehtiyojlari, qiziqish va talablari ta'sirida transformatsiyaga uchraydi, o'z manfaatlariga mos innovatsiyalarni qabul qiladi. O'zbek etnomadaniyatida esa u zamonaviy san'at turlari - estrada musiqasi, tasviriy san'at, xor san'ati, texnika ijodiyoti, turizm, fizkultura va sport, askiyabozlik, sirk san'ati kabilar bilan shug'ullanishda ko'rinadi. Ushbu innovatsiyalar o'zbek xalqi etnomadaniyatini dam olish va hordiq chiqarish, ijodiy-madaniy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan yangi, noan'anaviy ijod turlari bilan boyitmoqda.

### **Nazorat savollari**

1. Xo'jalik-madaniy tiplari nima?
2. Amaliy san'atning qanday turlari bor?
3. Qanday zamonaviy ijod turlarini bilasiz?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. -274 b.
3. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
4. Jabborov I. O'zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
5. Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. –Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, 2009. 5,5 b.t.
6. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.
7. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. T.1. -388 b.
8. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. T.2. -285 b.

## **10-MAVZU. OILAVIY-MAISHIY MAROSIMLARNING KONVENSIONAL (ETNIK VA MILLIY) ASOSLARI**

### **Reja**

1. Oilaviy-maishiy marosimlarning ijtimoiy funksiyasi.
2. O‘zbeklarga xos etnomadaniy va etnopsixologik xususiyatlar.
3. Oilaviy-maishiy marosimlarda umumetnik (milliy), sinfiy va shajaraviy (oilaviy-nasliy) an’analar dialektikasi.

O‘zbek xalqi etnomadaniyatida nafaqat tarixiy-madaniy an’analar, shu bilan birga, bugungi yoshlar ma’naviyatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-tarbiyaviy tajribalar ham mavjudki, ulardan samarali foydalanish milliy mafkuramizni badiiy-emotsional va ommaviy vositalar bilan boyitadi. Buning uchun esa etnomadaniy an’analarni milliy g‘oya maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish, jamiyat taraqqiyoti kun tartibiga qo‘yayotgan vazifalarga yo‘naltirish, hatto o‘zgarib borayotgan dunyo talablariga muvofiq modernizatsiyalash zarurdir.

O‘zbek xalqi etnomadaniyatining eng muhim qismi bo‘lgan oilaviy-maishiy marosimlar bir-biriga dialektik bog‘liq ikki yo‘nalishda ijtimoiy borlig‘imizga ta’sir ko‘rsatmoqda. Birinchisi, oilaviy-maishiy marosimlardan tarixiy-madaniy meros sifatida foydalanish, ikkinchisi, ulardagi transformatsiya, novatsiya va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash (zamonaviylashtirish)dir.

O‘zbek ayollari ijtimoiy-tarixiy va ma’naviy-diniy omillar ta’sirida oila, farzandlar tarbiyasi, maishiy turmush bilan mudom band bo‘lib kelgan. Oilaviy-maishiy hayotni tashkil etish, boshqarish, uni xalqimiz mentaliteti va an’analariga, intilishlariga xos tarzda shakllantirish ayollarimiz zimmasiga tushgan. Farzand tug‘ish bilan bog‘liq psixofiziologik hollar ayollarni dunyoga eng yaqin kishilari - farzandlari, eri, nevaralari, qarindosh-urug‘lari orqali qarashga o‘rgatgan. Ayniqsa, ketma-ket farzand tug‘ish, tabiiy ravishda, ayolni oilaga, uy muhitiga bog‘lab qo‘ygan. Bu esa ayollarda erkaklarnikidan farq qiluvchi axloqiy tushunchalarni, oilaviy-maishiy hayotdagi barqarorlikni ta’minlovchi urf-odatlar, marosimlar, an’analarni yuzaga keltirgan. Shuning uchun oilaviy-maishiy marosimlarning tashkilotchilari, avlodlardan avlodlarga eltuvchilari, asosiy ishtirokchilari – sub’ektlari ayollardir.

Oilaviy-maishiy marosimlar ijtimoiy-funksional nuqtai nazardan: a) oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga; b) yoshlarni oilaviy-maishiy hayotga o'rgatishga; v) yangi oila qurishga; g) sog'lom farzandlar tarbiyalashga; d) dam olish va hordiq chiqarishga; e) qarindosh-urug'chilik an'analarini davom ettirishga qaratilgandir. To'g'ri, oilaviy-maishiy marosimlar oilaning xo'jalik yuritish, reproduktiv vazifalari, oila a'zolarining sog'ligini saqlash kabi funksiyalari bilan ham bog'liqdir. Aristotel oilaning rang-barang va murakkab munosabatlardan iboratligini nazarda tutib, uni «davlatning bo'lagi» deb atagan. Shuning uchun oilaviy-maishiy marosimlar davlat va oila hayotining barcha qirralari bilan bog'liq holda transformatsiyaga uchraydi. Bizning fikrimizcha, ushbu qirralar oilaviy-maishiy marosimlarning yuqoridagi ijtimoiy funksiyalarida etarli darajada o'z aksini topadi.

O'zbek xalqiga xos etnomadaniy va etnopsixologik hodisalardan biri bolajonlikdir. Shuning uchun u bolaning otasi «pushti kamaridan ona rahmiga o'tgan»idan boshlab turli oilaviy-maishiy marosimlar o'tkazib keladi. Ularga «Suyunchi», «Cho'miltirish», «Ism qo'yish», «Beshikka solish», «Beshikkertti», «Qovurdoq», «Chalpak pishirish», «Yupqa pishirish», «Aqiqa», «Chillagizoron», «Tirnoq oldi», «Beshik to'yi», «Soch to'yi», «Tish chiqdi», «Ilk qadam», «Sunnat to'y», «Muchal yoshi», «Nikoh to'yi» kabi marosimlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, faqat ayollarimizga xos bo'lgan "Namozshom pardozi", "Xalfana", "Ayollar gapini", "Ayollar xashari", o'zbek qizlariga oid "Arg'imchoq uchish", "O'sma qo'yish", "Soch o'rish", "Xina qo'yish" kabi marosimlar ham mavjud.

**"Suyunchi"** aytishda xalqimizning etnomadaniy xususiyatlari o'z aksini topadi. Masalan, "Suyunchi" keltirgan odam xabari kishilarga qanday ta'sir qilishini, xabar kimga - qari yoki yosh, ayol yoki erkakka mo'ljallanganini, ular xabarga qanday munosabat bildirishlari mumkinligini oldindan taxmin qilishi kerak bo'lgan. Badxabar keltirganni xalqimiz yoqtirmagan, xushxabar keltirganni siylagan, aziz mehmon deb qarshilagan. Natijada, uzoq rivojlanish jarayonida xabar etkazish o'ziga xos ruhiy-ma'naviy voqeaga aylangan. Xabar xasta yo keksa (buvi, buva)larga yuborilgan bo'lsa, gapni uzoqdan, his-hayajonga berilmay, o'ta bosiqlik bilan boshlangan. Bundan tashqari, xabarning yangiligi, qancha

kutilgani, xushxabar yoki badxabarligi ham hisobga olingan. Xabarchini taqdirlash, suyunchi berish vazifasini asosan ayollar bajargan.

**Cho‘miltirish marosimi.** Go‘dakni birinchi marta "cho‘miltirish" marosimida xonadondagi katta-kichik ayollarning barchasi ishtirok etgan. Go‘dak cho‘miltiriladigan tog‘oraga "rizqi mo‘l bo‘lsin" degan niyatda tanga, suvga "ko‘z tegmasin" degan niyatda qaynatilgan isiriq suvi (keyingi cho‘miltirishlarda badani yara-chaqa bo‘lmasin, terisi sog‘lom bo‘lsin, degan niyatda suvga tuz, toza tuproq) qo‘shilgan. Marosimga ko‘pni ko‘rgan, kayvoni ayol boshchilik qilgan. Chaqaloqni onasi yoki buvisi qo‘liga olib, "bismilloh" aytib, iliq suvga solgan. Ayollardan biri suv quyib turgan, u har suv quyganida atrofdagi ayollar «boshing toshdan bo‘lsin», «umring uzoq bo‘lsin» kabi ezgu niyatlarini bildirishgan. Suvni avval chaqaloqning boshidan, keyin o‘ng elkasi, so‘ngra chap elkasiga quyishgan. Bu «Alloh avval insonni boshini yasagan, insonni ikki elkasida ikki farishta o‘tiradi, Alloh har bir ishni o‘ng tomondan boshlashni buyuradi», degan tasavvurlarni anglatgan.

**"Ism qo‘yish" marosimida** xalqimizning bosib o‘tgan ziddiyatli tarixiy yo‘li, orzu-umidlari, armonlari, falsafiy, diniy, ma‘naviy-axloqiy, tarbiyaviy-estetik qarashlari, insonga bo‘lgan hurmat-ehtiromi, farzandiga qaratilgan mehr-muhabbati o‘z ifodasini topgan.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqqa munosib ism topilgach, qarindosh-urug‘lar yig‘ilib, marosimga tayyorgarlik ko‘rgan. Farzand ko‘rgan ayol bayramdagidek yasangan, chaqaloq ham yangi, chiroyli matolar bilan yo‘rgaklangan. Qarindosh ayollar turli xil pishiriqlar pishirgan, dasturxon bezatib, taniq taomlar tayyorlashgan. Imom, domla yoki go‘dakning bobosi chaqaloqning o‘ng qulog‘iga azon va chap qulog‘iga takbir aytgan, so‘ngra chaqaloqni qo‘liga olib, uch marta «sening isming falonchi» deb aytgan. Shundan so‘ng atrofdagilar ona-bolani qutlab, ular boshidan shirinliklar sochishgan, o‘yin-kulgu qilishgan. Ayollarimiz dasturxon atrofida go‘dak tarbiyasiga oid suhbatlar uyushtirishgan. Hozir bu marosim transformatsiyaga uchragan.

**«Beshikka solish»** xalqimiz etnomadaniyatiga xos bo‘lgan marosimlardandir. Unga go‘dak tug‘ilmasidan oldinroq tayyorgarlik ko‘riladi. Buvilar beshik va uni anjomlarini tayyorlaydilar. Chaqaloqqa

yangi liboslar kiygiziladi. Marosimga yaqin kishilar – ayollar chaqiriladi. U chaqaloq tug‘ilganidan 7-9 kun o‘tgach, o‘tkaziladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida beshikdagi o‘rinni bir necha marta silab, «egalari kirsin, bobovlari chiqsin», deb beshikni go‘yo “ziyonkashlardan tozalangach”, bola beshikka solinadi. Farg‘ona vodiysida beshikka solish oldidan bir onaxon qo‘liga bolani, ikkinchi onaxon qo‘liga kichikroq toshni oladi, avval qo‘lida toshi bor ayol «mening beshigim» deb beshikka toshni qo‘yadi, keyin esa ikkinchi ayol «mening beshigim» deb, beshikka bolani yotqizadi. Bu holat uch marotaba takrorlangach, beshikka chaqaloq belanadi. Beshikka tosh qo‘yish “go‘dakning boshi toshday qattiq bo‘lsin” degan ma‘noni anglatadi.

Marosim paytida ayollarimiz alla-qo‘shiqlar aytadi, go‘dakni yo‘rgaklash, beshikni tozalash va ins-jinslarni quvish, bolaning sog‘-salomat o‘shishiga oid suhbatlar uyushtiriladi. Marosim ma‘naviy-tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lgani uchun u deyarli barcha o‘zbek oilalarida o‘tkaziladi.

**«Qovurdoq» marosimi** farzand tug‘ilganidan bir necha kun o‘tgach o‘tkazilgan. Unga qarindosh- urug‘lar, quda-andalar va qo‘ni-qo‘shnilar taklif etilgan.

Ayollar marosimda dam olgan, shirin taomlardan iste‘mol qilgan, oila, ro‘zg‘or tashvishlarini vaqtincha unutib, hordiq chiqargan. «Qovurdoq» marosimi ko‘proq Toshkent shahri va viloyatiga xos bo‘lib, boshqa viloyatlarda uchramaydi.

**«Chilla to‘yi»** o‘zbek xalqi etnomadaniyatidagi negizi matriarxat tuzumiga borib taqaluvchi marosimdir. Ko‘zi yorigan ayol va chaqaloq qirq kungacha yomon ins-jinslar, yomon ko‘zlar ta‘siridan, turli xastaliklarga chalinishdan himoya qilingan. Marosimning ushbu funksional xususiyatida o‘zbek xalqi etnomadaniyatiga xos insonparvarlik g‘oyalari bo‘rtib turadi. Umuman olganda o‘zbek oilasida ona va bola ayol homilador vaqtidan boshlab himoya qilingan. Homilador ayolga og‘ir yumushlar bajartirilmagan, har tomonlama asrab-avaylashga harakat qilingan. Shuningdek, homiladorlik yaxshi o‘tishi uchun turli urf-odat, magik irim-sirimlar ham amalga oshirilgan. Masalan, “Surxon vohasida qadimdan homilador ayolni asrash va chaqaloqni eson-omon tug‘ilishi uchun kayvoni ayol, qushnoch yoki doylar tomonidan magik va animistik

qarashlarga yo‘g‘rilgan urf-odatlar bajarib kelingan. Jumladan, vohadagi mifologik personajlardan biri “homiy-momo” obrazi bo‘lib, u homilador ayolni ziyon-zahmatdan himoya qiluvchi va doyalarga ko‘maklashuvchi afsonaviy pir, homiy sifatida tasavvur qilinadi. Xalq orasida hanuz homilador ayollarning mushkulini oson qiladigan mifologik personaj “Tuvgich momo” haqidagi asotiriy qarashlar saqlanib qolgan. Vohaning Qiziriq tumanida homiladorlikning 3,5,7,9 oylari, ya’ni toq oylarida qushnoch momolar ayolning eson-omon ko‘zi yorishi hamda chaqaloqni turli ziyon-zahmatlardan asrash, go‘dakning umri uzoq, serfarzand, serdavlat, rizq-nasibali bo‘lishini tilab, “oy chiroq” yoqqanlar. Fikrimizcha, mazkur odat zardushtiylik diniga borib taqaladi. Ya’ni, olovning magik qudrati, ins-jinsdan, ziyon-zahmatdan asrovchi, poklash xususiyati nazarda tutiladi”<sup>1</sup>. Mazkur odatlarning ayrimlari bugungi kunda ham saqlanib qolgan.

«**Chillagizoron**» ona va bolani chilla davri xavf-xataridan salomat «qutilgani», oila a’zolari safiga yana bir inson qo‘shilgani sharafiga kelin (ayol)ning ota-onasi xonadonida o‘tkaziladigan marosimdir.

Tug‘ruqdan keyin 40 kun o‘tib, “chillasi chiqqan” kelin (ayol) go‘dagi bilan ota-onasi uyiga kelganida, uning oyog‘i tagiga oq poyonoz solinadi. Oq poyonoz go‘dak bu xonadonga birinchi marotaba kelyapti, o‘zi bilan birga poklik, yaxshilik olib kelsin, hayot yo‘li oq, pok bo‘lsin, degan niyatni anglatadi. Chaqaloqni ilk bor ko‘rayotgan kelinning otasi, aka-ukalari, qarindosh-urug‘lari “ko‘rmana” (pul, kiyim) beradilar.

«Chillagizoron» marosimining asosiy tashkilotchilari ayollardir. Sovetlar davrida chillani taqiqlashga urinishlar bo‘ldi, biroq u, oilaviy-maishiy hayotdan, ayollar etnomadaniyatidan chuqur joy olgani bois hozir ham mavjuddir.

«**Tirnoq oldi**» marosimini eng keksa, diyonatli, mo‘tabar onaxon olib borgan. U go‘dakning tirnoqlarini olishdan avval, “hayot yo‘li oq bo‘lsin”, degan niyatda unga botirib olgan. Bu paytda atrofdagi ayollar yaxshi niyat aytib turishgan. Olingan tirnoqlar «bola unib-o‘ssin, kelajakda serfarzand, serdavlat bo‘lsin» degan niyatda biror mevali daraxt tagiga ko‘milgan.

---

<sup>1</sup> Менгликулов У.М. Сурхон воҳа аҳолиси анъанавий маданиятининг айрим хусусиятлари // ЎЗМУ хабарлари. -Тошкент, 2018. -№ 1/4/1. -Б. 212-213.



«Tirnoq oldi» kichikroq marosim hisoblansa-da, xalqimiz bu voqeani oilaviy-etnomadaniy hodisa sifatida o‘tkazib keladi.

**Beshik to‘yi** – o‘zbek xalqining keng tarqalgan marosimlaridan biri. U «Beshikka solish» marosimidan kengroq nishonlanadi hamda ishtirokchilarining ko‘pligi bilan farq qiladi. Beshik to‘yi faqat birinchi farzandga bag‘ishlab o‘tkaziladi.

Beshik to‘yi deyarli transformatsiyaga uchramay yashab kelayotgan marosimlardan hisoblanadi. To‘g‘ri, hozir beshik yoniga quda tomon karovat, kolyaska, o‘yinchoqlar ham qo‘shib keltiradi, lekin bu narsalar marosim negizidagi etnomadaniy mohiyatni, mazmunni o‘zgartirgan emas, bu mazmun, mohiyat kelin-kuyovni farzand bilan tabriklash, ularning turmushiga yordam berish, ahil, inoq, serfarzand yashashlariga ko‘maklashishdan iboratdir. Oila ijtimoiy nigoh ostida, uning mustahkamligi barchaning ishidir. Ammo, beshik to‘yida ortiqcha dabdabaga yo‘l qo‘yish kerak emas.

**«Kulota».** Qadimda yosh kelinchaklar sochini qirq kokil o‘rib, uchiga po‘pak taqqan. Po‘pakning uchlariga tanga va qo‘ng‘iroqchalar osilgan. Ayollar po‘pakni birinchi nabira ko‘rgunlariga qadar taqqanlar. Nabira ko‘rib, buvi bo‘lishgach, sochini ikki o‘rim qilib, kulota taqqanlar. Kulota taqish, buvilikni bo‘yniga olishdir. Nabira ko‘rgan ayolning kulota taqmay, sochini mayda qilib o‘rib yurishi uyat hisoblangan. Bu marosimning modernizatsiyalashgan ko‘rinishi uchramaydi.

**Beshikkerti** qadimda qabilalar o‘rtasidagi urush-janjallarga chek qo‘ygan, tinch qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlagan, ikki oila o‘rtasida mehr-oqibatni mustahkamlashga yordam bergan. «Beshikkerti» qilingan yigit va qiz bir-birlariga nisbatan g‘oyibona mehr, intiqlik, hurmat bilan voyaga etishgan. Oilalar ko‘p yillar davomida bir-birini sinab, bilib borishgan, vaqti kelganida uyushgan tarzda to‘y o‘tkazishgan. Yoshlar o‘qish, mehnat va hunarda, ma’naviy kamolotga intilishda bir-birlariga munosib bo‘lishga harakat qilgan.

Hozir bu marosim Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida uchraydi, xolos.

**Soch olish** go‘dakning qorin sochini olish bilan bog‘liq qadim marosimdir. Uni izzat-hurmatga ega otaxon yoki onaxon olib borgan. U tor oilaviy davrada o‘tkazilgan.

Xalqimiz qadim zamonlardan «**Tish chiqishi**» marosimini o‘tkazib keladi. Birinchi tish chiqishi ko‘p hollarda ancha og‘ir bo‘lib, turli kasalliklarga olib kelgan. Keksalarning aytishlaricha, tegishli rasm-rusumlarga amal qilinsa, bolaning tishlari tekis, og‘riqsiz chiqar emish.

Hozir u oila davrasida bolaning boshidan bodroq sochib o‘tkaziladi. Marosim uchun go‘dakning onasi oq jo‘xoridan bodroq tayyorlaydi. Qizigan tovaga solingan jo‘xori bodrab ochilganda “go‘dakning tishlari ham shunday “bodrab” chiqib ketsin” deb niyat qilinadi) Ilgari unga qudalar, qarindoshlar chaqirilgan.

**Birinchi qadam** bolaning mustaqil qadam qo‘yishini nishonlash marosimidir. Bolaning onasi, buvisi, yaqin kishilari hamda qo‘shni bolalar to‘planishib, bolaning oyoqlarini chiroyli ip bilan bog‘lab, orasidan kulcha yumalatishgan. Ushbu kulchaga ega bo‘lish uchun yig‘ilgan bolalar jon-jahdlari bilan harakat qilgan, chunki bunday kulcha xosiyatli, tabarruk sanalgan.

«Ajdodlarimiz bu marosimda «bolaning beli baquvvat bo‘lsin» deb, beliga belbog‘ bog‘lashgan; «to‘qlik bo‘lsin, bola ocharchilikni bilmasin!» deb mazali kulchalarni kichkintoylarga tarqatishgan; «suvdek serob bo‘lsin!» deb, bolaning qadam bosgan erlariga suv sepishgan; «bolaning hayoti shirin bo‘lsin!» deb, boshidan shirinliklar sochishgan; «chiroyli bo‘lsin!» deb, yo‘llariga gullar sochishgan; «boy bo‘lsin!» deb, boshidan pullar sochishgan; «kasalga chalinmasin!» deb, isiriq tutatishgan; «ko‘z tegmasin!» deb, ko‘zmunchoqlar taqishgan; «kinna kirmasin!» deb, duolar o‘qishgan va hokazo».

Hozir «Birinchi qadam» kichik oilaviy marosim tarzida onda-sonda uchraydi.

**Sunnat** o‘g‘il bolani xatna qilish bilan bog‘liq marosimdir. U, birinchidan, to‘yga tayyorgarlik ko‘rish odatlari («Maslahat oshi», «Jar - to‘yga aytish», «Tandir soldi», «Qozon qurdi», «Sabzi to‘g‘rash»), ikkinchidan, asosiy tadbirlar («Mehmon kutish», «Qo‘noq olish», ziyofat-bazm berish, tomosha, o‘yinlar uyushtirish), uchinchidan to‘ydan keyingi tadbirlar (to‘yda xizmat qilganlarni taqdirlash, ularga alohida ziyofat berish, sovg‘alar in‘om etish, «to‘y bola»ning holidan xabar olish)dan iboratdir. Ularning tashkilotchilari asosan erkaklardir.

«**Paxta solar**» kelinning onasi sunnat to'yiga olib keladigan yangi ko'rpa-to'shaklar bilan bog'liq marosim bo'lib, u kelinning ota-onasi xonadonida o'tkazilgan. Bu marosimni odatda yoshi ulug', piru-badavlat, bir nikohli onaxon olib borgan.

Ko'rpa qavishga ayollar, birinchidan, to'y qilayotgan xonadon egalariga yordam berish, ikkinchidan, duo, savob olish, uchinchidan, Alloh o'zlarini ham shunday to'ylarga etkazishini so'rash, to'rtinchidan, yordam bahona muloqot qilib, dam olish va hordiq chiqarish uchun chiqqanlar.

«**Muchal to'yi**»ni xalqimiz 12-13, 24-25, 36-37, 48-49, 60-61 va hokazo yoshlarda nishonlab keladi. U erkaklarga ham, ayollarga ham taalluqlidir. Ilgari u oila davrasida nishonlangan, hozir unda qarindosh-urug'lar, hamkasblar, qo'shnilar ham qatnashishi kuzatiladi. Xalqimizda ayniqsa birinchi muchal to'yi keng davrada nishonlangan. Onaxonlar muchal yoshini nishonlayotgan o'smirni umr yo'li oq bo'lsin degan niyatda oq poyondozi ustiga chiqarishgan. Yangi kiyimlar kiydirishgan, boshidan shirinlik sochishgan, sovg'a-salomlar berishgan.

**Nikoh to'yi** o'zbek xalqi etnomadaniyatidagi muqim saqlanib kelayotgan, tashkiliy nuqtai nazardan transformatsiyalarga uchragan bo'lsa-da, ijtimoiy mohiyatiga ko'ra insonparvarlik g'oyalari ni targ'ib etuvchi milliy qadriyatlardan biridir.

Ayol-ona farzandi tug'ilganidan boshlab, sep yig'a boshlagan. Bu odat qiz bola tug'ilganida, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlangan. Xalqimizda «Qiz bola beshikka tushdi, sarposi sandiqqa tushdi» degan maqol bor.

O'zbeklarda nikoh to'yiga tayyorgarlik «**sovchilik**» udumi bilan boshlanadi. Ikki yoshning turmush qurishida «qiz ko'rar» yoki «sovchilik» udumi muhimdir. Ushbu udum yoshlar taqdiriga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Sovchilik odatda gapga chechan, uddaburon, shu bilan birga, mahalla-ko'y orasida hurmat-e'tiborga sazovor ayol zimmasiga yuklatilgan. U ayollardan katta mas'uliyat, aql-farosat, ziyraklikni talab etgan. Sovchilar ko'z ostiga olingan xonadon sohiblarining tag-tugini, kelib chiqishini, mahalla-kuyda tutgan o'rnini, bo'lg'usi kelinning xulq-atvorini, sog'lig'ini qo'ni-qo'shni, tanish-bilishlardan surishtirishgan. Ular qiz xonadonining toza-orastaligiga alohida e'tibor qaratishgan.

Bugun sovchilikka odatda yigitning onasi, xolasi, ammalari borishadi. Ikki tomon bir-biriga ma'qul kelsa, yigit va qizni

uchrashtirishadi. Yigit va qiz rozi bo'lishsa «oq o'rar» marosimi o'tkaziladi.

**Oq o'rar** yoki «non sindirish» marosimi ikki yoshning boshi bog'langanligi belgisi hisoblanib, shu marosimdan so'ng qiz egalik sanaladi va uning uyiga boshqa sovchilar kelmaydi.

**Fotiha** qilish uchun kuyov tomonidan ikkita-uchta erkak, ikkita ayol kelin xonadoniga tashrif buyuradi. Har ikkala tomon to'y kunini belgilab, sarf-xarajatlar haqida kelishib oladi. Toshkentda fotiha to'yiga faqat erkaklar borishadi.

«**Uy ko'rar**» kelin tomondan ikki-uch nafar ayol kuyov xonadoniga «uy ko'rgani» tashrif buyurishidir. Marosimda asosan ayollar ishtirok etadi. Ular kuyovning uy-joyini, kelin uchun ajratilgan xonalarni ko'zdan kechirib, kelin sepini qaerga va qanday joylashtirishni rejalashtiradi. Bu marosim hozir ham nikoh to'yining muhim qismi hisoblanadi.

«**Mol yoyar**» alohida marosim sifatida XX asrning 70-yillaridan keyin paydo bo'lgan. Undan oldin kelinning sepini nikoh to'yining ertasiga kuyov xonadonida «yotib qolgan» ayollar yasatishgan.

«Mol yoyar» marosimida kelin tomonlik ayollar uy bezatishdagi badiiy-estetik didini, kuyov tomonlik ayollar esa pazandalik mahoratini namoyon etadi.

«**Qiz oshi**» («Qiz bazmi», «Qiz majlisi», «Lapar») marosimi qadimda nikoh to'yidan bir hafta yoki bir necha kun oldin o'tkazilgan. Bo'lajak kelin xonadonida dugonalar, qarindosh, qo'shni qizlar to'planishib, doira, dutor chertib, turli laparlar kuylab, o'yin-kulgu qilishgan.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida «qiz oshi» marosimi dabdabalashib, katta to'yga aylanib ketdi. Nomi «qiz oshi» bo'lganligi bilan marosimda yigitlar va erkaklar ham qatnasha boshlashdi. Ayrim «qiz oshi» marosimlari «nikoh to'yi» marosimi bilan deyarli bir xil o'tkazila boshlandi.

O'tgan asrning 90-yillariga kelib, «Qiz oshi» marosimi iqtisodiy qiyinchiliklar bois o'tkazilmay qo'yildi. U hozir ayrim viloyatlardagina o'tkaziladi.

**To‘y** kuni yangalar, dugonalar, qarindosh va qo‘shni ayollar qurshovida kelgan kelin kuyov xonadonida poyiga poyandoz solib kutib olinadi.

Bugun kelinchaklar to‘yxona va kuyov uyiga engil avtomashinada, karnay-surnay sadolari ostida tashrif buyuradi. Kelinchak mashinadan tushishi bilan «Oyoq bosar» udumi o‘tkaziladi.

**Chimildiq** nikoh to‘yining birinchi kechasida kelin-kuyovning yakka qolishi bilan bog‘liq marosimdir. Shu kuni kuyov tomon ayollari chimildiq tomonda, kelin taraf ayollari esa ostona tomonda turib tortishmachoq o‘ynaydi. Belgilangan chiziqdan kelin tomondagi ayollar salgina o‘tsa bo‘ldi, kelin qo‘lga kiritilgan hisoblanadi. Odatda kuyov tomonning hurmati uchun kelin tomon yutqazadi. «Kelin qo‘lga kiritilgach», chimildiqda kelinni kutayotgan kuyov to‘n yopinib chiqadi va kelinning boshidan pul, shirinlik sochadi. Bu udum, bir tomondan, kelinning hayoti shirin, o‘zi serdavlat bo‘lsin degan niyatda, boshqa tomondan esa yangalarni chalg‘itish maqsadida o‘ylab topilgandir. Yangalar qiy-chuv qilib, shirinlik va pullarni terayotganda kuyov kelinni dast ko‘tarib, chimildiqqa olib kiradi. Qiz uzatib kelgan ayollar kelin-kuyovga eshittirib turmush saboqlari, er-xotinlik munosabatlari haqida qizg‘in suhbatlashib, ularning «qulog‘ini pishitadilar».

Kelin salom, bet ochar, charlar, quda chaqiriq kabi marosimlar ham borki, ular nikoh to‘yini tashkiliy rang-barang, badiiy-emotsional elementlarga, tasvirlarga boy ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqi oilaviy-maishiy marosimlarida muqim, turg‘un etnik belgilar etakchi o‘rin tutadi. Hatto ijtimoiy o‘zgarishlar ham ulardagi «o‘zak»ni o‘zgartirolmagan. Ammo marosimlarning tashqi-tashkiliy ko‘rinishida modernizatsiya elementlari ham mavjuddir. Shuning uchun istiqolol mafkurasi oilaviy-maishiy marosimlardagi muqimlikka va modernizatsiyaga moyillikdan samarali, ratsional foydalanishi zarur.

### **Nazorat savollari**

1. Oilaviy-maishiy marosimlarning ijtimoiy funksiyasi qanday?
2. O‘zbeklarga xos etnopsixologik xususiyatlar?

3. Qaysi oilaviy-maishiy marosimlardan voz kechish kerak deb o‘ylaysiz?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. -274 b.
3. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
4. Jabborov I. O‘zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
5. Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. –Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, 2009. 5,5 b.t.
6. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.
7. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. T.1. -388 b.
8. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. T.2. -285 b.

## **11-MAVZU. MAVSUMIY, TABIAT BILAN BOG‘LIQ BAYRAM-MAROSIMLAR VA ULARNING ASOSIY FUNKSIYALARI**

### **Reja**

1. Mavsumiy (kalendar) bayram-marosimlarning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati.
2. Tabiatdagi o‘zgarishlarning inson ruhiga, kayfiyatiga, sog‘ligiga ta’sir etishi.
3. Tabiat bilan bog‘liq turfa odatlar.

Qadimdan kishilar kundalik hayotni mehnat va dam olish, jiddiy va kulgili mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishga ajratishgan. Shu asosda xalq bayramlari va tomoshalari kundalik hayotning atributi sifatida shakllangan.

Xalq bayramlari va tomoshalari kishini “san’at bilan hayot oralig‘ida yashayotganini his qildirgan. Aslida bayram va tomoshalar, maxsus o‘yinlarga qurilgan xalq hayotining o‘zi edi”. Mazkur bayram va

tomoshalar paytida xalq og‘ir mehnat, turmush mashaqqatlari, rasmiyatchilikdan vaqtincha xalos bo‘lgan, kishilar yuzaga kelgan erkin muloqotdan, o‘z tuyg‘ularini bemalol ifoda etish imkonidan, psixofiziologik ehtiyojlarini qondirib, dam olib, hordiq chiqarish sharoiti paydo bo‘lganidan xursand bo‘lganlar.

Xalq bayramlari va tomoshalarining sub’ekti ham, ob’ekti ham xalqdir. Xalq ularning tashkilotchisi hamda ularda qatnashib, dam, zavq, hordiq oluvchi bo‘lgan.

Xalq bayramlari va tomoshalari etnomadaniyatning keng tarqalgan, rang-barang badiiy-estetik vositalar qo‘llaniladigan sinkretik shaklidir. Ularda xalq qo‘shiqlari, o‘yinlari, tomoshalari, ko‘ngil ochish marosimlari, dostonchilik, askiyabozlik, dorbozlik, ko‘pkari, bellashuv, kurash, xullas xalq ijodi va san’atining barcha turlari uyg‘un keladi. Bayram va tomoshalarda har bir kishi o‘zining badiiy-estetik ehtiyojini qondirish imkoniga ega bo‘ladi. Aynan ushbu xususiyat ularni etnomadaniyatdan chuqur joy olishini ta’minlagan.

XX asrning mashhur faylasuflaridan biri Erix Fromm inson va sotsium o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etib, insonni ziddiyatlar mudom ta’qib etadi, ular ichida qadimgisi uni goh hayvoniy, goh insoniy yashashga majbur etadigan ehtiyojlar o‘rtasidagi ziddiyatdir, demokratik tamoyillarga amal qiladigan, insoniy fazilatlarni, ijodiy xislatlarni rivojlantirishga yordam beradigan hayot sharoitlarini yaratgan jamiyatgina sog‘lomdir, degan xulosaga keladi. Bu o‘rinda u G‘arbda “ommaviy madaniyat”ning destruktiv ta’sirida shakllangan ehtiyojlarni emas, balki har bir shaxsni, individning ichki ma’naviy olamini, undagi ijobiy xislatlarni to‘la namoyon bo‘lishiga yordam beradigan ijtimoiy muhitni, dam olish sharoitini yaratishni nazarda tutadi. Faylasufning fikriga ko‘ra, agar shunday muhit va ruhiy-ma’naviy ehtiyojlarni qondirish imkoni bo‘lmasa, jamiyat ham, shaxs ham destruktiv xatti-harakatlarga, “og‘ir ruhiy og‘ishlarga”, xastalikka yo‘l tutadi.

Ish vaqtida sodir bo‘ladigan tortishuvlarni, ma’muriyat tomonidan chiqarilgan, ba’zan xizmatchi tasavvur va ehtiyojlariga zid bo‘lgan qarorlarni, hukmlarni kishi tabiiy hol sifatida qabul qiladi, chunki ish vaqti talablariga bo‘ysunish ijtimoiy tuzum tomonidan yuklatilgan mas’uliyatdir. Kishi ushbu mas’uliyatni o‘z ustiga olishi shartligini bilgani uchun ham

yuqoridagi qaror va hukmlarga itoat etadi, ularni to'la bajarishga intiladi. Biroq ishdan keyingi, ayniqsa bo'sh vaqtda kishi barcha qarashlarni, normalarni, qarorlarni qabul qilavermaydi. U o'z qiziqishi va ehtiyojiga to'g'ri keladigan qadriyatlarnigina o'zlashtirishni, ulardan ma'naviy ozuqa olishni ma'qul ko'radi. Ushbu qiziqishi va ehtiyojlariga mos kelmagan qadriyatlarni, tadbirlarni u qabul qilmaydi yoki ularni ochiqdan-ochiq inkor etadi. Etnomadaniyat millatning, xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ruhiy, milliy-madaniy ehtiyojlari va qiziqishlari asosida yuzaga kelgani bois, u ushbu millatning, xalqning farzandlarini befarq qoldirmaydi. An'anaviy qadriyatlarning umrboqiyliigi, mustaqillik davrida millatimiz, xalqimiz yoshlarida tarixiy-madaniy merosga, xalq bayramlari, tomoshalari va dam olish an'alariga qiziqish oshganligining negizi ham shundadir.

Dam olish va hordiq chiqarish o'zaro dialektik bog'liq rekreativ (psixofiziologik) va ijtimoiy-ma'naviy (psixopedagogik) vazifalarni bajarishga qaratilgandir. To'g'ri, dam olish va hordiq chiqarish etnomadaniyatning o'ziga xos an'anaviy turi sifatida boshqa (masalan, kommunikativ, tarbiyaviy, madaniy-ijodiy, bo'sh vaqtni o'tkazish va b.) funksiyalarni ham bajaradi. Ammo dam olish va hordiq chiqarishga qaratilgan tadbirlarda, faoliyat turlarida, ayniqsa etnomadaniyatga taalluqli xalq bayramlari va tomoshalarida u yoki bu funktsiyani boshqalaridan ustun turadi, deb asoslash juda qiyin. Shuning uchun dam olish va hordiq chiqarish boshqa funktsiyalar bilan uyg'un keladi.

O'zbek etnomadaniyatining dam olish va hordiq chiqarish funktsiyasini mavsumiy-kalendar bayramlari, tomosha-sayillar, tabiat bilan bog'liq marosimlarda ko'rishimiz mumkin.

Mavsumiy-kalendar bayramlariga yilning ma'lum bir fasllarida, oylarida o'tkazish an'anaga aylangan xalq bayramlari va tomoshalari kiradi. Ushbu etnomadaniy tadbirlar mavsumiy (kalendar) xarakterga ega bo'lib, ularda insonning tabiatdagi o'zgarishlar (uyg'onish, so'lish yoki fasllarning almashishi)ga munosabati aks etgan. Tabiatdagi o'zgarishlar inson ruhiga, kayfiyatiga, sog'ligiga ta'sir etgan, ibtidoiy davrdagi kosmologik qarashlar va tasavvurlar beiz ketmagan. Inson o'zini, hayot tarzini, turmushini tabiat in'omlari bilan bog'liqligini qanchalik chuqur



anglagach, ularni shunchalik rang-barang qarashlar, urf-odatlar va tomoshalarda aks ettirgan.

Xalq sayillarida dam olish va hordiq chiqarish asosiy maqsaddir. Kalendar bayramlari va tomoshalarida esa, dam olish va hordiq chiqarish insonning tabiat bilan munosabatga kirishishidan keyin keladi. Ularda tabiatdan biror narsa so‘rash, tilash, xullas, uni o‘z sahovatini ayamaslikka, qilgan mehnatiga yarasha taqdirlashga undash yotadi. Ushbu kompensatsiya funksiyasi kalendar bayramlari va tomoshalarida etakchilik qiladi. Xalq sayillaridagi hordiq chiqarish kishining og‘ir mehnatdan keyingi psixofiziologik, faollikni nafaollik, jismoniy mehnatni aqliy mehnat, aqliy mehnatni xayol, orzu, tilaklar yoki hazil-o‘yinlar bilan almashtirish ehtiyojlari natijasidir.

Mavsumiy bayram-marosimlarning aksariyati zardushtiylik davriga borib taqaladi. “Zardushtiylik diniga e‘tiqod qilish davrida ajdodlarimizning bayramlar tizimi shakllandi. Bunda Navro‘z, Mehrjon, Sada, Angom kabi bayramlari ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularda yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, issiqlik va sovuqlik, o‘lim va hayot o‘rtasidagi ziddiyatlar aks etib, bu davr odatlarida ezgulik, mehribonlik, muruvvatlilik, qadr-qimmat, insoniylik kabi ma‘naviy-insoniy fazilatlar qadrlana boshlandi”. Zardushtiylarda olov (quyosh), suv, havo va erni ulug‘lashga bag‘ishlangan ko‘plab bayram-marosimlar mavjud bo‘lgan. Shuningdek, qavm-qabilalar orasida «lagamzodan» (otga suvliq solish), «zin zaran» (otni egarlash), «kamarbastan» odatiga qat‘iy amal qilingan. Chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi qavmlarda qizlarga yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlash, matolar to‘qish, liboslar tikish o‘rgatilgan. Demak, zardushtiylar odatlari va marosimlari real hayot ehtiyojlari, kishilarda, ayniqsa yoshlarda ijtimoiy zarur ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan.

Qurg‘oqchilikda yomg‘ir tilab «Sust xotin», shamolga bag‘ishlangan «Choy momo» kabi maxsus marosimlar o‘tkazilgan, ularning asosiy ishtirokchilari ayollar bo‘lgan. Kuz faslida o‘tkaziladigan «Oni bug‘doy», «Xirmon to‘yi» va «Mehrjon» bayramlari keng tarqalgan. Ular kuzgi kuntun tengligiga va o‘rim-yig‘im tugaganiga bag‘ishlab o‘tkazilgan.

Ayollarning marosim va bayramlarda erkaklar bilan birga ishtirok etishi an'ana edi. Hatto ayollar ba'zi marosimlarga boshchilik qilgan.

Bahor faslidagi mavsumiy bayram-tomoshalariga Navro'z bayrami, er haydalayotganda "Shoh moylar", urug' ekilayotganida "Birinchi urug' qadash", yil yaxshi kelishi uchun "Darveshona", ilik uzildi paytida "Sumalak bazmi", "Halim bazmi", qushlar qaytib kela boshlaganida "Qaldirg'och keldi", "Qushlar bayrami", gullar ochilganida "Gul sayli", "Gul bayrami", "Gulchambar", daraxtlar barg chiqarganida "Tolbargak", mevalar pishganida "Tut sayli", "Qulupnay sayli" kabilar misol bo'lishi mumkin.

Yozda "Suv sayli", "Bog' sayli", "Uzum sayli" kabilar o'tkazilgan bo'lsa, kuzda "Do'lana sayli", "Qovoq sayli", "Qovun sayli", yil bo'yi etishtirilgan hosilni yig'ib olishga bag'ishlangan "Hosil bayrami", "Mehrjon" bayrami uyushtirilgan. Qishda esa "Yaldo kechasi", "Sada bayrami", "Birinchi qor", "Qorxat", "Qorbo'ron o'yini", "Qurultoy bayrami", kunlar qattiq sovib ketganida sandal atrofiga to'planib "Topishmoq top", "G'azalxonlik", "Ertakxonlik", "Tez aytish", "Hikoyaxonlik", "Lof aytish", "Dostonchilik", "Kitobxonlik", "Munozara", "Aytishuv", "Masalchilik", "Qasidaxonlik" kabi badiiy-estetik zavq beruvchi, did va bilimni rivojlantiruvchi an'anaviy o'yinlar, gap-gashtak, xalfana o'tkazilgan.

Bahor faslida, boshqa fasllarga nisbatan, bayram-tomoshalar ko'proq uchraydi. "Ma'lumki, bahorda nafaqat tabiat, balki insonning o'zi ham o'zgaradi. Inson bahor kabi noziklashib, nafislikka, go'zallikka, yangilikka chanqoq bo'lib qoladi. Bu vaqtda kishi har bir hodisadan yangilik va go'zallik qidirib qoladi. Odamlar tabiatida ro'y bergan ana shu holat tabiat bilan bog'liq bo'lgan har bir hodisani poetik ma'noga ega bo'lgan tadbir, marosimga aylantirib yuboradi".

Bahordagi eng yirik xalq bayram-tomoshalariga "Navro'z", "Yil boshi", "Darveshona" kiradi.

**"Navro'z bayrami"** O'rta Osiyo, Qozog'iston, Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Pokiston va Shimoliy Hindiston xalqlari etnomadaniyatiga taalluqli ijtimoiy, badiiy-estetik voqelikdir.

"Navro'z" yilning boshlanishi bo'lib, odamlarni tabiat quchog'iga chorlovchi, sof havo, olam go'zalligidan, quyosh taftidan bahra oldiruvchi,

zerikarli va qahraton qishdan bezgan odamlarga go‘zal his-tuyg‘u va zavq beradigan bayramdir. Unda ajdodlarimizning ilk mifologik tasavvurlaridan tortib, bugungi zamondoshlarimizning keng badiiy-estetik va ma‘naviy qarashlarigacha mujassamdir.

U.Qoraboev “Navro‘z bayrami”ning paydo bo‘lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ta‘kidlab, u bilan bog‘liq bir nechta afsona va rivoyatlardan, asarlardan parchalar keltiradi. Uning yozishicha, Zardushtiylikda Axuramazda bahor va yozda, Axriman kuz va qishda hukmronlik qiladi, degan qarash mavjud bo‘lgan. Bahorning birinchi kuni ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qilgan kuni sifatida nishonlangan va bu sana aynan Navro‘z kuniga to‘g‘ri kelgan. Afsonalardan birida keltirilishicha, Odam Ato va Momo Havo ilk bor uchrashgan kun “Navro‘z bayrami” deb tan olingan. Firdavsiy va Beruniy asarlarida keltirilgan afsonalarda esa Navro‘zning paydo bo‘lishi shoh Jamshid nomi bilan bog‘liqligi aytiladi. “Shohnoma” asaridagi Jamshid odamlarga yaxshilik qilish maqsadida turar joylar, hammom, bog‘, saroylar qurdiradi, kema yasatadi, odamlarni temir eritish, ip yigirish, kiyim to‘qish kabi kasblarga o‘rgatadi. Hamma ishlar bitgach, taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Odamlar bundan hayratga tushib, quvonib, shu kunni yangi yil – bayram kuni sifatida nishonlaganlar.

Taxt ko‘kda charx urar misoli quyosh,  
Farmondor o‘tirar, unda irg‘ab bosh.  
Barcha jam, odamlar qarar taxtiga,  
Jahon qoyil bo‘lib shukuh-baxtiga.  
Jamshidga sochishar oltinu gavhar,  
Shu kunni yangi yil – bayram deyishar”.

Tadqiqotlarda Navro‘z bayramining kelib chiqishini Axuramazda yaratgan er yuzidagi birinchi jonzot, yarmi odam, yarmi ho‘kiz – Qayumars nomi bilan bog‘lashadi. Beruniyning fikricha: “Shu kuni xudo quyi olamni yaratib, Qayumarsni unga podshoh qilgan va “Navro‘z” uning “jashni”, ya‘ni hayiti bo‘lgan”. Ba‘zi tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, xudo olamni olti kunda yaratgan, dastlab barcha narsalar jonsiz va harakatsiz bo‘lgan. Ahura Mazda olamni yaratib bo‘lgach, ularga jon ato qiladi va barcha narsalarning harakatini boshlab beradi. Xuddi mana shu hayot belgilangan kun – olamning birinchi nurafshon bo‘lgan kuni – quyosh

yorug‘idan butun olam yorishgan. Tiriklikning birinchi kuni hisoblangan”. Firdavsiy “Shohnoma” asarida yozadi:

“Hamal burjiga kirib qolganda oftob,  
Jahon yorib ketdi, nurlanardi ob.  
Yer yuzi yosharib, chechak taqardi.  
Qayumarsga jahon shodlik buyurdi,  
Ilk bora manzilin tog‘ ichra qurdi...”

“Bu misralarda ham Qayumars birinchi inson va birinchi shoh sifatida quyosh hamal burjiga kirgan kun – bahorgi teng kunlikda paydo bo‘lganligiga ishora qilinadi. Demak, insoniyat va jamiyatning paydo bo‘lishi yangi kun – “Navro‘z”ga to‘g‘ri kelayotganligiga ishora qilinadi”. Ko‘rinib turibdiki, “Navro‘z bayrami”ning kelib chiqishi haqida turli afsonalar va farazlar mavjud. Lekin ularning hammasini bog‘lab turgan g‘oya bor. U, ezgulik va ulug‘vorlikdir. “Navro‘z bayrami” bilan bog‘liq barcha afsona va rivoyatlarda ana shu ezgulik va ulug‘vorlik g‘oyasi tarannum etiladi.

Navro‘z bayramiga tayyorgarlik bir hafta-o‘n kun oldin boshlangan. Bekalar “uy ko‘targan”, uylar, hovlilar, ariqlar va ko‘chalar yaxshilab tozalangan, hamma o‘ziga yangi liboslar tiktirgan. 21 martdan 22 martga o‘tar kechasi “Qozon to‘ldi” udumi o‘tkazilgan. “Qozon to‘ldi” sof oilaviy udum bo‘lib, har bir oila o‘z imkoniyatiga qarab tansiq taomlar tayyorlaydi”. “Qozon to‘ldi” oqshomida bekalar palov, bo‘g‘irsoq, ko‘katli somsa, chuchvara tayyorlaganlar va mazkur taomlar qo‘ni-qo‘shnilarga ulashilgan. “Qozon to‘ldi” udumi ajdodlarimizning hosildorlik haqidagi qadimiy e‘tiqodlari bilan bog‘liq. Unda yil bo‘yi qozon qaynasin, dasturxon to‘kin bo‘lsin, mehnat farovonlik, orom, zavq, hordiq keltirsin, degan g‘oya ifodalangan.

Navro‘z kunlari bemorlar, keksalar, qarindosh-urug‘lar, etim-yesir, beva-bechoralarni yo‘qlash har bir kishining burchi hisoblangan. Mehmonnavozlik, odamshavandalik odat bo‘lgan, shu kunlari urush-janjallan qilingan. Demak, navro‘z kunlari hamma joyda tartib-intizom, o‘zaro hurmat-e‘tibor hukm surgan. Kishilar dam olib, dunyo tashvishlarini unutmaganlar. Shuning uchun ham “Navro‘z ozodlik va erkinlik kuni hisoblangan. Chunki bu kun mehnat qilish ayb hisoblangan, odamlar kundalik ish, vazifa, burch, tashvishlaridan ozod bo‘lganlar. Shu tariqa

kishilar o‘zlarini shodu xurram bo‘lishga chog‘laganlar, dam olib, hordiq chiqarganlar.

“**Sumalak pishirish**” uchun biror xonadon yoki so‘lim bir go‘sha tanlangan, mahalla yoki qishloqdagi barcha xonadon bekalari, o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib un, yog‘ keltirishgan. Erkaklar o‘tin tayyorlashgan.

“Sumalak pishirish”ga odatda yoshi ulug‘, mahalla yoki qishloq odamlarining hurmatiga sazovor bo‘lgan, pok, orasta, uvali-juvali onaxonlar boshchilik qilishgan. “Sumalak – o‘ttiz malak”, ya’ni sumalakni o‘ttiz malak pishiradi, tongga yaqin hamma charchab uxlab qolgach, farishtalar sumalakka tuz soladilar, farishtalar qo‘lidan tuz egan sumalak shirin bo‘ladi, degan qarashlar mavjud. Shuning uchun sumalakni beg‘ubor va nozik, qutlug‘ taom hisoblashgan, u pishayotganida qozonga nopok yuz-ko‘zlarning nazari tushmasligi lozim, deb bilishgan. Qozon atrofida lapar, qo‘shiq, hikoyalar aytishgan, yoshlarni xursand qiluvchi o‘yinlar o‘tkazilgan. Bu badiiy-estetik tadbirlar kishilarni bir-biriga yaqinlashtirgan, ularda bir-biriga mehr-oqibat uyg‘otgan, hammani ezgulikka chorlagan. Ayniqsa, unda xotin-qizlar va bolalar yayrab hordiq chiqarishgan.

“**Darveshona**” o‘tkazish uchun xalqdan pul to‘plangan. To‘plangan pulga jonliq sotib olinib, uni yil yaxshi kelishi, hosil mo‘l bo‘lishi uchun qurbonlik qilishgan. Qurbonlik go‘shtining bir qismi kam ta‘minlangan oilalarga ajratilgan, qolgan qismidan katta qozonlarda taom (sho‘rva, osh, qovurdoq) tayyorlangan. Mahalla oqsoqollari kelayotgan yilda qilinadigan yumushlar haqida maslahatlashishgan. Pishirilgan taomni xonadonlarga tarqatishgan. Marosimning “Darveshona” deb nomlanishining sababi qadimda qurbonlik go‘shtining darveshlarga, etim-yesir, beva-bechoralarga tarqatilganidadir.

“**Bahorlashib kelish**” erta bahorda shahar qizlarining qishloqlardagi qarindoshlari, dugonalarinikiga mehmonga borishi, ularning birgalikda dam olishini ifodalagan tadbirdir. Qish bo‘yi zerikkan, bahorni sog‘ingan shahar qizlari aravalarda qishloqqa yo‘l olishgan, yo‘l bo‘yi lapar va qo‘shiqlar aytib, xursandchilik qilib borishgan. Qishloqda ularni har kech bir xonadon sahibasi mehmon qilgan. Qizlar dutor, doira chalib, qo‘shiq aytib, raqsga tushishgan, she‘rxonlik, g‘azalxonlik qilishgan. Mehmon qizlar qishloqda bir necha kun hordiq chiqarishgan, qishloqning so‘lim,

bahavo joylarida sayr qilishgan. Shu bilan birgalikda shaharlik qizlar qishloq odamlari turmush tarzi bilan yaqindan tanishishgan, qishloq xotin-qizlari bilan fikr almashishgan. Dugonalarni bir-birlarinikiga mehmonga borishlari bir yoqlama bo'lmay, qishloq qizlarining ham shaharlik dugonalarinikiga mehmonga borish an'analari bo'lgan.

Xalqimiz etnomadaniyatiga xos ushbu mehmonnavozlikning e'tiborga loyiq tomoni shundaki, unda nafaqat dam olish, shuningdek qarindosh-urug', quda-andachilik an'analarni saqlash ham nazarda tutilgan. Musiqa asboblari jo'rligida qo'shiq kuylangan, raqsga tushilgan. Bunday gedonistik tomoshalar qishloqlarda hanuz uchraydi. "Qizlar gapi" misol bo'lishi mumkin.

Mehmonga asosan bo'y etgan qizlar borgan. Ular keyingi bahorgacha turmushga uzatilishi mumkinligi va hech qachon dugonalari davrasida qizlik davridagidek yayrab, o'ynab kulolmasligini sezishgan. Shuning uchun ham ota-onalar qo'llaridan kelganicha bu an'anani o'tkazishga harakat qilishgan. Bu marosim orqali shahar va qishloq qizlari bir-birlaridan pazandalik, to'qish va tikish sirlarini, uy tutishni, o'zaro muomala madaniyatini, mehmon kutish odobini o'rganishgan, estetik didi rivojlangan. Bir-birlari bilan fikr almashib, keksa yoshdagi ayollardan turmush saboqlari to'g'risidagi hikoya va rivoyatlarni tinglab, o'z dunyoqarashini oshirgan.

**"Sust xotin"** O'rta Osiyo xalqlarining suvga bo'lgan baland e'tiqodidan kelib chiqqan tomosha san'atidir. "Qadimdan O'rta Osiyo xalqlari ikki xil yo'l bilan sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Bular sun'iy hamda tabiiy sug'orishga asoslangan dehqonchilik hududlaridan iborat. Sun'iy sug'orishga asoslanmagan hududlarda yashovchi aholi bahor oylarida yog'in bo'lmay qurg'oqchilik boshlansa, "Sust xotin", "Sut xotin", "Suv xotin", "Chala xotin" kabi bir necha nomlar bilan yuritiluvchi yomg'ir chaqirish marosimlarini o'tkazishgan".

"Sust xotin" zardushtiylik davridan buyon mavjud. U:

- 1) marosimni tashkil etish;
- 2) tantanani o'tkazish;
- 3) "is chiqarish" tartibida o'tkazilgan.

Bahorda yomg'ir yog'may, qurg'oqchilik bo'lishi chorvaning qirilib ketishiga, ocharchilikka olib kelgan. Qadimda kishilar qurg'oqchilikning

sababini gunoh xatti-harakatlardan izlashgan. Qishloq oqsoqollari soʻzga chechan, tashkilotchi ayollarga “Sust xotin”ni tashkil etishni topshirishgan. “Marosimni oʻtkazish vaqtida oʻt-oʻlan, mayda shox-shabbadan ulkan ayol qiyofasidagi “Sust xotin” gavdasi yasalgan. Uni tiklab qoʻyib, atrofidan aylangan holda “Sust xotin” termalari aytilib, marosim ijro etilgan. Har kim chelakda, koʻza-yu kosada, hatto qoʻlida ariqdan suv olib, “Sust xotin”ga sepgan... Albatta, bu odat haftaning xosiyatli kunlari sanalgan yakshanba, payshanba, juma kunlari oʻtkazilgan.

Havolarni yogʻdirgin, sust xotin,

Bugʻdoylarni boʻldirgin, sust xotin.

Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,

Elu yurtni toʻydirgin, sust xotin”.

Mazkur qoʻshiqni bir ayol aytib turgan, uning naqorat qismini qolganlar takrorlagan:

Sust xotin, sulton xotin,

Koʻlankasi maydon xotin,

Sust xotinga ne kerak?

Sharros, sharros yomgʻir kerak.

Shu tariqa oʻyin-tomoshalar uyushtirilgan. Tomosha oxirida butun aholi nomidan is chiqarilgan.

Bahor faslida “Yalpiz sayli”, “Gul sayli”, “Bogʻ sayli”, “Dala sayli” kabi gedonistik tomoshalar ham oʻtkazilgan.

**“Yalpiz sayli”.** Bahordan darak beruvchi yalpiz soy boʻylarida va ariq lablarida boʻy choʻza boshlashi bilanoq, yosh qizaloqlar, boʻy etgan qizlar va ayollar yalpiz sayliga chiqqanlar. Yalpiz sayliga yo dugonalar yigʻilishib, yo oilaviy boʻlib chiqilgan. Ayollar yalpizlardan terib, omonlik-somonlik qilishgan, sof havoda davra qurib, oʻzlari bilan olib kelgan turli eguliklardan tanovul qilgan, qoʻshiq aytib, raqsga tushib, tabiat qoʻynida miriqib dam olishgan.

**“Gul sayli”.** Gul – yaxshilik, himmat, goʻzallik ramzidir. Gulni hurmat va ehtirom ramzi sifatida yoru-doʻstlarga taqdim etish, oʻzaro bir-biriga boʻlgan mehr-muhabbatini gul bilan izhor qilish anʼanasi kishilarni goʻzallik, ezgu niyat, mehr-oqibat, shafqat va diyonat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham xalqimiz etnik madaniyatida gul sayillari – “Boychechak sayli”, “Binafsha sayli”, “Chuchmomo sayli”,

“Qizil gul sayli”, “Lola sayli” keng o‘rin olgan. Bu sayillarning asosiy sub’ektlari – ayollar va qizlardir. Xorazm va Buxoroda “Qizil gul sayli”, Farg‘ona vodiysi va Toshkent atroflarida “Lola sayli”, tog‘li Chust va Denov tumanlarida “Sumbula” sayli, “Boychechak” tomoshasi uyushtirilgan. Xiva va uning atrofidagi qishloqlarda o‘tkazilgan “Qizil gul sayli”da “yaqinlariga qizil atirgul hadya etish odat bo‘lgan. Qizlar oldidan o‘tishganida yigitlar suyganlari va unashtirilganlari yo‘liga poyonoz to‘shalgan kabi qizil gullar, olma va bo‘yalgan tuxumlar tashlashgan... Xivada bo‘lgani kabi Buxoroda ham mazkur sayil payti – unashtirish vaqti bo‘lgan”. Buxoroda o‘tkaziladigan “Qizil gul” bayrami afsonaviy qahramon Siyovush nomi bilan bog‘liqdir. Xalq orasida qizil gul haqida “Siyovush qoni”, “Siyovush tabiatni yangilab, qayta tug‘ilmoqda”, degan iboralar mavjud. Ko‘rinib turibdiki, xalq Siyovushning pokiza qalbidagi go‘zallikni gullar, tabiat go‘zalligiga qiyoslagan va ularni uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Siyovushning nohaq to‘kilgan qoni haqidagi afsonalar ming yillar o‘tsa hamki, xalqning yodidan ko‘tarilmagan.

“**Lola sayli**” qadimda “Guli surh” (“Qizil gul”) deb atalgan. U ijtimoiy mohiyati va mazmuniga ko‘ra, kishilarning dam olish, ko‘ngil ochish, hordiq chiqarishiga mo‘ljallangan tomoshadir. Lola saylida nafaqat lola, shu bilan birga chuchmomo, qoqigul, qizg‘aldoqlar terish, ularni bir-birlaridan ajratish, boshqalarga hadya etish an‘ana bo‘lgan.

Qizlar va yosh qizaloqlar to‘planib bog‘larda gullar terishgan, gulchambar, tol bargak to‘qishgan. Tol bargakni sochlariga taqib, o‘yinkulgi qilishgan.

Yozda o‘tkaziladigan xalq bayramlari va tomoshalarida gedonistik belgilar bo‘rtib turadi. Ma‘lumki, O‘zbekistonning iqlimi yozda juda issiq, shu bois xalqimizda ochiq havoda, tabiat qo‘ynida, ya‘ni soya-salqin va sershabada joylarda dam olish an‘ana bo‘lgan.

Yoz faslida keng tarqalgan dam olish shakllaridan biri (ayniqsa, shaharliklar orasida) “**Tog‘ sayli**” bo‘lgan. U ayniqsa hozir ommalashib, gedonistik ehtiyojga aylanib bormoqda. Shuning uchun yozning jazirama kunlarida shaharning diqqinapas havosidan qochib, tog‘ning salqin joylarida, suv bo‘ylarida dam oluvchilar soni tobora ortmoqda. Tog‘ sayli oldindan rejalashtiriladi, boriladigan joy aniqlanadi. Unga, odatda, oilaviy yoki yoru-do‘stlar bilan boriladi. Tog‘ saylida kishilar tabiatning go‘zal



manzaralari va sof havodan bahramand bo‘ladilar, ulug‘vor tog‘lardan zavq-shavq oladilar, havo almashtirib, oqar suvlarda cho‘miladilar. “Tabiatda ulug‘vorlik baland tog‘lar, qudratli sharsharalar, poyonsiz ummon, mavj urayotgan moviy dengizlar, tubsiz osmon va h.k. timsolida namoyon bo‘ladi. Bu erdagi umumiylik – ulardagi ko‘lamdorlik, ulkanlik, buyuklik tuganmaslikdir. Ulug‘vorlik insonda qo‘rquv aralash quvonch, hayratlanish, ehtirom, tan berish tuyg‘ularini uyg‘otadi”<sup>1</sup>. Tog‘ sayli nafaqat estetik zavq olish, tabiatning ulug‘vorligidan hayratlanish, hordiq chiqarish omili, shu bilan bir qatorda salomatlik uchun ham foydalidir. Chunki toqqa dam olishga borganlar u erdagi daryo, anhor va basseynlarda cho‘milib, hordiq chiqarib, badanini toblaydilar, chiniqtiradilar. Ayniqsa, tog‘lardagi tabiiy sharsharalar bor hududlar dam oluvchilarning sevimli maskanlaridir. Sharsharalardagi jozibadorlik, go‘zallik va ulug‘vorlik har qanday kishini hayajonga soladi, unda ko‘tarinki, oliyjanob his-tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Tog‘ sayliga: a) bahorda lola terish; b) yozning jazirama kunlarida havo almashtirish niyatida; v) kuzda “Do‘lana sayli”ga; g) qishda “Qor sayli”ga chiqishgan. Yoshlar tog‘ etagida o‘yin-kulgi qilishgan, o‘z kuchiga ishonganlar tog‘ cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Ular tog‘ cho‘qqisida turib dillaridagi niyatlarini aytgan, pastda qolganlarga qor olib tushgan.

“Tog‘ sayli” birinchidan, kishiga toza ob-havoda bo‘lish, muhitni o‘zgartirish imkonini beradi. Ikkinchidan, kishi uy-ro‘zg‘or, kundalik tashvishlarini unutib, go‘zal tabiat qo‘ynida dam oladi. Uchinchidan, kishi o‘z muhiti tashvishlari bilan o‘ralib qolmay, balki tog‘li xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoiti, urf-odatlarini bilan ham yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa unda hayot va tabiat rang-barangligidan bahra olish kabi estetik ko‘nikmalarni shakllantiradi.

“**Suv sayli**” yoz faslida o‘tkaziladigan xalq tomoshalaridan biridir. Suv omborlari, daryo va ko‘llarda cho‘milish xalqimizga xos an’anadir. Suv saylidan maqsad faqat cho‘milish emas, balki tabiat va zilol suvlar go‘zalligidan zavq-shavq olish hamdir.

Qadimda suv sayliga ayollar alohida, erkaklar alohida borishgan. Ayollar begona nazarlar tushmaydigan pana joylarda cho‘milishgan. Suv

---

<sup>1</sup> Шерова Д. Уйғунлик ва улугворлик: концептуал таҳлил // ЎзМУ хабарлари. -Тошкент, 2018. -№ 1/4/1. - Б.427.

bo'yiga kelgach, dastlab dilidagi niyatlarini aytib, uch marotaba suv ichishgan, yuz-qo'lini yuvishgan. Hali turmush qurmagan yoshlar tilaklarini ayta turib, dastro'mollarini, qalblaridagi niyatlarining amalga oshishini tilab gulchambarlarini suvga oqizishgan. Suv uzra oqib borayotgan turfa gulchambarlar go'zal manzara kasb etgan.

“**Bog' sayli**” juda qadimiy xalq an'analaridan biridir. “Bog' sayli”ga oilaviy yoki do'stlar davrasida borish urf bo'lgan. “Bog' sayli”da tabiat go'zalligidan bahra olingan, arg'imchoq uchishgan, gullar terishgan, bog'ni sayr qilib, miriqib suhbatlashishgan.

“**Dala sayli**”da xalqimizning erga, ona zaminga cheksiz mehr-muhabbati namoyon bo'ladi. Undan maqsad dala, daryo bo'ylari, adir va tog'lar, o'rmonlarda sayr qilish, tabiat go'zalligidan, sof havodan, o'simliklarning, gullarning muattar hidlari, chiroyi, zilol suvlarning salqinidan bahramand bo'lishdir. “Ulkan tog'lar, ko'kka etgan qor cho'qqilaridagi shiddatli bo'ron tasviri qo'rqinch va hayrat hissini uyg'otsa, dalani qoplagan maysalar va gullar yoqimli his-tuyg'uni chaqirib, quvonch, shodlik beradi. Bularning birinchisi ulug'vorlik hissini, ikkinchisi go'zallik tuyg'usini uyg'otadi”<sup>1</sup>. Kishilar dala saylida qo'shiq aytib, dilida yig'ilgan his-tuyg'ularini ifodalash imkoniga ega bo'ladilar. Shuning uchun, sayil kishiga badiiy-estetik zavq beradi, ko'ngilli dam olishini ta'minlaydi.

Kuz faslida asosan hosilni yig'ib-terib olish bilan bog'liq marosimlar o'tkazilgan.

“**Hosil bayrami**”da o'lkamiz xalqlariga xos etnomadaniy va etnoestetik belgilar o'z aksini topadi. Unda, birinchidan, “Mehnat, mehnatning tagi – rohat” degan xalq maqolining ijtimoiy-falsafiy mohiyati aks etadi, ikkinchidan, insonning tabiat kuchlaridan oqilona foydalanishi baxt-saodat, farovonlik keltirishi haqidagi tushunchalari mujassamlashgan. Kuz tabiatning shunchaki vaqt va makondagi o'zgarishi emas, u inson xatti-harakatlarining, intilishlarining, rejalarining u yoki bu ko'rinishda ro'yobga chiqqanini (chiqmaganini) ifodalovchi natija, yakun, ko'rsatkich, simvoldir. Shuning uchun, kuz mavsumiga oid bayramlarda badiiy-estetik, simvolik ma'no mavjud.

---

<sup>1</sup> Шерова Д. Уйғунлик ва улугворлик: концептуал таҳлил // ЎзМУ хабарлари. -Тошкент, 2018. -№ 1/4/1. - Б.428.

Bayram tomoshasi tantanali tarzda boshlangan, ya'ni mehnat ilg'orlari va g'oliblariga turli mukofotlar topshirilgan. San'atkorlar dala mehnatkashlari dilini xushnud etganlar, askiyachilar, masxarabozlar va dorbozlarning chiqishlari, "uloq", "poyga", "qiz quvdi" kabi ot sporti o'yinlari kishilarning maroqli dam olishini ta'minlagan.

Qish faslida, ayniqsa qishloq joylarida odamlarning bo'sh vaqti ko'p bo'lgan. Shuning uchun ular sandal atrofida turli so'z o'yinlari o'ynashgan, qo'shiq va laparlar aytishgan, she'rxonlik, g'azalxonlik qilishgan. Qish faslida o'tkaziladigan tomoshalarda gedonizm yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shunday tomoshalardan biri "**Xalfana**"dir. Qishloq yoki mahalla qizlari yig'ilishib gapga chechan, uddaburon, obro'-e'tiborli qizni o'zlariga "xalfa" qilib saylashgan. Xalfa navbatdagi yig'ilish kimnikida bo'lishini, kim nima keltirishini, tomosha tartib-qoidalarini belgilagan. Qizlar dasturxonga turli eguliklar olib kelishgan. Ovqatlanish tomoshaning asosiy atributi emas, albatta. Erkin suhbat qurish, doira yoki dutor chalib, qo'shiq va laparlar kuylab, raqsga tushish, she'rxonlik, g'azalxonlik qilish, mushoiralar o'tkazish tomoshaning bosh maqsadidir. Unda yoshi kattaroq qizlar kichik dugonalariga pazandalik sirlarini, dasturxon bezatish, mehmon kutish, muomala madaniyatini o'rgatishgan. Demak, "Xalfana" qizlarning estetik didini shakllantirgan, ularni oilaviy hayotga tayyorlash vazifasini o'tagan.

Qishning dekabr oyida 21-dan 22-ga o'tar kechasi eng uzun tun bo'lib, u "Yaldo kechasi" deyiladi. "Yaldo kechasi"da turli bazmlar, gap-gashtaklar, ziyofatlar uyushtirilgan. 25 dekabrda qishki chilla kirgach, ayni sovuq pallasida "Sada" bayrami nishonlangan.

Xalqimizning gedonistik – dam olish va hordiq chiqarish an'analari keyingi yillarda keskin transformatsiyaga uchramoqda. Ushbu o'zgarishlar tabiiy holdir, ammo o'zbek etnomadaniyatidagi o'z qimmatini yo'qotmagan dam olish va hordiq chiqarish an'alarini asrash, ulardan kishilarning badiiy-estetik didini shakllantirishda samarali foydalanish ham muhimdir.

### **Nazorat savollari**

1. Mavsumiy (kalendar) bayram-marosimlarning inson hayotidagi ahamiyati nimada?
2. Bahor fasliga oid qanday bayram-marosimlarni bilasiz?

3. Nima uchun qish fasliga oid bayramlar xalqimiz etnomadaniyatida kam uchraydi?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. -274 b.
3. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
4. Jabborov I. O‘zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
5. Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. –Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, 2009. 5,5 b.t.
6. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.
7. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. T.1. -388 b.
8. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. T.2. -285 b.

## **12-MAVZU. ETNOMADANIYATDAGI INNOVASION VA TRANSFORMATSION O‘ZGARISHLAR**

### **Reja**

1. Etnomadaniyatdagi transformatsion o‘zgarishlar.
2. Madaniy-xo‘jalik tiplari.
3. Ritual va ommaviy tomoshalar.

Etnomadaniyat muqim, barqaror, konservativ hodisa bo‘lsa-da, undagi an’analar va an’anaviy qadriyatlar, tasavvur va tushunchalar transformatsiyaga uchrashi tabiiy holdir. Agar o‘zbek etnomadaniyatidagi estetik merosga nazar tashlasak, unda transformatsiya jarayonlari izchil davom etganini ko‘ramiz.

“Transformatsiya” tushunchasi lotincha “transformare” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u o‘zgarish, bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tish, o‘z mazmun-mohiyati, xususiyati, belgilarini o‘zgartirish

ma'nolarini anglatadi. "Transformatsiya" tushunchasi ijtimoiy fanlarda o'tgan asrda paydo bo'lgan, ammo bu voqea-hodisalarga, ayniqsa ijtimoiy borliqqa, inson faoliyati mahsuli bo'lgan jarayonlarga transformatsiya azaldan taalluqli, ularning immanent belgilari, xususiyatlari bo'lib kelganini inkor qilmaydi. Ayniqsa u etnomadaniyatda intensiv, izchil kechgan.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, etnomadaniyat arxitektonikasi, ko'rinishlari, polifunksionalligi inson va sotsium hayotining barcha sohalari, qirralariga daxldor keng qamrovli, murakkab hodisadir. Goho uning boshlanishi va oxiri qaerda ekanini topish, ilg'ash, boshqa ijtimoiy hodisalar va artefaktlardan, ob'ektivlashgan sub'ektiv tasavvurlardan ajratish qiyin. Shuning uchun biz etnomadaniyatdagi estetik merosni ma'lum bir yo'nalishlarga, sohalarga ajratib o'rganishni ma'qul topdik. Bu, aslida muammoga tizimli, funksional yondashishdir. Shu nuqtai nazardan ob'ektni quyidagilarga klassifikatsiya qilamiz:

1. Madaniy-xo'jalik tiplari.
2. Ijtimoiy-madaniy hayot.
3. Diaxron va sinxron kommunikativ aloqalar.
4. Transsendental va teomifologik tasavvurlar.
5. An'anaviy xalq ijodi va san'ati.
6. Etnomadaniyatda signifikativ jarayonlar.
7. Etnomadaniy va etnoestetik idealning shakllanishi.
8. Ritual va ommaviy tomoshalar.

Ushbu klassifikatsiyada etnoestetik merosning shakllanishidan to etnomadaniy va etnoestetik ideal sifatida yuksalishi nazarda tutilgan. Transformatsiya faqat o'zgarishni emas, evolyusion rivojlanish jarayonlarini ham nazarda tutadi. Oddiy, primitiv, ibtidoiy-estetik tasavvurlarning o'zgarib, transformatsiyaga uchrab, ijtimoiy-tarixiy bosqichlar talablariga muvofiq boyib, rivojlanib, etnoestetik idealga o'sib chiqishini kuzatish endi yaratilayotgan etnoestetik nazariya uchun muhimdir.

Tadqiqotchi I.Jabborovning yozishicha, "odamlar dastavval muayyan tabiiy sharoitga moslashib o'zlarining peshona teri, mehnati va aql-idroki tufayli o'ziga xos xo'jalik-madaniy tiplarini yaratishga majbur bo'lganlar". A.Asqarov esa ularni "madaniy-xo'jalik markazlari" deb ataydi. Uning

fikriga ko‘ra, o‘lkamiz xalqlarining ijtimoiy birlik, etnougushma sifatida shakllanishi madaniy-xo‘jalik tiplarining yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir. “O‘rta Osiyo mintaqaviy rivojlanishining asosida ibtidoiy urug‘ jamoalarining o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tishi, ya‘ni dehqonchilik hamda chorvachilik xo‘jaliklarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi yotadi. Oddiy qilib aytganda, dehqonchilik va chorvachilikning kashf etilishi mintaqaviy rivojlanishning mazmun va mohiyatini tashkil etadi”<sup>1</sup>.

Dehqonchilik va chorvachilikning yuzaga kelishi nafaqat mehnatga, oziq-ovqat izlashga, kun ko‘rishga bo‘lgan munosabatni, shuningdek, kishilarning olamni idrok etishini, ongini ham o‘zgartirib yubordi. Dehqonchilik va chorvachilikka o‘tilishi bilan O‘zbekiston hududida Sarazm madaniyati nomini olgan yangi madaniy-xo‘jalik tipi yuzaga keladi. Tarixchi A.K.Is‘hoqovning qayd qilishicha, Sarazm madaniy-xo‘jalik hayoti ilk dehqonchilik markazi sifatida mintaqamizda o‘ziga xos sivilizatsiyani, turmush tarzi, badiiy, falsafiy, estetik merosni shakllanishini boshlab bergan. Er.avv. IV–II ming yilliklarga taalluqli mazkur madaniyat mintaqada temirdan foydalanishga asos solgan. Topilgan temir qurollar, pichoq, igna, suv idishi kabilar oddiy, kundalik ehtiyojlarni qondirgan<sup>2</sup>. Biroq, temirdan foydalanishga o‘tishning o‘zi muhim ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi voqea edi.

Topilgan idish va qurollar ma‘lum bir estetik did, estetik tasavvur borligidan dalolat beradi. Balki hatto, pichoqlardagi rasmga o‘xshash tasvirlarda sirli belgilar, simvollar aks ettirilgandir. Qanday bo‘lmasin Zarafshon vohasida paydo bo‘lgan Sarazm madaniy-xo‘jalik tipi ajdodlarimizda o‘ziga xos estetik madaniyat bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa Sarazm-1 davri (er.avv. 3500–3300 yillar)da topilgan rangli sopol parchalari, oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlar, munchoqlar, Sarazm-2 davriga xos bo‘lgan, devorlariga qizil rangda naqsh berilgan ibodatxona, rang-barang naqshlar bitilgan sopollar, Sarazm-3 davrida yaratilgan monumental binolar, uy-joy komplekslari, mahalliy naqsh uslubi, devorlarni bezatish, tosh va temirlarga ishlov berish, ov va jang qurollari madaniy-estetik hayot, badiiy ong yangi bosqichga ko‘tarilganini

<sup>1</sup> Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Тошкент: Университет, 2007. – Б. 98.

<sup>2</sup> Исаков А.И. Саразм. К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зеравшанской долины. – Душанбе: Ирфон, 1991. –С. 7-9.

tasvirlaydi. Eng muhimi shundaki, ilgarigi oddiy, utilitar yondashuv o‘rnini Sarazm-4 davri (er. avv. 2300-1900 yillar)ga kelib aniq badiiy, estetik did, g‘oya egallaydi. Endi ajdodlarimiz shunchaki qurollar, idishlar yasashdan madaniy-estetik zavq oladigan, ma’lum bir estetik g‘oyani ifodalaydigan ashyolarni yasashga o‘tadilar. Shu tariqa etnomadaniy hayotda, etnoestetik merosda transformatsiya jarayonlari boshlanadi. Ushbu jarayonlar qolgan barcha yo‘nalishlarga (klassifikatsiyamizda nazarda tutilgan yo‘nalishlar) asos bo‘lib xizmat qiladi, ulardagi etnoestetik merosning shakllanishi va rivojlanishini belgilab beradi.

Ta’kidlash lozimki, o‘zbek etnomadaniyati va etnoestetikasining shakllanishi Sarazm madaniy-xo‘jalik tipi bilan chegaralanmaydi. Ayniqsa, Kaltaminor, Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo‘ton, Anov-Namozgoh (Jaytun), Tozabog‘yob, Qayroqqum (Andronov) madaniyatlari, ulardagi xo‘jalik tiplari katta rol o‘ynaganini qayd qilish lozim. Ushbu madaniyat o‘choqlarida yuzaga kelgan an‘analar, did, tasavvurlar etnoestetik merosning negizi bo‘ldi.

Ijtimoiy-madaniy hayot madaniy-xo‘jalik tiplaridan kengdir. Unga kishilarning sotsiumdagi moddiy va ma’naviy boyliklar, estetik, badiiy, axloqiy qadriyatlar yaratishga qaratilgan barcha faoliyat turlari kiradi. Ijtimoiy munosabatlar uning o‘zagini tashkil etadi. Mazkur yo‘nalish, soha nihoyatda keng, uning barcha qirralarini ilg‘ab olish, qamrash mumkin emas. Shuning uchun biz uni ijtimoiy-madaniy turmush tarzi va an‘analar bilan chegaralashni ma’qul topdik.

“O‘zbeklarning ijtimoiy-madaniy turmushida jamoachilik, ayniqsa, qo‘shnichilik va qishloq jamoachiligi tartiblari, katta oilaning taomil bo‘lishi, ayrim guruhlarda ko‘chmanchilik turmushi va urug‘-qabilaviylik tashkilotlarining elementlari, qadimiy marosim va ibodatlar qoldiqlari keng tarqalgan”. O‘zbek xalqining serhikmat “Hovli olma, qo‘shni ol” maqoli ijtimoiy-madaniy munosabatlarda qo‘shnichilik va jamoachilikning qanday muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Mazkur an‘analar shunchaki munosabatlar emas edi, ular kishilarni inoq, ittifoq va oliyjanob maqsadlar bilan yashashga intilishlarining ifodasi bo‘lgan. Shuning uchun birgalashib to‘y-marosimlarni o‘tkazish, oilaviy bordi-keldi qilish, birgalikda dam olish, farzandlarini nikohlab, quda-anda bo‘lib yashash kabilar o‘zbek etnomadaniyatidan chuqur joy olgan. Etnoestetik nuqtai nazardan bu

an'analar ijtimoiy hayotni yanada go'zal va insoniylashtirishga, kishilararo munosabatlarda o'zaro yordam, ahillik kabi oliyjanob tuyg'ularni shakllantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy-madaniy turmush rang-barang, goho ziddiyatli kechgan. Oilalar, qo'shnilar, elatlar o'rtasidagi munosabatlar turli nizolarni keltirib chiqargan, etnomadaniyatlardagi o'zlikni asrab qolish yirik kurashlarga aylangan. Bu o'rinda "Alpomish"dagi Boybo'ri va Boysari oilalari, og'a-inilar o'rtasidagi nizoni, Boysarining arazlab boshqa ellarga ko'chib ketganini ta'kidlash o'rinlidir. "Minglab qo'ylarini birovga baxshida etishdan qizg'anmaydigan, o'zga yurtida begonalariga "Juz'ya to'lab" yurishga ham hozir Boysari o'z yurtida, o'z akasiga "bir ... uloq"ni zakot uchun bergisi kelmaydi. O'zbek qonunni, tartibni emas, o'zi xayol qilgan, o'zi yasab olgan ma'naviy mezonlarni haq deb biladi. O'ziga yaqin kishini tan olishdan, unga bo'ysunishdan ko'ra, begonaga sig'indi bo'lishni afzal biladi. O'zbekka xos ruhiyat – bu"<sup>1</sup>. Ushbu ruhiyat dostonida ro'y-rost va barcha drammatizmi bilan tasvirlangan. Aka-uka o'rtasidagi nizo Alpomish bilan Barchinni son-sanoqsiz sarguzashtlar, xavf-xatarlarni boshdan kechirishiga olib keladi. Ammo Boybo'ri bilan Boysari o'rtasidagi nizoning etnoestetik xususiyati mavjud. Sir shundaki, Boybo'ring ko'chib ketganini akasi qo'rqqoqlik, sotqinlik, o'jarlik, hatto mavjud tartiblarga bo'ysunmaslik deb biladi. Aslida ham shunday edi. Akasining zakot talab etishini zo'ravonlik deb qabul qilgan Boysari zakotning nafaqat ijtimoiy-siyosiy jihatlari, shu bilan birga akasining adolatparvarligi ramzi, o'zbekona urf-odatlariga muvofiq keladigan an'anaviy talab ekanini esiga olmaydi. Natijada fojia ro'y beradi – aka-uka bir-biridan tan olmaslik darajasida yiroqlashadilar. Fojia doston yakunida pozitiv hal etilsa-da, bosh qahramonlar boshidan kechirgan sarguzasht va xavf-xatarlar o'quvchini larzaga soladi.

Aka-uka, og'a-inilar o'rtasidagi manfaatlar va qarashlar to'qnashuvi davlat, mol-mulk, tabaqalar va etnosiyosiy ta'sirlar tufayli keyingi asrlarda yanada avj oladi. O'rta Osiyoda yuzaga kelgan xonliklar, ular o'rtasida to XX asrgacha davom etgan nizolar xalq madaniyatiga, etnoestetik merosga ta'sir etmasligi mumkin emas edi. Ushbu ta'sirni biz Mashrabdan tortib to Ahmad Donish, Avaz O'tar, ma'rifatparvar-jadidchilar ijodida yaqqol

---

<sup>1</sup> Йўлдошев Қ. "Алпомиш" талкинлари. –Тошкент: Маънавият, 2002. –Б. 20.



ko‘rishimiz mumkin. Etnoestetik merosda ezgulik, adolat tantanasi, insoniy fazilatlarining, go‘zal va oliyjanob amallarning tantana qilishi dadil tasvirlangan. Erkin yashovchi, ozod, mustaqil, barcha xalqlar bilan teng huquqli o‘zbek millati va davlati ushbu etnoestetik merosda idealga aylanadi.

Etnomadaniyat, eng avvalo, diaxron va sinxron kommunikativ aloqalar mahsulidir. Agar diaxron kommunikativ aloqalar avlodlararo tarixiy-madaniy aloqalarni anglatrsa, sinxron aloqalar turli avlodlar, elatlar va etnoslararo ijtimoiy-madaniy munosabatlarni bildiradi. Bu o‘rinda vorisiylik bilan ijtimoiylik, an‘anaviylik, tarixiylik bilan zamonaviylik uyg‘unlashadi, bir-biriga ro‘para keladi.

O‘lkamiz xalqlari madaniyatida an‘anaviylik va zamonaviylikning dialektik bog‘liqligini maxsus tadqiq etgan E.G.Abramyan e‘tiborli xulosaga keladi. Uning fikriga ko‘ra, madaniyatdagi an‘anaviylik inson bilan ijtimoiy borliq o‘rtasidagi muvozanatni, uyg‘unlikni, evolyusion o‘zgarishlarni barqarorlashtirish maqsadini o‘z ichiga oladi. Etnomadaniyatdagi an‘analarga aylangan stereotiplar, qadriyatlar, qarashlar inson bilan ijtimoiy borliq, ayniqsa siyosiy tuzum, davlat o‘rtasidagi munosabatlarga uyg‘unlik baxsh etgan. “Lokal stereotiplar” nomini olgan an‘analar, hatto ular ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda transformatsiyaga uchragan bo‘lsa-da, etnomadaniy rivojlanishga salbiy ta‘sir ko‘rsatmagan, balki, aksincha, ijtimoiy-madaniy turmush tarzidagi o‘ziga xoslikni mustahkamlagan<sup>1</sup>. Ushbu transformatsiya jarayonlari etnoestetik merosda (masalan, xalq tasviriy san‘atida, xalq kitobat-matbaachiligida, islom qaror topgan davrda rivojlangan naqsh san‘ati va rus madaniyati ta‘sirida yuzaga kelgan rangtasvir, portret janrida) ko‘zga tashlanadi.

Etnomadaniyatdagi diaxron aloqalar vorisiylik prinsipiga muvofiq kechgan. Avlodlar o‘rtasidagi etnoestetik aloqalar esa ajdodlarning go‘zallik, xunuklik, ulug‘vorlik, fojiviylilik va kulgililik borasidagi tasavvurlariga monand bo‘lgan. To islomgacha bo‘lgan xalq ijodi va san‘atida, urf-odatlar va marosimlarda ezgulik, yorug‘likning yovuzlik, qorong‘ulik ustidan g‘alabasi (bu “Avesto” ta‘sirida shakllangan, albatta) tarannum etilgan. Xalq kitoblaridagi hikoyalar (masalan, “Yusuf va

---

<sup>1</sup> <http://lslobvud.allalla.com/coed/785-abramjan-eh-g-u-istokov-kulturnojj-tradicii.html>. –C. 32-38.

Zulayho”, “Ming bir kecha”, Birbala sarguzashtlari haqidagi qissalar va boshqalar), xalq ertaklari va dostonlari mudom ezgulikning, adolat hamda go‘zal tuyg‘ularning tantanasi bilan yakunlanadi. Islom dini keng yoyilgach, xalq ijodi va san‘atida nafaqat sehrli kuchga, ta‘sirga ega avliyolar, avliyosifat qahramonlar, xudo, Alloh tasvirlari, erkni, farovonlikni, adolatni ilohiy ne‘mat, in‘om sifatida tasvirlovchi syujetlar, Ali, Fotima, Sulaymon payg‘ambar kabi obraz-qahramonlar paydo bo‘ladi. Tasavvufona estetik qarashlar keng yoyiladi. Etnoestetik qarashlarning diniy-tasavvufiy yo‘nalishga evrilishi islomning xalq hayoti, turmush tarzi va mentalitetidan chuqur joy olganining natijasi edi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib etnoestetik merosda kuchli transformatsion jarayonlar boshlanadi. Buni buyuk ma‘rifatparvar-jadidchi ajdodlarimiz asarlarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Sinxron aloqalar butun millatga, elatlarga, etnomadaniyatlarga yo‘naltirilgani uchun ular: 1) etnosni birlashtirish, millat sifatida etnomadaniyatini shakllantirishga; 2) boshqa xalqlar, etnomadaniyatlar bilan integratsiyasini mustahkamlashga qaratiladi. Etnoestetik meros ushbu sinxron aloqalardagi oliyjanob maqsadlarni, do‘stlikni, ulug‘vorlik va go‘zallikni ifoda etadi, ularni o‘z ichiga oladi. Etnomadaniyatdagi diaxron va sinxron aloqalar etnoestetik vositalar, usullar, tasvirlar orqali internasionallashgan, umuminsoniy mohiyatga ega syujetlarni yaratadi. Bunday mohiyatni kimdir o‘ylab topgan emas, u asrlar osha etnoestetik ehtiyojlar ifodasi sifatida xalq hayotidan joy olgan. Shuning uchun kommunikativ aloqalar faqat til, semiotika, simvollar emas, ular etnomadaniyatning negizidan joy olgan, urug‘lar, qabilalar, elatlar va turli etnik uyushmalarni yaqinlashtirgan, integratsiyaga etaklagan paradigmal hodisadir.

Etnomadaniyatda transsendental va teomifologik tasavvurlar muhim o‘rin tutadi. Real borliq inson dilini qoniqtirmagan, u ushbu borliqdan tashqarida nima borligini bilishga intilgan. Shu tarzda etnomadaniyatdan transsendental va teomifologik tasavvurlar, izlanishlar, tajribalar joy olgan. Ushbu tasavvurlarga ilk kosmologik, mifologik qarashlar, astrologik, intuitsiyaga asoslangan bashoratlar, din, diniy qarashlar, e‘tiqodlar kiradi.

Transsendental va teomifologik tasavvurlar ibtidoiy davrlarda paydo bo‘lgan, ammo ular keyingi tarixiy taraqqiyotda, ma‘naviy-ruhiy hayotda

etakchi rol o'ynagan. Ulardan ilhomlanmagan, ular ta'sirida transformatsiyaga uchramagan birorta xalq, etnomadaniyat va etnoestetika yo'q.

Transsendental va teomifologik tasavvurlarning xalq ijodi va san'atiga ta'siri ijtimoiy ongdagi yangilikka, o'zgarishga, transformatsiyaga moyillik tufayli ro'y bergan. Nafaqat ayrim olingan shaxs, inson ongi, xuddi shuningdek, ijtimoiy ong ham transformatsiyaga muhtoj va moyildir. Masalan, o'lkamiz xalqlari to VII asrgacha zardo'shtiylikka e'tiqod qilgan. Undan oldin ajdodlarimiz politeizmga, buddizmga moyil edilar. Zardo'sht ularning e'tiqodini o'zgartirib yubordi va ular qalbiga monoteistik qarashlarni, zardo'shtiylikni olib kirdi. Agar ajdodlarimiz ma'naviy-ruhiy jihatdan zardo'shtiylikni qabul qilishga tayyor bo'lmaganlarida u yirik dinga, e'tiqodga aylanmagan bo'lardi. Ammo kelgusi tarixiy-madaniy rivojlanish ijtimoiy ongni muqim, qotib qolgan, mutlaq o'zgarimas narsa emasligini ko'rsatdi. Ya'ni VII asrdan boshlab ijtimoiy ong islom dini, e'tiqodi tomon yuz tutdi. Natijada ongda, ma'naviyatda, etnomadaniyatda navbatdagi yirik o'zgarish, transformatsiya yuz berdi. Bu, aslida substansional mohiyatiga ko'ra, an'anaviylikdan mutlaq voz kechish emas edi, balki inson qalbidagi transsendentga, teomifologik tasavvurlarga moyillikning yangi ijtimoiy, tarixiy-madaniy bosqich talablariga moslashishi edi. Islom dinining ayrim hududlarda (masalan, Xorazmda) agressiv, repressiv tarzda joriy etilgani kuzatilsa-da, u mintaqamizda etnoslarning ma'naviy-ruhiy olamiga, ehtiyojlariga mos tarzda, inqiloblarsiz, "salb yurishlari"siz yoyildi. O'lkamiz xalqlari, ularning etnomadaniyati an'anaviy tasavvurlarini zamonaviylashtirishga tayyor ekanini namoyish etdi. Islom dini va madaniyati bizga chetdan kirib kelgan bo'lsa-da, u bir asr o'tmay ijtimoiy-madaniy hayotda, xalqlarimiz etnopsixologiyasi va ma'naviyatida "ijtimoiy inqiloblar ham o'zgartirishi qiyin bo'lgan" paradigmaga aylandi. Bunday o'zgarish, transformatsiya xalq mavjud ekan, yana davom etadi. Bu esa etnomadaniyat o'zgarishga moyil dinamik hodisa ekanidan dalolat beradi. Demak, bugungi an'ana ertaga yoki indinga zamonaviy talablar ostida transformatsiyaga uchrashi aksiomadir.

An'anaviy xalq ijodi va san'ati deganda, asosan, folklor (xalq og'zaki ijodi) va xalq hunarmandchiligi nazarda tutiladi. O'zbek

etnomadaniyatida folklor xalq og‘zaki ijodiga nisbatan keng ma’noda qaraladi. Unda musiqa folklori, marosim folklori, raqs folklori, o‘yin folklori kabilar ham bor. Ta’kidlash lozimki, an’anaviy xalq ijodi va san’atiga xalqimiz tomonidan yaratilgan, uning etnomadaniyati paradigmasidan joy olgan badiiy-estetik boyliklar kiradi. Badiiy-estetik obrazlar, simvollar, tasvirlar yaratish ushbu ijod va san’at sohasining asosiy xususiyatidir.

“Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo‘lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan badiiy-estetik idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoyilda qaytadan aks ettirishga havas uyg‘otadi. Shakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u, o‘z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o‘rin ola boshladi. Natijada badiiy-estetik ijodning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo‘ldi”<sup>1</sup>. Shu bilan birga qadimda shakllangan ba’zi xalq ijodi va san’ati turlari islom davriga kelib transformatsiyaga uchraganini qayd etib, S.Bulatov fikrini davom ettiradi: “Ma’lumki, islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir tangriga xosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, inchunun, bordiyu biror ishni yuqori takomil darajasida ijro etish imkoni yo‘qligi avvaldan ma’lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o‘zi aqldan emasdur”. Xullas, islom dini bilan bog‘liq tasavvurlar tirik mavjudotlarni tasvirlashga emas, balki bezak san’atini, ganchkorlik, koshinkorlik, xattotlik, toshtaroshlik, hunarmandchilik, zardo‘zlik kabi ijod turlarini rivojlantirishga undadi. Bunday transformatsion o‘zgarishni raqs, ashula, masxarabozlik, xalq teatri kabi sohalarda ham kuzatamiz.

Etnomadaniyatdagi signifikativ jarayonlar bir tomondan, etnos ichidagi elatlar, hududlar, qabilalarning umumxalq madaniyatini; ikkinchi tomondan esa, ularning o‘z submadaniyatini yaratishini ifoda etadi. Masalan, o‘zbek etnomadaniyati bir tomondan, barcha viloyatlarda yashovchi aholining, elatlarning submadaniyatlarini o‘z ichiga oladi

---

<sup>1</sup> Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Тошкент: Меҳнат, 1991. –Б. 7.

(integratsiya), ikkinchi tomondan, ularga o'ziga xos bo'lgan submadaniyatlar yaratishni davom ettirishga (differensiatsiya) imkon beradi. Shu tariqa etnomadaniyatda umumiylik va rang-baranglik, monomadaniyat va polistilistik madaniyat uyg'un, bir-biriga ta'sir etib keladi. Etnoestetik meros ushbu integratsiya va differensiatsiya jarayonlarini o'zida ifoda etadi va badiiy-estetik vositalari, usullari bilan an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ta'minlaydi. Shuning uchun etnoestetik meros madaniyatdagi integratsiyanigina emas, differensiyani ham o'ziga jo etadi, shu tariqa u signifikativ voqelikka aylanadi. Signifikativ jarayonlar etnomadaniyatdagi transformatsion o'zgarishlarni ta'minlaydigan, etnomadaniyatni jonli organizm sifatida yashashini, rivojlanishini ta'minlaydigan eng samarali hodisadir.

Etnomadaniyat va etnoestetikadagi bosh maqsad xalqda, kishilarda madaniy yoki estetik idealni shakllantirishdir. Ijod va san'atda idealga etish amri mahol narsa emas. Ijod va san'at sohasida shunday betakror, nodir, g'oyat go'zal asarlar borki, ularni ideal sifatida qabul qilish mumkin.

Etnomadaniyatidan chuqur joy olgan botir, oliyjanob fazilatli qahramonlar, sadoqatli, sarvqomat, go'zal, parivash xotin-qizlar obrazlarini o'zbek xalqi ideallar sifatida tasvirlagan. Ba'zan ushbu qahramonlar, obrazlar sodir etadigan noo'rin xatti-harakatlar, adashishlar ham ularni mukammal siymolar sifatida qabul qilishga xalaqit bermaydi. Shu bilan birga ideallar ham transformatsiyaga uchraydi, ular xarakteri va xatti-harakatlaridagi an'anaviylik zamonaviy motivlar bilan to'ldiriladi. Zamonaviy badiiy-estetik didga, davr talablariga mos kelmagan ideal o'quvchida qiziqish uyg'otmaydi. Shuning uchun ham ba'zi xalq ijodi va san'ati turlarini kishilar passiv, goho istehzo bilan tomosha qiladilar. Estetik ideal esa resipientni ijodga, yaratishga undashi lozim.

Odat va ommaviy tomoshalar etnomadaniyatdagi ilk estetik voqeliklardan biridir. Odat (ritual) kishilarning etnos, sotsium talablariga muvofiq "bir xildagi xatti-harakatlaridir". To'g'ri, ilk arxaik odatlar beayov, hatto g'ayriinsoniy bo'lgan. (Masalan, gulxan atrofida aylanish, cho'g', pichoq bilan tanada belgi qoldirish, tiriklay ko'mish (ko'milish) yoki o'ldirish (o'ldirilish), qoya, tepalik ustidan o'zini yoki mayitni tashlab

yuborish va h.k.) Hozir ham ushbu ibtidoiy odatlarning ko‘rinishlari, qoldiqlari u yoki bu etnomadaniyatda uchrab turadi.

Kishi etnosga, sotsiumga moyil odatni bajarar ekan, o‘zini ushbu ijtimoiy birlik bilan uyg‘unligini, birligini his etadi. Ushbu tuyg‘u uni ko‘pchilik tomonidan e‘tirof etilgan axloqiy-estetik xatti-harakatlarni e‘tirozsiz bajarishga undaydi. Gulxan atrofida aylangan, undan sakrab o‘tib, qo‘liga cho‘g‘ olgan, bu bilan o‘zini elat, qabila, etnos o‘rnatgan odatlarga bo‘ysunishini ko‘rsatgan ajdodlarimiz mazkur xatti-harakatini go‘zal, serma‘no deb bilgan. Ular uchun mavjud odatlar nafaqat itoatgo‘ylik, elat bilan uyg‘unlik, shuningdek estetik mohiyatga ega go‘zal odatlar, normalar edi. Shuning uchun ham ular o‘z farzandlarini ushbu ruhda tarbiyalab, initsiasiyadan o‘tishga tayyorlab borganlar.

Ommaviy tomoshalar – bayramlar, sayillar, to‘ylar, marosimlar etnoestetik vositalar va g‘oyalarga shunchalik boyki, birorta xalqni, birorta davrni ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Sinkretik xususiyatga ega ushbu etnomadaniy hodisalar bir tomondan, xalq an‘analarini o‘zida ifoda etsa, ularni asrovchi institut vazifasini o‘tasa, ikkinchi tomondan har bir davrning ijtimoiy-madaniy va badiiy, estetik, g‘oyaviy talablarini qondiradi. Agar xalq kitoblari, ertak va dostonlarida, maqol va paremiologik merosida konservatizm, hatto arxeik tasavvurlar yaqqol ko‘zga tashlanib tursa, ommaviy tomoshalar zamon talablariga tez moslashish xususiyatiga ega. Jumladan, eramizdan avval yuzaga kelgan “Navro‘z” bayramini olaylik. Tadqiqotchilarning xabar berishicha, qadimda Navro‘z kuni tomoshabinlar bir-biriga suv sepishgan. Shu bois suv bilan bog‘liq marosim – “Suv xotin” (“Sust xotin”) yuzaga kelgan. Bu marosim “bahor-yoz oylarida yomg‘ir yog‘may, ekinzorlar qovjirab, qurg‘oqchilik boshlanganda “yomg‘ir chaqirish” maqsadida tashkil qilingan. Oqsoqollarning ko‘rsatmasiga binoan, qishloq ayollari katta qo‘g‘irchoq yasashib, unga kampirning ko‘ylagini kiydirishgan, so‘ngra maxsus qo‘shiqlar aytishib, qo‘g‘irchoqni dalalardan, ko‘chalardan ko‘tarib o‘tib, har bir xonadonga olib kirishgan. Marosim qatnashchilari “Suv xotin” qo‘shig‘ini aytib uylarga kirishgan, uy egalari ularni xursandchilik bilan qarshilab, albatta, qo‘g‘irchoq ustidan suv sepishgan, o‘z imkoni doirasida xayr-ehson qilishgan”. Ushbu marosimning keyingi asrlardagi taqdiri haqida biror nima deyish qiyin, chunki tarixiy, yozma

manbalar yo‘q. Ammo XXI asrga kelib Navro‘z bayrami tizimida bunday marosim saqlanib qolmaganini kuzatamiz. Mazkur marosim birdaniga yo‘q bo‘lmagan yoki bayram tizimidan tushirib qoldirilmagan, albatta. O‘rta Osiyoda sun‘iy sug‘orish tizimining keng joriy etilishi “Suv xotin” marosimiga hojat qoldirmagani aniq. Demak, xalq tomoshalarida transformatsion o‘zgarishlar ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, xalq hayotida, turmushida sodir bo‘lgan yangiliklar ta’siridan chekkada qolmagan. An’anaviy marosimlar o‘rnini ixcham, badiiy-estetik boy, ijtimoiy-madaniy hayotga mos keladigan zamonaviy marosimlar, badiiy-estetik syujetlar, usullar va mavzular egallagan.

### **Nazorat savollari**

1. Etnomadaniyatdagi qanday innovasion o‘zgarishlarni bilasiz?
2. Etnomadaniyatdagi transformatsiyaga misol keltiring.
3. Etnomadaniyatdagi bosh maqsad nima?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007. -339 b.
2. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. -274 b.
3. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
4. Jabborov I. O‘zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
5. Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. –Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, 2009. 5,5 b.t.
6. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.
7. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. T.1. -388 b.
8. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. T.2. -285 b.

## **13-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA ETNOMADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**

### **Reja**

1. Madaniyatni rivojlantirish va prognozlash muammolari.
2. «Ommaviy madaniyat»ning tub mohiyati.
3. O‘zbek etnomadaniyatini qayta tiklash, uning tarbiyaviy va badiiy-estetik imkoniyatlaridan foydalanish masalalari.

Madaniyatni rivojlantirish va prognozlash muammolari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar bu sohada aniq bir metodologiya hali ishlab chiqilmaganini, madaniy jarayonlarni o‘lchash, rivojlanishning samarali yo‘llarini topish murakkab vazifa ekanligini yakdillik bilan qayd etadilar. Bundan tashqari madaniyatni ma’lum bir rejalar asosida boshqarish va rivojlantirish mumkin, degan fikr sovetlar davrida aksioma sifatida qaraldiki, bu o‘sha paytda hukm surgan markazlashtirilgan tarzda totalitar boshqarishning natijasi edi. Madaniyatning tashqi tazyiqsiz, ijodiy erkin faoliyat sifatida rivojlanish qonuni bilan jamiyatni kommunistik monoideologiya maqsadiga muvofiq totalitar boshqarish o‘rtasidagi ziddiyat madaniy hayotga, xalqimiz etnomadaniyatiga salbiy ta’sir qilmay qolmadi. Mustaqillik xalq an’anaviy madaniyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni yaratganidan kelib chiqib, U.H. Qoraboev uni, xalq an’anaviy madaniyatining joylardagi ko‘rinishlarini avaylab-asrash, xalq talantlarini izlab topish va ularga zarur uslubiy yordamlar ko‘rsatish, madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ommaviy tadbirlar o‘tkazib turish, ijodiy uyushmalar tuzish orqali rivojlantirish mumkin, deb ko‘rsatadi. Shubhasiz, xalq etnomadaniyatidagi ijobiy jihatlarni avaylab-asrash uchun ijtimoiy-tarbiyaviy imkoniyatlardan keng foydalanish zarur. Xalq ijodi va talanti azaldan erkin ijodiy faoliyat, kishining olamni idrok etishga yo‘naltirilgan badiiy-estetik qiziqishlarining in’ikosi sifatida rivojlanib kelgan. Ixtiyoriylik, insonning o‘z ruhiy-ma’naviy kechinmalarini ifoda etishga bo‘lgan ehtiyoji etnomadaniy jarayonlarni rang-baranglashtirgan, turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarga ijtimoiy-zaruriy tus bergan. Millat, xalq o‘zligini anglagan sayin ushbu xususiyatlarni, etnomadaniy omillarni umumlashtirishga, asrashga, o‘z mavjudligining ijtimoiy-tarixiy qonuni, sharti, determinanti sifatida ulardan



foydalanishga intilgan. Kommunistik tuzum xalq madaniyati va ijodiga siyosiy ideologik tarbiya vositasi sifatida yondashdi, unda milliy, hududiy, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, mustaqil tarzda xalqaro madaniy aloqalar o'rnatish imkoniyatlari borligini hisobga olmadi. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tishi xalq madaniyati va ijodiga xo'jalik hisoblarini, madaniyat marketingini olib kirdi. Natijada, Respublikamizda davlat va jamoat tashkilotlari (masalan, kasaba uyushmalari)ga qarashli madaniyat o'choqlari va xalq ijodi bilan shug'ullanuvchi ijodiy uyushmalardan tashqari yarim xo'jalik, to'la xo'jalik usulida ishlovchi, xususiy madaniyat maskanlari ham yuzaga keldi. Masalan, bularga xususiy golf-klub, poni klub, kafe-klub va kompyuter-klublar misol bo'lishi mumkin (xalq etnomadaniyatiga, an'anaviy ijod, urf-odatlar, an'analar, marosimlar va ommaviy bayramlarga taalluqli bunday maskanlar uchramaydi). Ularning asosan yirik shaharlarda va shunday madaniy xizmat turlariga ehtiyoj yuqori joylarda tashkil etilishi kuzatiladi. Lekin bu kishilarning etnomadaniyatga qiziqishi yo'q, degan fikrni anglatmaydi. Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida xalq an'anaviy ijodi va san'atiga bo'lgan qiziqishlar keskin oshgan.

«Ommaviy madaniyat» o'tgan asrning o'rtalariga kelib jahonda, ayniqsa ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti yuksalayotgan davlatlarda keng tarqaldi. Uning inson ongi va hissiyotiga salbiy ta'sir qilayotganini chet ellik mutaxassislar T.Adorno, D.Makdonald, B.Rozenberg ham ta'kidlaydi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi va jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy integratsiyaning kengayishi «ommaviy madaniyat»ni umumplanetar hodisaga aylantirdi. Bu ta'sirdan sobiq SSSR, shu jumladan, O'zbekiston ham chekkada qolmadi. «Ommaviy madaniyat» kishini real voqelikdan chalg'itadi, uni xayollar, istaklar dunyosiga etaklaydi, zo'ravonlikni, vahimali va engil-yelpi narsalarni targ'ib qiladi, u kishilarni fikrlashga, o'zligini namoyon qilishga, ijodga emas, balki tayyor asarlarni ko'rib, vaqt o'tkazishga mo'ljallangandir.

«Ommaviy madaniyat»ning asosiy vositalari - radio, televidenie, matbuotsiz ijtimoiy-madaniy hayotni, umuman taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. «Urush va tinchlik» romanini bo'sh vaqtda o'qishi uchun kishiga kamida bir oy kerak, televidenie orqali esa u roman bilan 2-2,5 soat

ichida tanishishi mumkin. Bu o'rinda inson yon-atrofdagi informasiyalarning 95 % ni ko'zi bilan olishini unutmazlik zarur.

«Ommaviy madaniyat» keng ommaga, oila va ish tashvishlari bilan mudom band kishiga mo'ljallangan. Shuning uchun unga nisbatan eskeypizm (og'ir mehnat va turmush tashvishlaridan vaqtincha xalos bo'lish) xos. Oddiy kuzatishdan ma'lum bo'ladiki, o'zbek ayollari «ommaviy madaniyat»ning yorqin namunasi bo'lgan hind filmlari, turk, koreys, meksika, braziliyaliklarning teleseriallarini tomosha qilishni sevadilar. Umuman «ommaviy madaniyat» badiiy asarlardagi sentimental tomonni bo'rttirib, kuchaytirib tomoshabinni o'ziga jalb etishga intiladi. Bu ijodkorlarning usuli va huquqidir. Bizning fikrimizcha, badiiy saviyasi yuqori bo'lmasa-da, har bir ijodkor o'z asarini sotish, namoyish qilish huquqiga ega. Demak, «ommaviy madaniyat»ga oid asarlarning ijodkorlari ham o'z mahsulotlarini tarqatish, ulardan foyda olish, tomoshabinlar esa, shu jumladan, xalq ham, ularni ko'rish, istamasa ko'rmaslik va xarid qilib olmaslik huquqiga ega. Tomoshabinlarda nimani ko'rish, o'qish yoki qaysi ijod turi bilan shug'ullanish mumkinligini erkin, o'z ma'naviy ehtiyojlari va qiziqishlariga qarab tanlash imkoniyatlari bo'lishi lozim. «Ommaviy madaniyat» asarlarini mutlaq rad etish, ba'zi tadqiqotchilar va jurnalistlar taklif etayotganidek namoyish qilishni taqiqlash demokratik tamoyillarga, madaniyatning ichki rivojlanish qonunlariga ziddir. Ammo bu badiiy-estetik saviyasi past asarlarni ochiq tanqid qilishni ham rad etmaydi.

Bo'sh vaqt va undan foydalanish kishilarni ijtimoiy hayotga jalb etishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Vaqtga munosabat - hayotga munosabat, kishining o'z burchiga, hayotiy maqsadlariga munosabatidir. «Vaqtimizning bir qismini tortib oladilar, -deb yozgan edi bundan ikki ming yil oldin Seneka, - bir qismini o'g'irlyadilar, bir qismi esa behuda o'tadi. Biroq hammasidan uyatlisi, uni o'zimizning befarqligimiz tufayli yo'qolganidir.» Vaqtning ijtimoiy ahamiyati oshib borayotgan va shaxsning faol hayot tarzi uchun imkoniyatlar kengaygan hozirgi paytda vaqtning qadriga etmaslik mumkin emas. Chunki, vaqt borliqni, o'z navbatida insonning ham o'zgarishini belgilovchi me'yordir. Shuning uchun ham madaniyatshunoslar bo'sh vaqtni inson ijodiy faoliyatidagi jarayonlar bilan dialektik bog'liqlikda o'rganadi va insondagi ijodiy kuchlarning ro'yobga chiqishini bo'sh vaqtning hajmi va undan

foydalanish ko'nikmalari bilan bog'laydi. Xalqimizning kuniga necha soat vaqti borligini hozir aytish qiyin, chunki bu borada rasmiy ham, ilmiy ham kuzatish o'tkazilmagan.

Etnomadaniyatning mavjudlik sharti, uni ijtimoiy-madaniy hayotda tarixiy-madaniy paradigma sifatida barqaror bo'lishi xalqimizning ma'naviy-madaniy qiziqishlariga bevosita bog'liqdir. Ushbu qiziqishlar qanchalik rang-barang va zamonaviy ehtiyojlarga, talablarga javob bersa, bir tomondan, an'anaviy madaniyat (etnomadaniyat)ni asrab-avaylash uchun muhim ijodiy muhit yaratilgan, ikkinchi tomondan, etnomadaniyatni modernizatsiyalash orqali uni ijtimoiy hayotning real (ijtimoiy-madaniy) muammolarini hal etish vositasi topilgan bo'ladi.

Etnomadaniyat, xalq an'anaviy ijodi hozir zamonaviy san'at bilan uyg'unlashib, modernizatsiyalashib, o'z navbatida xalq ijodi ham zamonaviy san'atni xalqqa, ko'pchilikka yaqin, tushunarli qilish orqali rivojlanish yo'lidan bormoqda. Shuning uchun etnomadaniyatni faqat uzoq o'tmishga taalluqli, o'zgarmaydigan san'at, ijod turlari, marosimlar, an'analar, bayram va tomoshalar deb qaramaslik, balki uni xalq ijtimoiy hayoti bilan mudom dialektik bog'liq, u bilan birga transformatsiyaga uchrab, kishilarning ma'naviy-madaniy qiziqishlari va innovatsiyalar ta'sirida modernizatsiyalashib keladigan voqelik sifatida qarash kerak. Lekin etnomadaniyatdagi o'zak, ya'ni o'zbek xalqiga xoslik mudom saqlanib qoladi. Respublikamiz madaniyatshunoslari madaniyatda ikki, ya'ni, bir tomondan, o'zgarmaydigan ichki (o'zak qatlam) va ikkinchi tomondan, tashqi ta'sirlar, ijtimoiy-tarixiy rivojlanish, ob'ektiv omillar ta'sirida o'zgarib turadigan ustki qatlam mavjud deganida yuqoridagi jarayonlarni nazarda tutgan.

Etnomadaniyatning rivojlanishini oilaviy yoki mahalla doirasi bilan cheklab, chegaralab bo'lmaydi, aks holda etnomadaniyat oilaviy-maishiy marosimlardangina iborat bo'lib qoladi. U butun jamiyatni, xalqni, millatni ijodiy-madaniy jarayonlar sub'ektiga aylanishini hamda maxsus ijtimoiy-madaniy institutlar (ma'naviyat va madaniyat saroylari, xalq ijodiyoti uylari, teatrlar va b.)ning faol ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot ishlarini talab etadi.

Bugungi ijtimoiy-madaniy institutlar infrastrukturasi ham, ularning moddiy texnika bazasi ham davr talablariga javob bermaydi. Ijtimoiy-

madaniy infrastrukturani yangi talablar va ko'rsatkichlar asosida qayta tashkil etmay, nodavlat madaniyat o'choqlarini ma'naviy hayotimizning tarkibiy qismiga aylantirish qiyin. Xalqimiz madaniy-maishiy xizmat sohasida xususiy oshxona, kafe, kompyuterxonalar ochmoqda. Ushbu izlanishlarni xalq etnomadaniyatiga ham tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Biroq biz xalq etnomadaniyatini o'rganish va targ'ib qilish mutlaq pullik madaniy xizmat-kommersiya orqali rivojlanadi degan fikrni bildirishdan uzoqmiz. Xalq ijodi va san'atida azaldan ixtiyoriylik hamda pullik xizmat ko'rsatish yonma-yon kelgan, ularning qachon pullik va qachon ixtiyoriy bo'lishini tomonlar o'zaro kelishgan tarzda hal etgan. Ushbu etnomadaniy an'anaga amal qilish, bizning fikrimizcha, etnomadaniyatning o'z ichki qonunlariga muvofiq rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbek xalqi uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida o'ziga xos etnomadaniyat yaratgan. U boshqa xalqlar, millatlar madaniyati bilan integratsiyalashib, hayot tarziga mos kelgan innovatsiyalarni qabul qilib, o'zi ham novatsiyalar yaratib kelgan. Etnomadaniyat milliy madaniyatning o'zak qismi, poydevori sifatida keladi. Millatning, xalqning tarixiy-madaniy paradigmasi, o'ziga xosligi, genezisi, shakllanishi va boshqa etnoslar bilan aloqalari ular, ulardagi dinamik o'zgarishlar orqali aniqlanadi. Millat, xalq mavjud ekan, etnomadaniyatni inkor qilish yoki uning konvensional (etnik va milliy) negizlarini unutish mumkin emas. Ushbu konvensional negizlarning uyg'unligi asosida shakllangan qarashlar, moddiy va ma'naviy boyliklar, artefaktlar, an'analar xalqqa, millatga o'zligini anglash imkonini beradi, ularni ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning sub'ektiga aylantiradi. Ammo, etnomadaniyatning xalq qalbi va ruhidan, hayotidan chuqur joy olishi, uning tarixiy-madaniy boyliklariga, artefaktlari, qadriyatlariga aylanishi estetik omillarga, ya'ni badiiy-estetik tafakkur, tajriba, did, tasvir, mahorat va ideallarga bog'liqdir. Etnomadaniyatning umrboqiyliigi, muqim va barqarorligi tarixiy faktlarning, reallikning mavjudligida emas, balki, ularning xalq qalbi va ruhidan joy olishini ta'minlagan badiiy-estetik omillar ta'siri tufaylidir. Ushbu badiiy-estetik omillarni bilmay, ular mohiyatiga etmay, o'zbek etnomadaniyatini tushunish, e'zozlash qiyin.

Etnomadaniyatga barqarorlik, muqimlik xos bo'lsa-da, u xalq hayotidan, undagi yuz berayotgan o'zgarishlar, transformatsiya

jarayonlaridan chekkada turolmaydi. Etnomadaniyatdagi milliylik va umuminsoniylik, an'anaviylik va zamonaviylik, barqarorlik va o'zgaruvchanlik estetik qadriyatlarga, badiiy tasvir va badiiy jarayonlarga maqsad, vazifa beradi. Mazkur maqsad, vazifa esa ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqadi, ularni ifoda etadi. Etnomadaniyatning mavzulari, belgilari, vazifalari jamiyat talablari ta'sirida transformatsiyaga uchraydi. Demak, etnomadaniyatda xalq, millat o'zligini asrovchi muqim, barqaror, o'zak qism va milliy madaniyatning rivojlanishiga xizmat qiluvchi ustki, transformatsiyaga moyil qism mavjuddir. Estetik omillar ularning har ikkalasiga ham xizmat qiladi, badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Shuning uchun etnoestetik merosdagi badiiy tasvir usullarini, mahoratni, estetik idealni yaratish texnologiyasini o'zlashtirish muhim ijtimoiy-amaliy ahamiyatga egadir. Buning uchun, eng avvalo, etnomadaniyatga statik, dogmatik emas, balki evolyusion-dinamik hodisa sifatida qarashga moyil "evolyusion ontologiya" konsepsiyasi nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi.

O'zbek xalq ijodi va san'atida etnoestetik belgilar, tasvirlar, artefaktlar yaqqol namoyon bo'ladi. Go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojiviylik va kulgililik, uyg'unlik kabi estetik voqeliklar xalq kitoblari, dostonlari, ertaklari, amaliy san'ati, kuy, qo'shiq va raqslarida kvintessensiyalashadi, ularda xalq qalbi va ruhi, orzu-umidlari va estetik g'oyalari aks etadi. Ushbu estetik g'oyalar turli janrlarda turlicha namoyon bo'ladi, ularni bir qolipga, tayyor tizimga solish mumkin emas. Biroq estetik g'oyalarning o'z vazifasi, badiiy tasviriy usullari, ifoda mexanizmlari mavjud. Ya'ni, ular inson qalbi va ruhini go'zal, oliyjanob, ulug'vor tuyg'ularga oshno etadi, unda umrboqiy, betakror estetik boyliklar yaratib yashash niyatini uyg'otadi, go'zallik vositasida uyg'unlikni ta'minlaydi. "Aslini olganda, uyg'unlik va go'zallik dialektik jihatdan uzviy tushunchalardir. Go'zallik hech qachon uyg'unliksiz mavjud bo'lolmaydi. Zotan, go'zallik uyg'unlikning namoyon bo'lish shaklidir. Uyg'unlik tushunchasi mutanosiblik bilan birga nomutanosiblikni ham qamrab oladi. Misol uchun, terak tik holda mutanosib uyg'unlikni hosil qilgani, tok esa egri holda nomutanosib uyg'unlikni vujudga keltirgani bilan go'zaldir."<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Шерова Д. Уйғунлик – гўзаллик асоси // Тафаккур журнали. -Тошкент, 2009. -№ 1. -Б.118.

Xalq ijodi va san'ati faqat kundalik, utilitar maqsadlarni, ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmaydi, turmush uchun ushbu narsalar qanchalik ahamiyatli bo'lmasin, ular orqali ijodkor umrboqiylikni, mangulikni yaratishga o'z hissasini qo'shishni ko'zlaydi.

Etnoestetikaning mohiyati badiiy obrazlar, tasvirlar va mahorat uyg'unligida namoyon bo'ladi. Xalq shunchaki obraz yaratmaydi, uni badiiy-emotsional, estetik tasvirlar hamda mahorati orqali bezaydi, qahramoniga, idealiga aylantiradi. Ushbu obrazni "to'da-to'da lashkarlar", dushmanlarning makru hiylasi, yaqin kishilarning sotqinligi, bedilligi ham hayotiy maqsadidan qaytara olmaydi, u cheksiz to'siqlarni engib, murod-maqsadiga etadi. Mazkur go'zal va oliyjanob fazilatlar qahramon tilaklarini, xatti-harakatlari va hayotiy maqsadini ibrat, namunaga aylantiradi. Hatto xalq naqshlari, kandakorlik, zardo'zlik san'atida kishi dilini, ruhini junbushga keltiradigan simvollarni topish qiyin emas, faqat ularni badiiy-estetik ilg'aydigan, baholaydigan, ijod xususiyatidan xabardor did, bilim kerak.

Estetik voqelik – belgi, tasvir, obraz, simvol va artefaktlar madaniyat (etnomadaniyat)ning ichida mavjud bo'lishi mumkin. Ular madaniyat (etnomadaniyat)ning badiiy-estetik atributlaridir. Shuning uchun madaniyat (etnomadaniyat)dan ayricha mavjud estetik voqelik yo'q, estetik separatizm xalq madaniyatiga yot xislatdir.

O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funksiyalari o'zbek xalqining qalbi, ruhiyatini, ma'naviy, badiiy olamini, borliqni badiiy-estetik anglash xususiyatlarini bilishga yordam beradi. Xalqimizning etnomadaniy merosida nafaqat ratsional ezgu tilak, orzu umid, shuningdek, irratsional, spiritualistik tasavvurlar, diniy-axloqiy qarashlar ham muhim o'rin tutadi. Ushbu tasavvur va qarashlar badiiy-estetik tasvirlardan xoli emas, balki ular irratsional, spiritualistik g'oyalarga ko'tarinkilik, hayotiylik, go'zallik baxsh etadi. Xalq etnomadaniyatidagi ushbu etnoestetik va etnopsixologik jihatlar zamonaviy bilimlar, yondashishlar nuqtai nazaridan tadqiq etilishi lozim.

Demokratik islohotlar davrida o'zbek etnomadaniyatini qayta tiklash, uning tarixiy, tarbiyaviy va badiiy-estetik imkoniyatlaridan foydalanish borasida ilmiy, amaliy izlanishlar o'tkazish yo'lga qo'yildi. Xalq ijodi va san'atining ko'pgina turlarini rivojlantirishga davlat rahbarlik qilmoqda.

Biroq hali o‘zbek etnomadaniyatini kompleks tadqiq etish, uning genezisi, sotsiologik va akseologik asoslari, qardosh xalqlar madaniyati bilan integratsion aloqalarini hamda ushbu aloqalar tizimida boshqa etnomadaniyatlarga qiyoslab o‘rganish oldimizdagi vazifalardan biridir. Bugungi o‘tkazilayotgan falsafiy tadqiqotlar asosan empirik xususiyatga ega, ularda falsafiy-estetik umumlashmalar kam uchraydi. Shuning uchun globallashuv ta’sirida kechayotgan etnomadaniyatlar o‘rtasidagi hamkorlikni, aloqa va integratsiyani falsafiy-estetik nuqtai nazardan, etnomadaniyatning alogenezi va ideogenezi unutmagan tarzda, tadqiq etishga ilmiy-nazariy ehtiyoj mavjud. Unda asosiy e’tibor nafaqat falsafiy umumlashmalar yasashga, shuningdek, badiiy-estetik imkoniyatlar, vositalar va artefaktlardan samarali foydalanish yo‘llarini topishga ham qaratilmog‘i darkor.

### **Nazorat savollari**

1. Madaniyatni prognozlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday xususiy madaniyat muassasalarini bilasiz?
3. “Ommaviy madaniyat”ga qarshi qanday kurashish mumkin?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Jabborov I. O‘zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. -239 b.
2. Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. –Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, 2009. 5,5 b.t.
3. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. -172 b.
4. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. T.1. -388 b.
5. Qoraboev U. Odatnoma. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. T.2. -285 b.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги “Халқаро хунармандчилик фестивалини ўтказиб боришга оид чоратadbирлар тўғрисида”ги Фармони. [http://uza.uz/oz/documents/khalqaro\\_hunarmandchilik-festivalini-o'tkazib-borishga-oid-chor-03-10-2019](http://uza.uz/oz/documents/khalqaro_hunarmandchilik-festivalini-o'tkazib-borishga-oid-chor-03-10-2019)
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент, 2017. – 488 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажакни фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. -400 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 2021. –464 б.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. -174 б.
6. Абдуллаев И. Беруний ва унинг “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” асари // Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. -Тошкент: Фан, 1968. –Т.1. -40 б.
7. Абдуллаев Х., Хасанов У. Эстетика. Маърузалар тўплами. – Тошкент, 2008. -152 б.
8. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. -184 б.
9. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент, 1968. -486 б.
10. Агзамходжаева С. Ижтимоий идеал ва маънавий ҳаёт. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. нашр., 2007. -208 б.
11. Агзамходжаева С. Ижтимоий идеал ва Ўзбекистонда маънавий тараққиёт муаммолари. Фалс. фан. докт. ... дис. –Тошкент, 2008. -337 б.
12. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати. – Тошкент: НОШИР, 2008. - 255 б.
13. Арасту. Поэтика (Нафис санъатлар ҳақида), Ахлоқи кабир (Катта ахлоқ китоби), Риторика (Хитоба). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. -351 б.
14. Арзиматова И. Эстетик маданият. – Тошкент: Фан, 2007. -45 б.
15. Арзиматова И.М. Шахс эстетик маданияти юксалишида ижтимоий-маънавий омилларнинг ўрни. Фалс. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2010. -28 б.
16. Аристотель. Всякая семья составляет часть государства // Семья. Кн. 2. –М.: Политиздат, 1990. –С. 41.



17. Арутюнов С.А. Народы и культуры. Развитие и взаимодействие. –М.: Наука, 1989. –С. 152–153.
18. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. -339 б.
19. Атамуратова Ф.С. Мустақиллик шароитида ўзбек миллий менталитетида этномаданий жараёнлар (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалс. фан. ном. ... дис. автореф. –Тошкент, 2010. -24 б.
20. Атамуратова Ф.С. Урф-одат, анъана ва қадриятларнинг менталитетда намоён бўлиш хусусиятлари // Талаба ёшларнинг миллий маънавий меросдан фойдаланиш имкониятларини кенгайтиришнинг илмий-услубий масалалари. Республика илмий-услубий анжумани материаллари. – Урганч, 2009. –Б.148-150.
21. Ахунджанов Э.А. Письменная культура Средней Азии. – Тошкент, 2000. - С. 36-37.
22. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. -274 б.
23. Бахранов Л. Бадиий танқидчиликнинг тасвирий санъат равнақиға таъсири (фалсафий-эстетик таҳлил). – Тошкент: Наврўз, 2013. -129 б.
24. Баҳром ва Гуландом; Зевархон; Фарҳод ва Ширин; Лайли ва Мажнун. Достонлар. – Тошкент: Ғ.Ғуллом номидаги Ад. ва санъат нашр., 1986. -352 б.
25. Бердяев Н.А. Диалектика божественного и человеческого. – М.: АСТ, 2004. -604 с.
26. Билиш фалсафаси (Гносеология). Тузувчи ва таржимон. Қ.Назаров. –Тошкент: Университет, 2005. -178 б.
27. Бойтемирова З. Ахлоқий эҳтиёжлар. –Тошкент: Фан, 2007. -128 б.
28. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Тошкент: Меҳнат, 1991. -368 б.
29. Гегель. Эстетика. –М.: Искусство, 1969. -Т.2. -326 с.
30. Геннет А. Ван. Обряды перехода. – М.: РАН, 2002. -204 с.
31. Гердер И.Г. Идеи к философии истории человечества. -М.: Наука, 1977. -234 с.
32. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1994. –177 б.

33. Жуманиёзова Д.К. Шахс маънавиятининг шаклланишида инсонийлик ва илоҳийлик уйғунлиги: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. -Тошкент, 2019. -Б. 126.
34. Исаков А.И. Саразм. К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зеравшанской долины. – Душанбе: Ирфон, 1991. -104 с.
35. Ислом одоби ва маданияти. -Тошкент: Чўлпон, 1995. –Б.105.
36. Йўлдошев Қ. “Алпомиш” талқинлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. -165 б.
37. Каган М.С. Философия культуры как теоретическая дисциплина // Философия культуры. Становление и развитие. -СПб.:Изд. «Лань», 1998.
38. Кантор К. История против прогресса. – М.: Прогресс, 1991. -188 с.
39. Карабаев У. Традиционное народное творчество: проблемы возрождения и развития. – Ташкент: Фан, 1991. -107 с.
40. Карабаев У. Этнокультура (Традиционная народная культура). – Ташкент: Шарк, 2005. -239 с.
41. Каримов И. Маънавият, фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент: Фан, 2001. - 213 б.
42. Кармин А.С. Основы культурологии. Морфология культуры. – Спб.: Лань, 1997. -468 с.
43. Клакхон К.К.М. Зеркало для человека. Введение в антропологию. – Спб.: Евразия, 1998. -352 с.
44. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. –Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 3.
45. Кравченко А.И. Социология. – М.: Логос, Екатеринбург., Делавая книга,1999. -С.170.
46. Культурно-досуговая деятельность: перспективы развития и проблемы регулирования. – Свердловск, 1991. -204 с.
47. Махмудова Г.Т. Философская сущност Авесты. – Ташкент: Санъат, 2010. -224 с.
48. Маҳмуд Саттор. Ўзбек удумлари. – Тошкент: Чўлпон, 2007. -192 б.
49. Маҳмудов Т. “Авесто” ҳақида. –Тошкент: Шарқ, 2000. -68 б.
50. Маҳмудова Г. Жадидизм ва Туркистонда ахлоқий-эстетик фикр тараққиёти. –Тошкент: ДАВР ПРЕСС, 2006. –Б. 44-49.

51. Маъруфбоев Б. Этномаданий тафаккур – миллий санъат ривожига муҳим омил // Санъат масалалари ёшлар нигоҳида. Илмий амалий конференция материаллари. -ЎзДСИ. 5-жилд. – Тошкент, 2012. -Б. 5-10.
52. Менгликулов У.М. Сурхон воҳа аҳолиси анъанавий маданиятининг айрим хусусиятлари // ЎзМУ хабарлари. -Тошкент, 2018. - № 1/4/1. -Б. 212-215.
53. Менгликулов У.М. Ўзбек этномаданиятининг Шарқ цивилизatsiyасига таъсири // ЎзМУ хабарлари. -Тошкент, 2020. -№ 1/3. -Б. 126-127.
54. Менгликулов У.М. Ўзбек этномаданиятининг эволюцияси // Фалсафа ва ҳуқуқ. -Тошкент, 2019. -№ 2. -Б. 186-190.
55. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. -183 б.
56. Муродов М., Қорабоев У., Рустамова Р. Этномаданият. – Тошкент: Адолат, 2003. -225 б.
57. Мухитдинова Д.М. Национальная эстетическая культура: самобытность и проблемы развития (социально-философский аспект). Автореф. дисс... канд. филос. наук. –Ташкент: 2005. -22 с.
58. Называть вещи своими именами. Програмные выступления мастеров западно-европейской литературы XX века. -М.: Прогресс, 1986. - С. 237–249.
59. Ницше Фр. Воля к власти. Опыт переоценки всех ценностей (1884–1888). – М.: ТОО Транспорт, 1995. -188 с.
60. Нишанов М.Н. Обновление духовной жизни насий. – Ташкент: Фан, 1992. -204 с.
61. Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. – Тошкент: Фан, 2013. -172 б.
62. Нурматова М. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. – Тошкент: Университет, 2009. -127 б.
63. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. -200 б.
64. Ремпел Л.И. Далекое и близкое. –Ташкент: Изд. лит. и искусство им Г.Гуляма, 1981.
65. Ремпель Л.И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. –Ташкент: Изд. лит. и искусство им. Г.Гуляма, 1987.

66. Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре. – М.: Республика, 1998. -408 с.
67. Ртвеладзе Э.В., Лившиц В.А. Памятники древней письменности. – Тошкент: Узбекистан, 1985. –С. 7-8.
68. Рўзиева Р. Ёшларда миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигини шакллантириш. – Тошкент: Фан, 2011. -182 б.
69. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. - Тошкент: Ўқитувчи, 1996. -Б.13-15.
70. Саййид Муҳаммад Хотамий. Ислом тафаккури тарихидан. – Тошкент: Минҳож, 2003. -128 б.
71. Саралаев У.К. Международное общение: теория и практика. – Ташкент: Меҳнат, 1999. –104 с.
72. Саримсоқов Б. Маросим фольклори // Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. -208 б.
73. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. –Тошкент: Фан, 1986. –Б. 19-20.
74. Собитова Т. Халқ ижоди сабоқлари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. -224 б.
75. Соловьев В.С. Философия искусства и литературная критика. – М.: Искусство, 1991. -699 с.
76. Тойнби А.Дж. Цивилизация перед судом истории. – М.: Рольф, 2002. –802 с.
77. Тойнби А.Дж. Постигание истории. – М.: Прогресс, 1991. –688 с.
78. Традиционные мировоззрение тюрков Южной Сибири. // Знак и ритуал. – Новосибирск: Наука, 1988.
79. Умаров Э. Эстетика (Нафосатшунослик). – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. -200 б.
80. Утанова У.А. Мустақил Ўзбекистонда халқ маданиятининг равнақи (фалсафий-маданий ёндашув). Фалс. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: 2008. -24 б.
81. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. –Тошкент: Маънавият, 2000. –Б. 55.
82. Фромм Э. Мужчина и женщина. –М.: ООО «Фирма Изд-во АСТ», 1998. –С. 451-452.

83. Хамраев Ф.Ш. Социально-философский анализ интеграционных процессов культур народов независимых государств Центральной Азии. Автореферат дисс. канд. филос. наук. –Ташкент, 2002. –13 с.
84. Хожа Абулхолик Гиждувоний. Тарихлари, насиҳатлари, ривоятлари, кароматлари. – Тошкент: Мовароуннахр, 2003. -82 б.
85. Хосе Ортега-и-Гасет. Дегуманизация искусства и другие работы. – М.: Радуга, 1991. -462 с.
86. Хотамий, Саййид Муҳаммад. Ислом тафаккури тарихидан. – Тошкент: Минҳож, 2003. -204 б.
87. Чеснов Я.В. Лекции по исторической этнологии. – М.: Гардарика, 1998. -397 с.
88. Шер А., Хусанов Б., Умаров Э. Эстетика: Услубий қўлланма. – Тошкент, 2008. –168 б.
89. Шер А., Хусанов Б. Эстетика. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010. –98 б.
90. Шермухамедов С., Очилдиев А. Маданият ва цивилизация. - Фарғона, 2000. – 26 б.
91. Шерова Д. Уйғунлик – гўзаллик асоси // Тафаккур журнали. - Тошкент, 2009. -№ 1. -Б.118.
92. Шерова Д. Уйғунлик ва улуғворлик: концептуал таҳлил // ЎзМУ хабарлари. -Тошкент, 2018. -№ 1/4/1. -Б.427-428.
93. Шерова Д. Шахс камолотида бадий-ижодий тасаввурлар уйғунлиги // Санъат ва бадий таълимнинг замонавий жамиятни маънавий модернизациялашдаги ўрни: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. -Тошкент, 2018. -Б.620.
94. Шониязов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарк, 2001. - 468 б.
95. Эргашев А., Ҳакимов Р. Достонлар – одобнома дарслиги. // Ўзбек халқ донишмандлиги сабоқлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –Б. 70-71.
96. Юсупов Э. Миллий ғоя ва мафкура: моҳияти, ижтимоий-тарихий илдиэлари, аҳамияти. – Шимкент, 2001. -182 б.
97. Ялгашев Б. Samarkand architectural style of Timurid dynasty period (Oksaroy and Ishratkhona mausoleums as examples) // Modern views and research. International scientific and practical Conference. – London, 2020. -P. 98-99.

98. Ялгашев Б. Самарқанд аҳолисининг анъанавий халқ кийимларидаги этник кўринишлар // Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар: Республика 18-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари. -Тошкент, 2020. -Б. 57-58.

99. Ялгашев Б. Самарқанд миллий меъморчилик санъатининг ўзига хос жиҳатлари (Имом Мотурудий мақбараси мисолида) // Глобал ҳамкорлик – барқарор ривожланиш ҳолати ва кафолати: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. -Тошкент, 2020.

100. Ястерс К. Смысл и назначение истории. –М: Республика, 1998. - 21 с.

101. Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. -422 б.

102. Ўзбек халқ эртаклари. –Тошкент: ДАВР ПРЕСС, 2010. -128 б.

103. Ўзбекистон – бағри кенг диёр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007.

104. Қиссаи Биби Сешанба. Биби Мушкул кушод. –Жиззах, Жиззах вилоят матбуот бошқармаси қошидаги ноширлик-муҳаррирлик бўлими, 1992. –Б.10.

105. Қорабоев У. Маданият масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009. -286 б.

106. Қорабоев У. Одатнома. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. Т.1. -388 б.

107. Қорабоев У. Одатнома. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. Т.2. -285 б.

108. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент: Шарқ, 2002. - 239 б.

109. Қорабоев У., Иброҳим Худоёр. Наврўз. –Тошкент: Академия, 2000. -23 б.

110. Қорабоев У., Соатов Ғ. Ўзбекистон маданияти. –Тошкент: Тафаккур-бўстони, 2011. -193 б.

111. Қуронов М. Ўзбек характери ва миллий ғоя. – Тошкент: Маънавият, 2005. -96 б.

112. Ҳадис. 1-китоб. -Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. – Б.543.

113. Ҳамидов Ҳ. Ўзбек анъанавий кўшиқчилик маданияти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. -244 б.

114. <https://islom.uz/maqola/13059>

115. <http://lslobvud.allalla.com/coed/785-abramjan-eh-g-u-istokov-kulturnojj-tradicii.html>. –С. 32-38.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. Etnomadaniyat faniga kirish.....	5
2-mavzu. Etnomadaniyatning genezisi.....	16
3-mavzu. Etnomadaniyatning ijtimoiy funksiyalari.....	24
4-mavzu. Xalq madaniyati va xalq estetikasi: immanent belgilari hamda dialektik bog‘liqligi.....	36
5-mavzu. Etnomadaniyatda milliylik va umuminsoniylik dialektikasi.....	42
6-mavzu. O‘zbek etnomadaniyatida milliy g‘oyaning aks ettirilishi.....	47
7-mavzu. Etnomadaniyatda xalq idealining aks ettirilishi.....	53
8-mavzu. Islom dini qadriyatlari: ilohiylik va insoniylik uyg‘unligi.....	60
9-mavzu. O‘zbek etnomadaniyatining o‘ziga xos ko‘rinishlari.....	69
10-mavzu. Oilaviy-maishiy marosimlarning konvensional (etnik va milliy) asoslari.....	76
11-mavzu. Mavsumiy, tabiat bilan bog‘liq bayram-marosimlar va ularning asosiy funksiyalari.....	86
12-mavzu. Etnomadaniyatdagi innovasion va transformatsion o‘zgarishlar.....	100
13-mavzu. O‘zbekistonda etnomadaniyatni rivojlantirish muammolari.....	112
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	120

**O.NISHANOVA**

**ETNOMADANIYAT**

**O'QUV QO'LLANMA**

Muharrir Z.N.Buranov

Bosishga ruxsat etildi 27.12.2021y. Bichimi 60X84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Bosma tabog'i 8,0. Shartli bosma tabog'i 8,0. Adadi 50 nusxa.

Buyurtma № 213. Bahosi kelishilgan narxda.

“Universitet” nashriyoti. Toshkent, Talabalar shaharchasi,  
O'zMU ma'muriy binosi.

O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent, Talabalar shaharchasi, O'zMU.